

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi o'quv  
metodik birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan  
“Kasbiy ta'lim (Iqtisodiyot)” ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma  
sifatida tavsiya etilgan**

**TOSHKENT - 2013**

Djuraeva M.T., Abdullayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.O'quv qo'llanma.- T.: TDIU, 2013.-116 b.

Mazkur o'quv qo'llanma bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy ishlar metodikasiga oid bilimlar bilan qurollantirish, tarbiviylarni tashkil etish mahoratini shakllantirish masalasiga bag'ishlangan. Qo'llanma to'qqiz bobdan iborat bo'lib, unda asosiy e'tibor tarbiyaviy ishlar metodikasining tamoyillari, vazifalari, tarbiya usullari va shaxs rivojlanishining asosiy qonunlarini tahlil etishga, axloqiy, estetik, ekologik va mehnat tarbiyasining o'ziga xos jihatlarini o'rganishga hamda pedagogik texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan. Qo'llanmada O'zbekistonlik pedagog olimlarning keyingi yillarda tarbiya sohasida olib borayotgan pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari o'z aksini topgan.

O'quv qo'llanma Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti ilmiy kengash qarori asosida chop etildi.

Taqrizchilar:

P.f.d., dots. Xakimova M.F. – Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti.

P.f.d. prof. Shodmonova Sh.S- Toshkent Davlat Pedagogika universiteti.

## Mundarija

<b>Kirish .....</b>	5
<b>I BOB.</b> Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining nazariy asoslari.....	7
1.1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi faniga kirish. Fanning maqsadi, vazifasi, asosiy tushuncha va tamoyillari. ....	10
1.2.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining mazmuni, mohiyati va shaxs tarbiyasidagi roli. ....	10
1.3.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining dolzarb muammolari va uni bartaraf etish yo'llari. ....	11
1.4.Tarbiyaviy jarayonda g'oyaviy-siyosiy-ahloqiy tarbiyani tashkil etish.....	13
1.5.Guruh rahbari ishini rejorashtirish. ....	17
1.6.Tarbiyaviy ish rejalariga kiritiladigan tahminiy ishlar.....	23
<b>II BOB.</b> Guruh rahbari faoliyatini tashkil etish va boshqarish.....	27
2.1.Guruh rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi, tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish. ....	27
2.2.. Guruh rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi va tarbiyaviy ishlar jarayonini rivojlantirish yo'llari. ....	30
2.3. Guruh rahbarining vazifalari va shaxsiy sifatlari.....	32
2.4.Guruh rahbarining faoliyati. ....	34
2.5.Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyati. ....	38
2.6.Mustaqillik sharoitida tarbiyaviy ishlar jarayoniga va guruh rahbari faoliyatiga qo'yilgan talablar.....	42
<b>III Bob.</b> Guruh rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishi usullari.....	46
3.1..Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalashga qo'yilgan talablar.....	46
3.2. Guruh jamoasini o'rganish va uni dasturini ishlab chiqish.....	49
3.3..Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalash ishini rejorashtiri .....	51
3.4.Guruh jamoasi bilan ishslash va unga rahbarlik qilish.....	53
<b>IV Bob..</b> Guruh rahbarining oila va jamoatchilik hamkorligida olib boradigan pedagogik faoliyati.....	58
4.1. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Kontseptsiyasining o'rni va ahamiyati.....	58
4.2.. Guruh rahbarining oila va jamoa bilan olib borgan faoliyati.....	59
4.3. Ota-onalar bilan ishslashning shakl va metodlari.....	61
4.4. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va o'quv yurtining hamkorligini amalga oshishirish tamoyillari va bosqichlari.....	65
<b>V Bob.</b> Talabalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda guruh rahbarining roli.....	69
5.1.Mehnat tarbiyasining mazmuni. ....	69
5.2.Mehnat tarbiyasini singdirishda guruh rahbarining tutgan o'rni. ....	70
5.3. Talabalarning o'quv mehnatini tashkil etish usullari.....	71
<b>VI BOB.</b> Darsdan tashqari vaqttagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakllari.. ....	75

6.1. Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni va unga qo'yiladigan talablar .....	75
6.2.Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlar shakllari.....	76
6.3. Tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini boshqarishi.....	78
6.4. Darsdan tashqari vaqtarda ta'lif-tarbiya muassasalarida bayramlarni, ommaviy tadbirlarni namunali o'tkazish usullari.....	82
<b>VII BOB.</b> "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish. ....	88
7.1. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	88
7.2. Dars jarayonida treninglarni tashkil qilish va uning tarkibiy qismlari. ....	90
7.3. Treninglarni o'tkazishda guruhlar bilan ishslash va ularga rahbarlik qilish. ....	92
7.4. Guruh tarkibini almashuvchan xarakterini hisobga olish.....	94
7.5. Sotsiometriya uslubi bilan guruxni o'rganish.....	96
<b>VIII BOB.</b> Tarbiyaviy ishlar yuzasidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar.....	100
8.1. O'quv-tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishning tashkiliy shakllari va o'tkazish metodikasi. ....	100
8.2. Guruh majlisini tayyorlash va o'tkazish .....	104
8.3. Umumiy qoidalar. ....	106
8.4. Guruh to'g'risida ma'lumot .....	108
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	112

## KIRISH

Barkamol shahsni tarbiyalash barcha davrlarda muhim ijtimoiy talablardan biri bo'lib kelgan, ammo bugungi sifat o'zgarishlar ro'y berayotgan bir davrda bu masalaning dolzarbliyi yanada kuchayib talab ortib bormoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta'lim-tarbiya jarayoni qayta ko'rib chiqilib uni rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan "Ta'lim to'g'risidagi" qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning yaratilishi ta'limni tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini berdi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o'zining bir qancha nutq va risolalarida istiqbolga erishishning yo'llari, tamoyillarini aniq va ravshan ko'rsatib bergen. I.A.Karimovning «Istiqlol va ma'naviyat», «O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida», «Barkamol avlod orzusi» kabi asarlarida jamiyatning ma'naviy jihatdan yangilanishi va rivojlanishining asosiy negizlari bayon etilgan.

O'tish davrining eng asosiy xususiyatlaridan biri bu - jamiyatning ma'naviy jihatdan yanada yuqori pog'onaga ko'tarilishidir. Chunki o'tish davri bиринчи galda jamiyatdan ma'naviy o'sishni talab etadi. Ma'naviy o'sish o'z navbatida fantexnika, madaniyat, san'at hamda iqtisodiy rivojlanishiga asos bo'lib hizmat qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda ma'naviy fazilatlarni tarbiyalash masalasi o'ta dolzarb masaladir.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da har tomonlama barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirish nazarda tutilgan. Bunday natijaga erishish uchun ta'lim-tarbiya jarayonining uyg'unligini ta'minlash, tarbiya jarayonining qonuniyatlarini chuqur o'rganish va bugungi kun talablariga javob bera oladigan barkamol yosh avlodni tarbiyalash usullarini taqiq qilish lozim. Barkamol avlod tarbiyasi ko'p jihatdan bugungi kunda tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mahoratiga bog'liqdir. Shuning uchun bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy ish metodikasiga doir bo'lgan bilimlar bilan muntazam ravishda tanishtirib borishimiz, bu borada malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor berishimiz lozim. Bunday vazifani bajarish uchun albatta o'quv qo'llanma va darsliklarni bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish talab etiladi.

Bugungi kunda tarbiyaviy ishlarni metodikasiga bag'ishlangan o'quv qo'llanmalar mavjud. Bulardan biri L.V.Ruvinskiyning «Tarbiyaviy ish uslubiyoti» (1991 y) deb nomlanuvchi qo'llanmadir. Ushbu qo'llanma sobiq Sovet davrida nashr etilganligidan ana shu davr xususiyatlarini va dunyo qarashini o'zida aks ettiradi. Bugungi kunda bizning dunyoqarashimiz, ehtiyojlarimiz va talablarimiz butunlay o'zgargan. Bundan tashqari ushbu qo'llanmada axloqiy, estetik, ekologik tarbiya masalalari deyarli tahlil etilmagan. Bu borada erishilgan oxirgi yutuqlar o'z aksini topmagan.

Keyingi yillarda Rossiyada pedagogikaga oid ko'plab chop etilgan adabiyotlar mavjud masalan: I.P.Podlaso'yning «Pedagogika» nomli darsligi (2006), S.L.Vigman «Pedagogika v voprosax i otvetax» nomli o'quv qo'llanmasi (2006), P.I.Pidkasisto'y

taxriri ostida chop etilgan «Pedagogika» darsligi (2006). Aytish joyizki bu darslik va o'quv qo'llanmalar yangi pedagogik bilimlarga boy, ammo ularda o'zbek xalq pedagogikasining xususiyatlari hisobga olinmagan va eng muhimi bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlari aks ettirilmagan. Bugungi kunda O'zbekistonda pedagogikaga oid o'quv qo'llanmalar ko'plab chop etilmoqda, ammo ularda asosiy e'tibor tarbiya nazariyasiga qaratilgan bo'lib, tarbiyaviy ishlar metodikasi masalasiga kam e'tibor berilgan.

Biz yuqorida fikrlardan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1999 yil 28-sentyabrdagi 288-sonli «Uzluksiz ta'lim tizimini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida» gi hamda 2001 yil 20 fevraldagi 43-sonli «Darsliklar yaratishni jadallashitirish to'g'risida»gi buyruqlaridan kelib chiqqan holda «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanidan o'quv qo'llanamani ishlab chiqdik. Mazkur o'quv qo'llanmada bugungi kunda tarbiya borasida yuzaga kelayotgan muammolar atroflicha tahlil etilgan va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining har bir shaxs oldiga qo'yayotgan yangi talablari asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish masalasi ko'rilgan. Bugungi kunda O'zbekistonda tarbiya borasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari yoritilgan.

«Tarbiyaviy ishlar metodikasi» kursi oldida ikki vazifa turadi: birinchisi, bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy ishlar metodikasiga oid bilimlar bilan tanishtirish va ana shu bilimlarni mahorat bilan qo'llash malakasini shakllantirishdir; ikkinchisi bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy ishlarni tashkil etish masalasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga tayyorlash. Chunki tarbiya uzluksiz rivojlanib, o'zgarib boruvchi jarayondir. Tarbiya jarayoni har bir tarbiyaviy vaziyatga ijodkorona yondoshuvni talab etadi. Mazkur qo'llanma ana shu vazifalarni bajarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

## **I BOB.Tarbiyaviy ishlар metodikasi faniga kirish.**

### ***1.1.Tarbiyaviy ishlар metodikasi faniga kirish. Fanning maqsadi, vazifasi, asosiy tushuncha va tamoyillari.***

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o'z Vatanining Ilg'or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

Yangi asrga qadam qo'yар ekanmiz mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Jamiat ma'naviy yukasalishi va yangilanishi sari yo'z tutgun bir paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 3-sentyabrdagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiylar va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda etilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon ulkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lismaytga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushinib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Ma'naviyati yuksak shaxslar yurtni tanitadi. Shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat – tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim – tarbiyasiz ma'naviyatning bo'lmasisligi barchaga ayon haqiqatdir.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo haloqat, yo sadoqat, yo faloqat masalasidir!" degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sog'lom, ma'nан etuk shaxs yaratishga e'tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi.

Mazkur "Tarbiyaviy ishlар metodikasi" fanining o'qitilishi ham aynan ushbu qarorga asosoan pedagogikaga ixtisoslashgan mutaxassislar uchun ishlab chiqilgan. Bunda uslubiyot tarbiya nazariyasining umumiy qoidalariiga asoslanishi, lekin ularni takrorlamasligi, bu qoidalarni ro'yobga chiqarish usullarining vositalari, yo'llari va shakllaridan iborat bo'lishi lozim.

Tarbiyaviy ish metodikasini o'rganish talabalarni tarbiyalashning umumiy masalalarini mustaqil, ijodiy va dadil hal qilishga tayyorlashi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirishi uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor shaxsga

qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analarga , urf–odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaviy ishlar tmetodikasi fanining asosiy vazifasi esa – shaxsning aqliy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun: yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z – o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyqotish;

Talabalarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallahsga bo'lgan talabalarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlanтиrish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko'rish;

Insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir–birini tushinadigan, mehribon, shafqatli, irqiy kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik) muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo'llanishi lozim.

Tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir shaxs, o'smir va yosh yigit – qizning betakror va o'ziga xosligini e'tiborga olish; Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ishiga va turli yoshdagagi tarbiyalanuvchilarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish lozim.

O'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi "Pedagogika" fanining bir qismi bo'lib, fan sifatida ajralib chiqdi va o'zining nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada tarbiyaviy ishlarning tarmoqlari vujudga keldi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bir necha qismga bo'lib o'rganiladi. Bular quydagilardir: "Odobnoma fanini o'qitish" metodikasi, "Jamoani tashkil qilish" metodikasi, "Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlarni tashkil etish" metodikasi hamda "Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla hamkorligini amalga oshirish" metodikasi va hakozolar.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi "Pedagogika" fanining bir qismi bo'lib, fan sifatida qaraladi va o'zining nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada tarbiyaviy ishlarning tarmoqlari vujudga keldi.

Demak bu fanni o'qitishdan maqsad kelajakda talabalarimizga ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiyaga davr talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondoshishni, ishni sifat, mazmun jihatdan to'g'ri tashkil etishni o'rgatishdan iboratdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy – tarixiy an'analarga , urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Pedagogik texnika – bu shunday bir malakalar yiqindisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib to'rgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi. Talabalar bilan bevosita muomala qilishda pedagogning xuddi ana shu malakalari (yoki ularning yo'qligi) uning xulq atvorida namoyon bo'ladi.

Pedagogik mahorat bu fahm – farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyatagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlikning, talabalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan talaba shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat majmuasidir.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari pedagog rahbarligidagi Mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual – shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol o'ynaydi.

O'zbekistonning mustaqilligi tufayli ota – bobolarimizning axloq – odob haqidagi hikmatli hikoyalari, naql – rivoyatlari yoshlarning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni biz odobnoma fanining o'qitilishi misolida ko'rishimiz mumkin. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda esa har bir pedagog axloq odob haqidagi bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o'qitishda jamoani tashkil qilish metodikasiga katta e'tibor beriladi, chunki shaxsni jamoada tarbiyalash bilangina jamiyatni yuksaltirish mumkin. Bu vazifalarni esa biz odatda guruh rahbarlarining zimmasiga yuklaymiz. Guruh rahbarlari o'z navbatida guruhdagi talabalarning bevosita ta'lim – tarbiya jarayoni, ya'ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga ma'suldirlar.

Keyingi yillarda davlatimizda qabul qilinayotgan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv maskanlarining nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Shu maqsadda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va uni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida biz sizlar bilan o'qish davomida ushbu uslublardan foydalangan holda darslarni tashkil etamiz va har bir yo'nalishga alohida to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda huquq – tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, davlat va nodavlat jamg'armalar, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tarbiya- ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir. Bugungi kunda tarbiya metodlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1.So'z orqali ifodalash metodi.

2.Ko'rgazmalilik metodi.

3.Amaliy, namuna usuli.

4. Rag'batlantirish va jazolash .

Birinchi guruh - so'z orqali fikrni bayon etish, maslahat berish, yo'naltirish, suhbat, hikoya, ma'ro'za.

Ikkinci guruh - kinofilmlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va adabiyot.

Uchinchi guruh - tarbiya ma'alumotlarini amaliy mehnat xarakatlari orqali berish, o'rnak ko'rsatish, namuna va ibratdan foydalanish.

To'rtinchi guruh - talabalarni yaxshi bajarilgan ish uchun Rag'batlantirish. Rag'batlantirish ma'naviy va moddiy ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Jazolash metodi ham kam ishlatilishiga qaramasdan o'zining ma'lum ta'sir kuchiga ega. Jazolashga - tanbeh berish, qattiq ogohlantirish, uyaltirish kabilar kiradi.

### ***1.2.Tarbiyaviy ishlar metodikasi faniniüng dolzarb muammolari va uni amalga oshirish yo'llari.***

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o'z Vatanining Ilg'or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

Yangi asrga qadam qo'yар ekanmiz, mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy yukasalishi va yangilanishi sari yo'z tutgun bir paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 3-sentyabrdagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifikat kengashining qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiylar va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg'usi Bilan birgalikda etilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon ulkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lismi ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushinib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sog'lom, ma'nan etuk shaxs yaratishga e'tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi.

Mazkur "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining o'qitilishi ham aynan ushbu qarorga asosoan pedagogikaga ixtisoslashgan mutaxassislar uchun ishlab chiqilgan. Bunda uslubiyot tarbiya nazariyasining umumiy qoidalariiga asoslanishi, lekin ularni takrorlamasligi, bu qoidalarni ro'yobga chiqarish usullarining vositalari, yo'llari va shakllaridan iborat bo'lishi lozim.

Tarbiyaviy ish metodikasini o'rganish talabalarni tarbiyalashning umumiy masalalarini mustaqil, ijodiy va dadil hal qilishga tayyorlashi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirishi uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor shaxs shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqazo etadi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy – tarixiy an'analarga , urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining asosiy vazifasi esa – shaxsning aqliy erkin fikrlovchi, axloqan barkamol va jismoniy jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirish hamda uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun: yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z – o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyqotish;

Talabalarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallahsga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib–boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlanantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko'rish;

Insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir – birini tushinadigan, mehribon, shafqatli, irqiy kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik) muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo'llanishi lozim.

Tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir shaxs, o'smir va yosh yigit – qizning betakror va o'ziga xosligini e'tiborga olish;

Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzlusiz ishiga va turli yoshdag'i tarbiyalanuvchilarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish lozim.

O'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

### ***1.3. Tarbiyaviy ishlar metodikasi faniniing jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati.***

Har qanday faoliyatda sifat va samaradorlikka erishish xozirgi kunimizning muxim talabi xisoblanadi. O'quv yurtidagi asosiy faoliyat o'qishdir. Shuning uchun tarbiya o'qish faoliyati bilan qancha ko'p boqlansa, uning mazmunida tarbiyaviy tomon qancha kuchli bo'lsa, tarbiya bilan ta'lim birligi barcha choralar bilan xal qilinsa, u xolda muvoffaqiyatga erishish shuncha osonlashadi.

Ammo tarbiyaviy ta'sir ta'lim bilan cheklanmaydi. Uning mazmuni darsdan tashqarida talabalar faoliyatini uyuştirish, turli tuman tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish orqali to'latiladi va xal qilinadi. Mana shu tarbiya jarayonining samarasini oshirish nimalarga bog'liq?

Tarbiyaning samaradorligini oshirish dolzarb va murakkab muammodir. Samaradorlik deganda esa xar qanday faoliyatda eng kam kuch sarflash va

moddiy jixatidan kam xarajat qilgan xolda, qisqa vaqt ichida ko'zlangan maqsadga to'la erishish tushiniladi. Garchi buni tarbiyaga tadbiq etadigan bo'lsak, unda qulaylik tomoni xam xisobga olinadi. Lekin uning amalda xal qilinishi ma'lum shart-sharoitga bog'liq bo'ladi. Bular, avvalo tajribada qat'iy tizimning bo'lishini taqazo etadi. Tajribadagi tizimchilik istagan pedagogik tadbirning muntazam uyuştirilishi deb tushuniladi. Ba'zi o'quv yurtlarida qobilyatli, ijodiy izlanuvchan gurux rahbarlari tomonidan tarbiyaviy ishlarning maxsuldar natija beradigan tizimi vujudga keldi. Ammo ayrim gurux rahbarlarining tajribasida umumiyliz tizmning faqat ba'zi tarkibiy qismlarigina bor, xolos. Boshqalarida esa tizim o'rniغا turli tadbirlarning tartibsiz to'plamiga duch kelamiz. Ana shunday xolda tarbiyaviy imkoniyat bilan natija o'rtasida uzviylik yo'qoladi. Bu xolning vujudga kelmasligi uchun gurux rahbari faoliyatida tarbiyaviy ishlarning tizimi bo'lishi shart.

Tarbiyaviy ishlar tizimi o'z belgilariga ega bo'lib, guruh rahbari shularni esda tutishi va quyidagilarga rioya qilishi kerak:

1. Tarbiyaviy ish tarbiyaning umumiyliz maqsadiga bo'y sunishi va ayni paytda aniq vazifaga boqlanish kerak;
2. Tarbiyaning mazmuni, metodi, usuli, tashkiliy shakl va boshqarish jarayonining yaxlit xamda bir butunligini ta'min etishi kerak. Bular o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib ulardan birining o'zgarishi butun tizimning o'zgarishiga olib keladi;
3. Tarbiyadagi dinamiklik-istagan tizim o'z o'tmishiga, xozirgi darajasiga va kelajak istiqbollariga ega bo'lishi kerak;
4. Tarbiyaning boshqarilishi—tarbiyaviy ish tizimi tarbiyachidan qilingan ishning natijasini o'rganib borishni, o'z ishini taxlil qilish uslubini egallab borishni taqozo qiladi;
5. Tarbiya ishlari atrof—muxit bilan davr ruxi bilan boqlanib borishi kerak.

Tarbiyaviy ishlar tizimi o'z mazmuniga ega. Buni tarbiyani umumiyliz mazmuni va guruxning imkoniyatiga mos keladigan xajmi belgilaydi. Lekin tarbiyaviy ishlar tizimi qotib qolmagan mazmunan va shaklan muntazam yangilanib turishi va bu tarbiya jamoaning extiyoji sifatida vujudga kelishi lozim.

Tarbiyaviy ishning samaradorligiga tarbiyaga majmuaviy munosabat talabi xam ta'sir etadi. Tizim va majmuaviy munosabat o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ulardan biri yo'q joyda ikkinchisi xam bo'lmaydi. Tarbiyaga majmuaviy munosabat tarbiyaning asosiy moxiyati bo'lgan xar tomonlama garmonik rivojlangan shaxsni etishtirish maqsadidan kelib chiqadi.

Majmuaviy munosabat tarbiyaviy ishlarni birlashtirishini, pedagogik ta'sir vositalarni taxlil qilish yo'li bilan gurux rahbari mexnatida yuksak samaraga erishishni ta'minlaydi. Bunda xam bir ish mavzu bilan boqlanib, butun jamoaning ishtiroki shu asosida ta'minlanadi. Gurux rahbari ishidagi majmuaviy munosabat umum muktab tarbiyaviy ishlari zanjiri bilan boqlanishi tufayligina vujudga keladi.

Akademik litssey, kollejdagi tarbiyaviy ish davri bir qator o'quv yurti tadbirlari atrofiga birlashadi va uning amalga oshirilishida birinchi kursdan uchinchi kursgacha bo'lgan xamma talabalar, gurux rahbarlari, ota-onalar,

barcha o'qituvchilar, «Kamolot» tashkiloti va otaliq korxona vakillari qatnashadi.

Masalan: «jonajon o'quv yurtim mening» mavzusidagi umumiy tadbirni olaylik. Xar bir guruxda shu mavzu bilan bog'liq o'lakashunoslik ishlari zanjirli tashkil etadi; dorivor o'simliklarni yiqish o'lka tabiatini bilaqonlarning bellashuvini o'tkazish, ko'rgazma uchun tabiiy ma'lumotlar yiqish, ko'z guldstasi tanlovini uyutirish sayyoxlar musobaqisini (gulxan yoqish, palatki o'rnatish, tez yordam berish, ko'maklashish va boshqalar) tashkil etish, rasssomlar, fotosur'atchilar tanlovini o'tkazish va ona Vatan mavzusida insho yozish, sayoxatga chiqish (kichiklarga kattalarga bog'liq) xamda boshqa ishlar uysushtiriladi. «Tabiat fantaziysi» ko'rgazmasini tishkil etish bilan ishga yakun yaasaladi.

Dasturning bu qadar xilma-xilligi gurux talablarining mustaqilligini oshiradi, ularning sport, sayoxlikka xamda mexnatga oid malaka va ko'nikmalarning sinovdan o'tkazadi, axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlaydi. Bunday tadbirlarga «qo'shiq bizga xamroxdir» mavzusida qo'shiqlar festivali o'tkazish; ta'til kunlarida «Biz dunyoning egalarimiz» mavzusida yiqilishlar, sof vijdonli kishilar, «urush oloviga qarshi kurashganlar safiga» mavzusida yosh antifashistlar xafitaligi, bilimlar va ijodiyot ko'rigi, fan va texnika xafitaligi; «Mening mexnatim respublika mexnatiga qo'shiladi» mavzusida mexnat xafitaligi va o'n kunliklari tashkil qilish mumkin. Bu xildagi ishlar o'z mazmuni bilan o'quvchilarda yuksak fuqarolik fazilatlarini shakllantiradi, g'oyaviy-siyosiy mexnat xamda axloqiy tarbiya uyg'unligi ta'minlaydi va ana shular tarbiyadagi namunaviy munosabatni ifodalaydi.

Gurux rahbari tarbiya ishlari tizimidan xam majmuaviy munosabat xa vaziyatni yaratish maqsadida foydalanish kerak. Chunki tarbiyada vazifalar yaratadigan tarbiyani undan o'z maqsadi uchun juda keng va unumli foydalana oladi xam.

#### ***1.4.Tarbiyaviy jarayonda g'oyaviy-siyosiy va axloqiy tarbiyani tashkil etish.***

G'oyaviy axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi g'oyaviy axloqiy jixatidan etuk va faol yoshlarni tayyorlashdir. Eng muhim vazifalardan esa, bu talabalarni axloq talablariga muvofiq takomillashtirishga tomon yo'naltirishdir. Xar bir talaba o'zini-o'zi tarbiyalashning maqsadini aniqlab olishga yordamlashmoq kerak. Buning uchun xar bir o'quvchining extiyoj va qiziqish darajasini o'rganish ularga o'z extiyojlarini jamiyat manfaatlariga, xal etilayotgan ijtimoiy vazifalarga bo'ysintirishga, o'z jamoasi sharoitida vujudga kelayotgan extiyojlarni ko'ra olishga va nixoyat ularning xal qilishning aniq shart-sharoiti va xaqiqiy imkoniyatlarni topa olishga o'rgatish gurux rahbarining burchidir. g'oyaviy axloqiy tarbiya vazifalarini amalga oshirish, o'quvchilarni g'oyaviylik, baynalmilallik, vatanparvarlik ruxida tarbiyalash; shaxsning faol pazittsiyasini tarkib toptirish; axborotlar oqimida o'ziga to'g'ri yo'nalish oola bilishga o'rgatish; milliy g'oya uchun kurash jarayonida o'zining faol faoliyati bilan ishtirok etishga tayyorgarlik; mexnat faoliyatida g'oyaviy-axloqiy jixatdan tarbiyalashning axamiyati tobora ortib bormoqda.

Talabalarni g'oyaviy-siyosiy, axloqiy jixatdan tarbiyalash, ularda dunyoqarashni shakllantirish asosan darsda xal qilinadi, lekin bu ish gurux rahbari faoliyatida aloxida o'rIN tutish kerak. Lekin bu muxim masalani xal etishda gurux rahbari quyidagi vazifalarni majmuali xal qilish kerak:

- 1.Talabalarni ma'lum bir darajadagi siyosiy bilimlar, dunyoqarashga doir g'oya va tushunchalar bilan qurollantirish;
- 2.Talabalarda fuqarolik xislarini xosil qilish, ya'ni o'zining mamlakatdagi, xalqi xayotidagi voqealarga aloqador ekanligini anglashiga erishish, vatanparvarlik, baynalmilallik sifatlarini tarbiyalash;
3. Talabalarni ijtimoiy-siyosiy amaliyatga, ijtimoiy foydali ishlarga mexnat faoliyatigafaol jalb qilish yo'li bilan ularda ijtimoiy-siyosiy tajribani barpo etish. Gurux rahbari talabalarning darsda egallagan g'oyaviy-siyosiy bilimlarni darsdan tashqaridagi turli tarbiyaviy ishlar vositasida kengaytirildi. Bu ishlar vaqt o'lchovining chegaralanmaganligi, emotsional ta'sir imkoniyatining kengligi shaxsiy extiyojga muvofiqligi tufayli talabalar tomonidan darsdagidan ko'ra boshqacharoq qabul qilinadi. Bu narsa ya'ni milliy g'oyalar xar bir kishining xulq-atvorida, xar bir jamoa va xar bir tashkilotning faoliyatidagi ishlar bilan uzviy bog'lab olib borilishi lozim. Ana shunga amal qilgan gurux rahbari xar bir talabani va butun gurux jamoasini faol ijtimoiy ishlarga jalb qiladi, ularda ijtimoiy axamiyatga ega bo'lgan faoliyatda qatnashish extiyojini uyqotadi, bu esa g'oyaviy-siyosiy tarbiyaning natijasidir.

Talabalarning o'zları gazeta va jurnallardan maqolalar to'plami gurux burchagida ko'rgamalar tayyorlashi, maxsus gazetalar chiqarishi, axborotlarni o'zları mustaqil o'tkazishlari foydaldir. Yuqori kurslarda bu ishlarning mazmuni, shakli va metodlari yanada murakkablashadi, manbalar xajmi ko'payadi va ular xalqaro voqealarga doir ma'ro'zalar talabalar anjumanlari, jamoatchilik muxokamalari, munozaralar shaklida o'tadi.

Siyosiy axborotlar talabalarda siyosiy bilimlarga chuqur qiziqish uyqotish, gazeta o'qish, ichki va tashqi voqealarga doir radio eshittirishlarni va teleko'rsatuvlarni tinglash va kurish extiyojini tarbiyalash kerak. Gurux rahbari bolalarning turli xil voqealar haqidagi o'zaro muloxazalardagi noto'g'ri fikrlarni to'zatishi, ijtimoiy hayotning muhim voqealarini ilmiy asosda sharxlab berishi g'oyat muximdir.

Ayni vaqtda guruh rahbari talabalarning axloqiy shakllanishi, ma'naviy dunyosining tarkib topishi uchun xam qamxo'rlik qiladi. Xalqimiz moddiy farovonligining, madaniy darajasining, ma'naviy dunyosining o'sib borishi, mamlakatimiz ma'naviy xayotida eng Ilg'or va eng insonparvar ijtimoiy munosabatlar tizimining qaror topganligi guruh rahbari amalga oshiradigan axloq tarbiyasining muvoffaqiyatini ta'minlash uchun garovdir.

Talabalarning axloqiy shakllanishi faoliyat jarayonida ro'y beradi. Faoliyatni tashkil etish bilan guruh rahbari har bir talaba shaxsini g'oyaviy-axloqiy jihatdan tarkib topishni ta'minlaydi. Talabalarni faoliyatning ma'lum bir turiga jalb qilish aniq maqsadga qaratilishi kerak.

Talabalarni axloq nazariyasiga doir bilimlar bilan qurollantirish va ularni ijtimoiy xayot voqealaridan axloqiy tomonlarni ajrata olishga, axloq

me'yorlariga muvofiq baxolashga o'rgatish bilan guruh rahbari yigit-qizlarning o'z xulqini axloq me'yor va qoidalari nuqtai nazaridan idora qila olishlariga erishadi.

Yoshlar bilan o'tkaziladigan odob va axloqqa oid suxbatlar ular ishtirok etadigan ijtimoiy foydali va unumli mexnat, turli xil ijod ishlari «Kamolot» tashkiloti faoliyati bilan uzviy bog'liq tarzda borsagina, ijobiy natija beradi. Axloqqa oid suxbatlar samaradorligini ta'minlovchi muxim shartlardan biri talabalarining ongi bilan xulqi o'rtasidagi birlikni ta'minlash xisoblanadi. Axloqiy bilim berishdan maqad, tashqi ta'sirni ongli xarakat bilan bog'lovchi ichki istakka aylantirishni ta'minlashdir. Bunda u o'ziga ma'lum bo'lgan axloq me'yoriga rioya qilgan xolda to'g'ri xarakat qilish yo'lini tanlab olishga o'rganadi. Masalan, guruh rahbari o'z suxbatini shunday boshlaydi. «Avtobusda ketayotgan bir necha yoshlar qo'llaridagi radiopleyrni baland qo'yib, allaqaysi guruh ijrosidagi sershovqin kuy tinglab borardilar. Keksa ayol ulardan ovozni pasaytirishni iltimos qilib qoldi. Bunga javoban «Eshitgingiz kelmasa quloqingizni berkitib oling» dedi yoshlardan biri. Ikkinchisi esa vaziyatni yumshatish uchunmi, yoki noqulay axvoldan chiqish uchunmi xar xolda «Xolajon, siz zamonaviy kuylarni yomon ko'rarkansiz-da»--dedi, uchinchisi esa, «Siz birginasiz, biz esa ko'pchilikmiz. Ko'pchilikni istagini xurmat qilish kerak buvijon!»-- deb qo'shib qo'ydi. Guruh rahbari talabalar bilan vujudga kelgan ushbu vaziyatni muxokama qilib, o'z fikrlarini bildirishni taklif qiladi.

Axloqiy bilim berishda guruh rahbari bilan oilaviy xamjixatlik g'oyat muxim omildir. Shuning uchun yoshlar bilan bir qatorda ota-onalar o'rtasida xam axloqiy tarbiyaga doir bilimlar tarqatish kerak. Axloqqa oid suxbatlarni bir oyda bir marta o'tkazgan ma'qul. Xar bir suxbatga 7-10 kun tayyorlaniladi. Suxbat vaqt 40-45 minutdan oshmasligi kerak. Navbatdagi suxbatga tayyorlik davrida guruh rahbari xamda yoshlar turli xil faoliyatda ishtirok etadilar. Mavzu tanlashda guruh rahbari mamlakatning ijtimoiy xayotida ro'y berayotgan voqealarga, o'quv materialining mazmuniga, talabalarining axloq me'yoriga doir bilimlari darajasiga asoslanadi.

Axloqiy ongni shakllantirishda guruh rahbari suxbatlar bilan bir qatorda tushuntirish, ma'ro'za, namuna-ibrat kabilardan xa keng foydalaniladi. Ana shu jarayonda u talabaning axloqiy muloxazasini o'stirishga o'zining va boshqalarning xulqini axloq me'yorlari asosida baxolay olishga qaratilgan ishlarga, ularni jalb qilishga alovida e'tibor berish lozim. Odatda talabalar o'rtoqlarining, atrofdagi kishilarning xulqidagi ijobiy, salbiy tomonlri baxolay olg'a nlari xolda o'z xulqidagi tomonlarga u qadar e'tibor berishmaydi va ularda o'z xulqini baxolash ancha kech ko'rina boshlaydi. Mana shuning uchun guruh rahbari talabalarni o'z xulqini baxolash ancha kech ko'rina boshlaydi. Mana shuning uchun guruh rahbari talabalarni o'z xulqini axloq me'yor va talablari asosida quyi kurslardan boshlaboq baxolashga o'rgata boshlashi maqsadga muvofiqdir.

Guruh rahbari axloq tarbiyasini amalga oshirishda xar bir talabaning xulqiga, xarakter xislatlariga alovida e'tibor berib borishi kerak. Guruhda pedagogik qarovsiz qolg'a n, tarbiyasi qiyin bolalarga ham uchraydi. Agar bu

xil bolalarning xulqi o'z vaqtida to'zatilmasa, u jamiyatdagi axloq me'yorlariga xilof yo'nalish kasb etishi ham mumkin. Shuning uchun ham guruh rahbari bu xil yoshning xulqidagi salbiy yo'nalishni qancha tez aniqlasa, uni to'zatishga qanchalik tez va faol aralashsa, shuncha yaxshi ish qilgan bo'ladi.

Guruh rahbarining axloqiy tarbiyani amalga oshirishi metodik asosga ega bo'lsagina samara beradi. Buning moxiyati guruh rahbarining talabalarni axloqiy rivojlantirishga qay darajada ta'sir qila olishidadir, ya'ni talabaning yoshi, guruh, shaxsiy xususiyati xisobga olinishi kerak.

Axloqiy mavzular yuzasidan munozaralar o'tkazish talabalarda axloqiy e'tiqod, qarash va nuqtai nazarni shakllantirishning muxim vazifasi xisoblanadi. Munozara vaqtida guruh rahbari betaraf turishi foydalidir. Munozara oxirida guruh rahbari yakun chiqaradi. Munozara uchun yoshlarni to'lqilantirayotgan masalalar mavzu bo'ladi, masalan: «Xayotda o'z o'rnini topishning ma'nosini qanday anglaysiz?», «Yashashning ma'nosi va xayotdan maqsad», «Inson qachon baxtli bo'la oladi?», «Zamonaviy bo'lishning ma'nosi nimada?».

Guruh rahbari xar bir mavzuning mazmuniga kiradigan masalalarni aniqlashda talabalarga yordam beradi.

Masalan: «Xayotda o'z o'rnini topishning ma'nosini qanday anglaysiz?» mavzusi uchun asos qilib quyidagi masalalarni olish mumkin:

«hayotda o'z o'rnini topish» iborasini qanday tushinasiz?

qanday orzuni eskirgan deyish mumkin?

Baxt va xayotdan lazzatlanish, ular o'rtasida farq bormi?

Shaxsiy erkinlikni qanday tushunasiz?

Sizning g'oyangiz kabi masalalarni tavsiya qilish mumkin. «Yashashning ma'nosi va xayotdagi maqsad» mavzusiga.

1. Xayotning «ma'nosi» va «maqsadi» bir xil tushunchами?

2. Xayotimiz qo'ygan qadamimizga qanchalik va qay jixatdan bog'liq bo'lish mumkin?

3. «Qanday yashash kerak», «Nima uchun yashash kerak», bu masalalarning xar birini qanday anglash kerak?

4. «Yashashning ma'nosi» va «Baxt» tushunchalari o'rtasida o'zaro o'xshashlik bormi? Bo'lsa nimada, kabi masalalar asos qilib olinishi maqsadga muvofiqdir. Munozara uchun tavsiya etilayotgan bu mavzular yoshlarning fikrini band qiladigan asosiy mavzular bo'lib, ularidan qaysi birini tanlash, qanday uyushtirish guruh o'quvchilarning extiyojiga, jamoadagi kayfiyat va qiziqishga bog'liq. Bu mavzular mazmuniga kiradigan masalalar xammasi axloq, ma'naviy xayot bilan bog'liq bo'lgan bo'lib, ular yuzasidan yuritiladigan baxslar yordamida talabalar axloqiy bilimga jamiyatdagi odamlar munosabati bilan bog'liq me'yor va qoidalarga oid tushunchalarga ega bo'ladilar, asta-sekin ularda ishonch va qarashlar tarkib topa boradi.

Guruh rahbari faoliyatining mazmuniga kiradigan axloq tarbiyasi faqat yuqoridagilar bilangina xal bo'la qolmaydi. Axloqiy tarbiyani amalga oshirish murakkab jarayon bo'lib, asosiy e'tibor talablarda axloqiy ong, axloqiy xis, tushuncha, muloxaza kabilarga muvofiq axloqiy malaka va odatlarni shakllantirishga qaratilishi kerak.

## ***1.5. Guruh rahbari ishini rejorashtirish.***

Tarbiya jarayoni va uning natijasi ishning qay darajada tashkil etilganligi va undan keladigan samaraga bog'liq. Guruh rahbari tarbiya ishini guruh miqyosida xal etishda istiqbolni tasavvur eta olsa, keljakni ko'ra bilish maxoratiga ega bo'lsagina u muvofaqqiyat bilan ishlay oladi.

hozirgi kunda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish davrning muxim talabi bo'lib qoldi. Shu boisdan xam. guruh rahbari ishini ilmiy asosda tashkil etishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak: o'z ishida tarbiyaning umumiy maqsadini xisobga olg'a n xolda shu kun uchun muhim bo'lган aniq maqsadni belgilash: bolalar jamoasining xususiyatidan kelib chiqadigan vazifalarni tushuntirish; tarbiyaning umumiy qonuniyatlarini va prinsiplarini, talabalarga ta'sir etishning shakli, metodi, vositalarini yaxshi bilish; bolalar guruhini idora qilish qoidalari va jamoani rivojlantirish qonunlarini bilish kabilar.

Tarbiyada ijod qilmay ishlash mumkin emas. Agar guruh rahbari o'z ishidagi xar bir qadamining pedagogik ma'nosini yaxshi bilsa, u talabalar qalbining muxandisiga aylanadi, aks xolda esa oddiy bir xunarmand bo'lib, qoladi xolos.

So'nggi yillarda talabalarning extiyoji va talabalar doirasi beqiyos darajada o'sib, o'zgaradi. Fan-texnika yangiliklari, ilmiy ommabop kitoblar, yoshlarning texnik va badiiy jurnallari, kino va talabalarni boy manbaalar bilan tanishtirmoqda. Agar guruh rahbarining guruhdagi ishlari talabalarning ana shu axborotlardan kelib chiqayotgan eextiyojlari darajasiga loyiq bo'lmas ekan, unda ishlashda ko'chirmachilik, shaklbozlik vujudga keladi va guruh rahbari tashkil etayotgan ish talabaldan o'sishdan orqada qolg'a nligi uchun unga qiziqish susayadi. Shuning uchun guruh rahbari o'z ishini rejorashtirishda, talabalarning rivojlanish darajasini, extiyojlarini, jamoa taraqqiyoti bosqichlari, kamolot tashkiloti faolligini va imkoniyatlarini xisobga olishi kerak.

Buning uchun guruh rahbarining rejasi:

Birinchidan, o'z mazmuniga ko'ra g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy foydali yo'nalishga qaratilgan bo'lishi, ya'ni jamiyatning va boshqalarning foydasiga qaratilgan ishlarga alovida e'tibor berish;

Ikkinchidan, tarbiyaning yo'nalishini, talabalarga ta'sir etish vositalarini maqsadga muvofiq tanlash, ya'ni reja mo'ljallanayotgan ishlar nimaga va kimga qaratilganligini aniqlash;

Uchinchidan, rejadagi ishlar aniq - umumiy maqsadga bo'ysuntirilgan, bajaruvchilari, vaqtin, ish shakli ko'rsatilgan bo'lishi;

To'rtinchidan, rejadagi ishlar talabalar kuchiga va yoshiga mos kelishi;

Beshinchidan, talabalar qiziqishiga asoslanishi va extiyojlaridan kelib chiqishi;

Oltinchidan, mo'ljaldagi ishlarni bajarishda butun jamoaning va yakka shaxslarning ishtirokini xisobga olish;

Yettinchidan, bajarilishi lozim bo'lган barcha ishlar oldindan xammaga ma'lum qilinishi kabi talablarga javob berishi lozim.

Tajribada guruh rahbarining ich xil rejasi o'zini oqladi, bular istiqbolli rejalar (uzoq muddatli mo'ljallab to'ziladi va u ayni paytda guruh, undagi xar bir shaxsni tarbiyalashning umumiy dasturi xam bo'lib xizmat qiladi), taqvim reja(odatda bir oy uchun to'zilib, shu oyning xar bir kuni uchun mo'ljallanadigan aniq ishlarni o'zida aks ettiradi), aloxida tarbiyaviy tadbir uchun to'ziladigan reja konspekt (ba'zan u tarbiyaviy tadbirning ssenariysi deb xam yuritiladi).

Reja qanday bo'lisdan qat'iy nazar tarbiyaviy faoliyat mazmunini, guruh talabalari jamoasining rivojlanish istiqbolini aks ettirish kerak.

Eng yaxshi guruh rahbarlarning Ilg'or tajribasi asosida o'zida quyidagi bo'limlarni aks ettiruvchi taxminiy reja chizmasini tavsiya qilamiz:

1. Guruh rahbarining guruh bilan olib boradigan ishlarning asosiy yo'nalishlari bo'limi. Bu bo'lim: «Guruhni tashkil etish», «g'oyaviy axloqiy tarbiya», «Mexnat tarbiyasi va kasb tanlashga yo'llash», «Oila va jamoatchilik bilan xamkorlik» kabi moslamalarni o'z ichiga oladi.

Endi shu masalalarning xar birining mazmunini ko'rib chiqaylik. Guruhni tashkil etish-bunda talabalarning o'zini-o'zi boshqarish o'rgonlari ishiga pedagogik rahbarlikning ta'minlanishi ko'zda to'tiladi. Shu maqsadda guruh majlislarining kun tartibi, ularni tayyorlash va o'tkazish ishlari, faollar bilan ishslash ko'zda to'tiladi. Shu maqsadda guruh majlislarining kun tartibi, ularni tayyorlash va o'tkazish ishlari, faollar bilan ishslash ko'zda to'tiladi.

Mexnat tarbiyasi va kasb tanlashga yo'llashda talabalar uchun o'qish va o'quv ishini oqilona tashkil etish, shuningdek o'ziga-o'zi xizmat, ijtimoiy foydali mexnat, texnik ixtirochilik, kasb tanlash ishlarini tashkil etish bilan bog'liq tadbirlar ko'rsatiladi.

Kechalar, ertaliklar, kitobxonlar anjumanini, suxbatlar o'tkazish, ko'rilgan kinofilm va spektaklni muxokama qilish, xavaskorlar to'garagi qo'shiq va badiiy o'qish tanlovi, rasmlar ko'rigi, muzey va ko'rgazmalarga borish, «Talabalar va yoshlar musiqasi» xafitaligi, kino, teatr larga borish—bularning xammasi estetik tarbiya masalasining mazmunini tashkil etadi.

Guruh rahbari o'quv yurtidagi eng unievralchal pedagogik xisoblanib, u bajaradigan mexnatning o'lchovi, chegarasi yuk. Uning bilmagan ishi uddasidan chika olmaydigan soxasi bo'lmaydi. Shu bilan bir qatorda u begaraz, xolis va ta'masiz shaxs bo'lib, jamoatchilik asosida ishlaydi. Guruh rahbari pedagoglar, ota-onalar va o'quvchilarini o'zaro bog'lovi shaxs sifatida barcha tomonlarning nuqtai nazarini xisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirishi, o'zaro aloqalarning To'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tqazish i va ayni vaqtda o'zining pozitsiyasini aniq ta'minlay olishi kerak. Bu esa donolikdir.

Mana shu fazilatlar guruh rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi.

#### ***2.4..Guruh rahbarining pedagogik faoliyati va mahorati***

Guruh rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmundir.U o'zi rahbarlik qilayotgan guruh o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili davomida nimalar qilish kerakligi,talabalar hayotining nima bilan band qilish va tanlangan ish to'rini amalgalash oshiroishini bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni uechadi.Bu borada guruh rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. Guruh rahbarining ish stolida «Talabalarni tarbiyalash ishining mazmuni» bo'lishi kerak. Chunonchi,

- dunyoqarash asoslarini tarkib toptirish;
- siyosiy onglilikni tarbiyalash va ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish,
- axloqli, ongli intizomni va xulq madaniyatini tarbiyalash;
- o'qishga ongli munosabatni tarbiyalash,bilish faolligini va aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish
- mehnatga va ijtimoiy mulkka munosabatni tarbiyalash, politexnika bilim doirasini kengaytirish, kasbni ongli tanlashga tayyorlash;
- o'z huquqini anglab etishga o'rgatish,fuqarolik mas'uliyatini tarbiyalash;
- estetik madaniyat asoslarini tarbiyalash va badiiy qobiliyatni rivojlantirish;

-jismoniy barkamollik, salomatlikni, mustahkamlash va sanitariya-gigiena madaniyati kabi muhim masalalar alohida qayd etiladi.

Guruh rahbarining pedagogik faoliyati va ma horati o'quv faoliyatida ham, o'qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi.

Xo'sh, tarbiyachining pedagogik mahorati, texnikasi qanday malakalarni o'z ichiga oladi? Ularning pedagogik ta'sir ko'rsatishdagi roli qanday?

Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida pedagogning nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z fikr va his tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini aytib o'tish mumkin.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi guruh rahbarining mimik va pantomimik ifodaliligidir. Aniq imo – ishora, ma'noli qarash, Rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zli tushuntirish yoki e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomala vositalari bo'ladi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda guruh rahbarining o'z hissiy holatini boshqarish, o'zida eng qulay hissiy jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatini saqlash, o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol o'ynaydi. Bu mahorat pedagogning kasbiy jihatdan o'z – o'zini nazorat qilishni ta'minlaydi. Ko'p yillar davomida sog'lom asab sistemasini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo'riqishdan o'zini tiyishga yordam beradi.

Samarali o'zaro ta'sir ko'rsatishni tashkil tish uchun pedagog aktyorlik va rejissyorlik mahorati tarkibiy qismlarini egallashi zarur, ular pedagogga tarbiyalanuvchilar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchilarning aql – idrokigagina emas, balki ularning his tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatishga yordamlashadi.

Shunday qilib, guruh rahbarining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yiqindisidirki, u guruh rahbariga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib ko'rgan narsalar orqali ulaga o'z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi. A.S.Makraenko shularni nazarda tutib, «Trabiachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lismeni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har biri harakati tarbiyalasin», deb yozgan edi. Pedagogik texnikani egallahning asosiy yo'llari pedagog rahbarligidagi Mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rghanish) va mustaqil ishslash (kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalrining individual – shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallahda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin.

Pedagogik texnik malakalarini shakllantirishda gruppaviy ish olib borish alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnik Mashg'ulotlarining bu shaklini batafsiliroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar pedagoglar uchun muljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda lozim darajada ko'rsatib berilmagan. Guruh shaxsning o'z – o'zini bilish va o'z – o'zini tarbiyalash labaratoriysi, pedagogik vazifalarni hal qilishning Yangi usullari tekshirib ko'rildigan, nazariy masalalar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishslash malakalarini ishslash malakalarni egallahsga faol intilishlari, o'z – o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash bo'yicha chuqur ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy Mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallahning individual dasturi to'zib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalri shakllanishining boshlanqich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq tajribaning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu Bilan birga dastlab avtomatlashtirgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham borishi mumkin ekan. Bular masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo'lga qo'yilishi, to'g'ri talaffo'z, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday ko'nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi.

Oliy o'quv yurtlaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallah guruh rahbariga o'zining kasb yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan holi bo'lishda, talabalarga ta'lim tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Guruh rahbari vaziyatlarning haddan tashqari xilma – xilligi pedagogdan ijodiy xulq – atvorni talab qiladi. Pedagogik texnika pedagog malakalarining eng yaxshi ijodiy xulq atvoriga, boshqacha qilib aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga samarali ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Pedagogik texnika malakalari tarbiyachining individual – shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqligi faqat bu malakalarning individual tusda bo'lishi emas, balki ularning shakllanishi va rivojlanishi pedagog shaxsiga ta'sir ko'rsatishda ham nomoyon bo'ladi.

Pedagogik texnikaning yana muhim xususiyatlaridan biri pedagogning ma'naviy va estetik nuqtai nazarlari tarbiyalanuvchilarga yanada to'laroq olib beriladi. Agar pedagogning nutqi qashshoq va tartibsiz bo'lsa, agar u bo'lar bo'lmas sabablar bilan o'z hissiyotlariga erk bersa, didi past, estetik jihatdan omi bo'lsa, u holda "eng to'g'ri" so'zlar ham, eng "kerakli" tadbirlar ham tarbiyalanuvchilarning na aql – idrokiga, na hissiyotiga ta'sir qiladi.

Pedagogik texnika to'g'risida aytilganlarning hammasi har bir guruh rahbari uchun bu texnikani tashkil etuvchi malakalarni egallah nihoyatda zarurligini ochiq – oydin ko'rsatib turibdi va bu pedagogik vaziyat hamda san'at bilan bog'liq. Chunki inson o'zining har bir qadамини oldindan ko'rishi, rejalahtirishi amalda mumkin bo'lmaydi. Guruh rahbari ning mehnati – bu behad izlanish va azob – uqubatli kechinmalar, ilhom va betakror nurlanish oni, ko'pdan ko'p kundalik ishlar, hafsalasi pir bo'lish va shaxslar birgalikda boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilishdir. Pedagogik san'at – bu qandaydir qul bilan tutib bo'lmaydigan, fahm – farosat bilan amalga oshiriladigan mahorat mahsulidi.

Xo'sh, pedagogik mahorat nima va u nimalardan tashkil topadi?

Pedagogik mahorat fahm – farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlikning, shaxslar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan shaxs shaxsiga

mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat majmuasidir. Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm – farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalr ham kiramadi, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab, ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o'zicha, paypaslab ijodiy izlanish olib boradi, Ayni bir xil savollarni: shaxslar bilan, pedagoglar jamoai bilan qanday qilib til topish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ichida tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq kerak? Tarbiyalanuvchilarni pedagogik talablarni bajarishga qanday qilib majbur etish mumkin? Qanday qilib yaxshi pedagogik ruhiyatni saqlab qolish va o'z kuch – qo'vvatini oqilona sarflash mumkin? Degan savollarni muttasil takrorlaydi va hakoza.

Bu kabi savollarga javob berish uchun pedagogdan odatdan tashqari kuch – qayratni, qat'iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlar olib boirishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va halollikni, o'tkir aql idrokni, o'z topilmalarining qimmatini aniqlash qobiliyatini talab qiladi. Pedagogika fani bilan tarbiya san'atining uzviy aloqadorligi zarurki, u yuksak kasb mahoratini ta'minlaydi.

Pedagogika fikrlashga o'rgatadi, murakkab pedagogik muammolarni hal qilish uchun to'g'ri yo'l yo'riq va ilmiy asoslangan yo'llarni ko'rsatadi, pedagogning pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasi va texnikasi bilan qurollantiradi. Biroq texnikaning tarkibiy qismlari bilan mahorat o'rtasidagi nisbatning dialektik muammolarini to'g'ri hal qilish uchun tayyor andazalar, mutloqo aniq tavsiyalar qayerda bo'lishi mumkin, qayerda bo'lishi mumkin emas, degan savolg'a javob berishi mumkin.

Tarbiyaning maqsadlari, vositalari va natijalari o'rtasida, shuningdek, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi tafakkuri, motivlari o'rtasida g'oyat murakkab bog'liqlik bor. Kattalarning maqsadi, odatda, yoshlarning maqsadlari (hatto strategik maqsadlari) bor. Talabaning rivojlanish mantiqi, uning tafakkuri, harakatlari bitta nuqtai nazarda, tarbiyachining mantiqi boshqa nuqtai nazarda turishi mumkin. Bunday variantda hech qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish bo'lmaydi.

Pedagogik faoliyatda vositalar, maqsadlar va natijalarning nisbatini doimo tahlil qilib borish zarur. Ular uzviy birlikni tashkil etadi, bir – biriga bog'liq bo'ladi va alohida tarzdi amalga oshirilmaydi. Maqsadni amlga oshirish usuli – bo'lajak natijadir. Natija yangi vositalarni tanlash, yangi maqsadlarni qo'yish uchun amaliy asos hisoblanadi. Tajribada ma'lum darajada qo'llanilgan har qanday vosita natija beradi, hatto biror sababga ko'ra maqsad aniq ifodalanmagan bo'lsa ham natija bervermaydi.

Tajribada mavjud bo'lgan pedagogik vositalarni ikkitasini ko'rib chiqamiz.

Birinchisi: har qanday pedagogik vosita hamisha bir qator boshqa vositalar, usullar, shartlar Bilan bog'liq bo'ladi, ular pedagogik jarayoning muayyan bosqichida ta'sir ko'rsatish natijasini belgilab beradi. Masalan rag'batlantirish bir xil jarayonlarning tezlashtirish va boshqarishga to'siqnlik qilish, turli salbiy va ijobjiy hissiyotlarning turli – tuman ko'rinishlarini vujudga keltirishi mumkin.

Ikkinci: ayrim vositalarni qo'llanish pedagogning ular ta'sirini, mumkin bo'lgan o'zgarishini anglash qobiliyatlariga butunlay bog'liq bo'ladi. jamoa

muomala sharoitida vositalarni qo'llash minut sayin o'zgarib turadigan vaziyatni hisobga olish zarurligini taqazo qiladi.

hozircha biz ko'proq mavhum kategoriyalardan foydalanamiz. Amaliy faoliyatda esa vositalar, maqsadlar va natijalar dialektikasi ovozlar shovqini, g'oyat turli – tuman ehtiyojlar va da'volarning avj olishi bilan to'la bo'ladi, bu barcha jonli manzara doimo bir kishining – pedagog tarbiyachining diqqat markazida bo'lishi lozim.

Agar pedagogik san'at haqida gapirganda, chamasi, uning asosiy ko'rinishlari – talabalarga umidbaxsh faraz bilan yondoshish, talab va ishonchning birligi, uning shaxsga avayla munosabatda bo'lish, uni hurmat qilishdan iborat bo'lishi mumkin.

Pedagogik umidbaxshlik hatto eng qarovsiz talaba ham o'zida ko'pgina ijobiy narsalarga egadir, degan ishonchga asoslangan.

Pedagogik mahorat o'ziga talabalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, ta'lif muassasasi haqidagi, ta'lif – tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiylpedagogik madaniyani tashkil etadi, pedagog, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andazalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Biroq zamonaviy guruh rahbariga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi – maxsus bilimlar va malakalar: talabalarni ko'zatish, ularning o'sishidagi muhim narsalarni aniqlay olish, bu muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy ijtimoiy g'oyalar bilan taqqoslash, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir – biriga o'tish dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir sistemaga solish malakalari zarur bo'ladi.

Guruh rahbari yangi tajribalarni o'rganar ekan, o'zining hayotiy bilmini, his etgan va anglagan narsalarini, o'z tajribasini aslo kamsitmasligi kerak. Guruh rahbarni keng va dadil tajribachilik ishlariga yo'llash zarur.

## **2.5. *Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyati***

Guruh rahbari nixoyatda ma'sulyatli va murakkab vazifani bajaradi. U guruhdagi tarbiyaviy ishlarni tashkilotchisi, talabalarning murabbiysi, guruhn tashkil etadi xamda kamolot tashkilotchilar, o'qituvchilar, oila, keng jamoatchilik ahli bilan birga ish olib boradi.

So'nggi yillarda guruh rahbarining faoliyati turli shakl va metodlar bilan boyitildi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda o'quv yurti jamoat tashkilotlarining roli tobora oshirildi.

Ushbu ishni tayyorlashdan maqsad o'quv yurtining guruh rahbariga xozirgi vaqtda mamlakatda uzlusiz ta'lifning yagona tizimini yaratish borasidagi ish uslublarini har tomonlama keng joriy qilish va metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ideologik muassasalar sifatida o'quv yurti oldiga muhim tarbiyaviy vazifalar ko'yilgan, bu esa ayni vaqtda har bir guruh rahbarining asosiy vazifalarni xisoblanadi, shunday qilib. Alovida guruh birlashib o'quv yurtini tashkil etadilar. Aloxida guruh jamoalari ko'lga kiritgan ta'lim va tarbiya borasidagi muvaffaqiyatlar butun o'quv yurti jamoasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan guruh rahbarining ma'suliyyati

jamiyat oldida rahbarlik ma'suliyatidan kam emas. Shuning uchun o'quv yurti direktorlari guruh rahbari vazifasiga tajribali, tashkilotchi, mexnatsevar, maxoratli, yosh avlodni sevadigan o'qituvchilarni tayinlab, ular bilan muntazam ish olib boradilar.

Guruh rahbarining muhim vazifalaridan biri-bu talabaning o'qishga bo'lgan havasi, e'tiqodi va bilim, qobilyatini rivojlantirish, kasb-xunarga bo'lgan layoqatini, yosh va ruxiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o'quvchining bo'lg'usi xayoti rejalarini amalga oshirish, talabalarning salomatligini muxofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning guruh jamoasi orasida obro'sini ko'tarish, o'z vaqtida ularga tegishli yordam ko'rsatish guruh rahbarining bevosita asosiy vazifasidir.

Shuningdek, guruh rahbarining tashkilotchilik funksiyasi tarbiya jarayonida muhim vosita sanaladi. Chunki, tashkilotchilik tushunchasining o'zi keng ma'noga ega. Maxsus bir maqsadni ko'zlab u yoki bu ishni tadbiriylar choralarnitashkil etish guruh rahbaridan katta malaka va maxsus mahoratni talab qiladi.

Tashkilotchilik funksiyasi bir necha elementlarga bog'liqdir:

- A. O'tgan ishlarni tashkil qilish, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi sabablarini belgilab olish.
- B. Guruhda o'tkaziladigan barcha ishlar tarbiyaviy xaakterga ega bo'lib, ma'lum maqsadni ko'zlab o'tkazilishi va guruh rahbari turli tarbiy ishlarni o'tkazishda oldin shu ishning modelini to'za bilish lozim.
- D. Guruh rahbari oldiga qo'yilgan maqsadga etishish uchun o'z oldiga aniq vazifa qo'ya bilish lozim.
- E. Guruh rahbari har bir tarbiriylar choralarni amalga oshirishda o'qituvchi va talabalarning qobiiliyatlariga qarab, vazifalarni taqsimlash, ma'lum reja asosida tarbiyaviy tadbirlarning o'tazish o'rni, vaqt, soati, javobgar shaxslar va tizimligini aniqlash lozim.
- F. Ma'lumki tarbiyaviy ish bajarishda bajaruvchi kishilarni to'g'ri taqsimlash, ishga boshqa o'qituvchilarni, ota-onalar, talabalar, otalik tashkilotlari va ish obektini aniqlash lozim.

Guruh rahbarining asosiy faoliyati esa quyidagilarni bilishni talab etadi.  
har bir talabani shaxs sifatida o'rganish.

Talabalarning guruhda tarbiyalashni tashkil etish.

Talablarning bilim-tarbiyasini oshirish va ularning tartib intizomini mustahkamlash.

Guruhda darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish.

Fan o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlarni (koordinatsiyalash) irlashtirish.

Talabalarning oa-onalari bilan ishslash.

Guruh rahbari fan o'qituv ishlariga nisbatan tarbiyaning ko'p qirrali muhim vazifalarini bajaradi. Shuning uchun uning oldiga juda katta pedagogik va psixologik talablar qo'ygan, bu talablar tarbiyaviy ishlarni yuqori darajaga ko'tarishda muhim rol o'ynaydi.

**Demak yuqoridagilarga tayangan holda guruh rahbarining faoliyatiga nisbatan qo'yilgan talablar quyidagilardan iborat..**

- 1.Yuqori g'oyaviylik va onglilik.
- 2 Guruh rahbari katta obro'ga ehtiromga va hurmatga ega bo'lishi

3 Pedagogik mahorat

4 Madaniy qobiliyatning mavdudligi

5 Pedagogik odobga ega bo'lish

6 Yosh avlodga nisbatan hurmat va ehtirom bo'lish

7 Tashkilotchilik malakasi va mahoratiga ega bqlish

8 Tarbiya ishlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lish

9 Guruh rahbari kasbini yuqoriga ko'tarish mustaqil bilim olish qobiliyatiga ega bo'lish.

Rasmiy hujjatlarga guruh rahbarining vazifalari qisman bayon qilingan bo'lsa ham biz quyida guruh rahbarining vazifalarini aniq tarzda ko'rsatishni zarus deb bildik.

### **Guruh rahbarining vazifalari:**

1. Anatomik, fiziologik va psixologik xususviyatlarini o'rganish.

2. Talabalarning kundalik davomati odob, xulqi va jamoat ishlariga qatnashishini tekshirib borish.

3. Talabalarning rejimga rioya qilishlari va uyg'a berilgan vazifalarni tayyorlab borishlarini ko'zatish.

4. Guruhda ishlaydigan fan o'qituvchilari bilan majlis o'tkazish

5. Darsda talabalarning davomatini ta'minlash, guruhda va o'quv yurtida navbatchilikni tashkil etish, xonani jihozlash, xonadagi o'quv asboblarini saqlashga o'rtgatish, talabalarning qiyinchiliklarini nazorat qilib ular bilan suhbat o'tkazish

6. Guruh majlichlarini tizimli va tartibli o'tkazish

7. «Kamolot» tashkiloti bilan ish rejalariga muvofiq darsdan tashqvari ishlarini tashkil etish.

8. Talabarlarning darsdan ashqari o'qishlari va anjumanlarini o'ikazish

9. Guruh talabari bilan sport, harbiy vatanparlik tarbiyasi borasida tadbiriyl choralar ko'rish, talabalar soqliqini muntazam nazorat qilish, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, harbiy ta'lif o'qituvchilari bilan doimiy aloqada bo'lish

10. Talabalarni rag'batlantirish va zarur vaqtarda ularga nisbatan chora ko'rish.

11. Talabalarning ota-onalari bilan tarbiya borasida doimiy aloqada bo'lish va ular bilan individual suhbatda bo'lish.

12. Talabalarning shaxsiy va guruhga oid hujjvtlarni tartibli olib borish.

Guruhda tarbiyaviy ishlarga doir masalalarni har tomonlama hal qilish maqsadida guruh rahbari talabarlarning ta'lif olishlari guruhning uyushtirishning tahminiy rejasini tuzadiki bu reja talabalar bilan tizimli ish olib borishga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

### **2. Talabaning o'rganishning tahminiy dasturi**

#### **talabari to'g'risida umumiylumot.**

Talaba qayerda yashaydi?

Ota-onasining kasbi va ish joyi.

Oila a'zolarining va ularning moddiy ta'minlanganligi

Oilada ota-ananining o'zaro munosabatlari

Oilada talabanri tarbiyalash harakteri

Talabaning rejimi

Oilanning xo'jalik ishlarida talabaning ishtiroki

Talabaning hayotida eng muhim voqealar  
Talabaning sog'ligi to'g'risida ma'lumot  
II. Yoshlar taraqqiyotining umumiyligi  
umumiyligi taraqqiyot ( nutq ma'daniyati dunyo qarashi harakteri kino , teatr, muzey,  
sport majmualariga borish)  
talabaning o'qishga bo'lgan munosabati  
Talabaning davomati  
Talabaning jismoniy mehnaga munosabati  
Talabaning intizomi , xulqi tirishqoqligi  
Talabaning qiziqishi (o'qishga, sportga)  
III. Talabaning jamoat ishlarida ishtiroki  
Guruuhning jamoat ishlarida ishtirok etish  
Jamoat ishlarini bajarishi  
Talabaning guruhdagi obro'yisi va mavqeisi  
IV. Talaba shaxsining asosiy xususiyatlari  
1. Jamoatchilik dunyo qarashi  
2. Talabaning ma'naviy sifatlari, vatanni sevish, do'stlik, insoniylik, baynalminallik.  
3. Irodalilik harakteri va xususiyatlari. (maqsadli bo'lish, faollik, botirlik  
tashkilotchilik mustaqillik intizomlik, bandlik, kamtarlik va hokazo)  
4. Talaba mijozining xususiyatlari va uning ruhiy jarayoni (nutq, diqqat , xotira  
xayol ruhiy holatlar)  
V. Talabani o'rganish asosida guruh rahbari quyidagi chora-tadbirlarni to'zadi.  
1. Talabaning qaysi sifatlarini tarbiyalab rivojlantirish lozim.  
2. Talaba axloqdagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun nimalar qilish kerak?  
B. Guruhi o'rganishning dasturi.

#### I. Guruh xayoti.

Guruhdagi talabalarning yoshi, ruxiy, fiziologik va gigienik xolatlari.

Talabalarning shaxsiy taraqqiyoti, ma'rifatchilik jixatlari.

Guruhdagi jamoatchilik ishlari.

#### II. Guruuhning xamjixatligi va uyushqoqligi

Talabalarning o'zaro munosabati.

Talabalarning birgalikda mexnat qilishlari va uning vaqtisi.

Qizlar va o'g'il bolalarning do'stligi xamda xamfikrli.

Jamoat o'zlarini ximoya qilish.

#### Guruuhda do'stlik aloqalarini harakteri

talabalarning o'quv yurti va undan tashqarida o'zaro do'stlik munosabatlari qanday?

Talabalarning bir-biriga nisbatan sezgirlik, ko'zatuvchanlik xususiyatlariga egami?

O'rtoqlariga nisbatan talabchanligi

O'rtoqlarning kamchiliklarini ko'ra biladimi, yo'qmi?

Guruuhning a'lochilar, zukko, ishbilarmon talabalarning darsdan ketib qolg'a digan,  
o'zlashtirmovchi talabalarga munosabatari qanday?

Jismoniy jihatdan zaif bo'lgan bolalarga qanday yordamlar beriladi?

#### Guruh faollari.

Faollar hayati

Ularning guruhdagi obro'lari.

Faollarning o'rtoqlariga nisbatan munosabatlari.

Faollar guruhdan ajralib turadilarmi, guruhdagilar ularni xurmat qiladilarmi yoki yo'qmi?

Guruuning o'quv yurti bilan aloqasi

O'quv yurtida xodisalardan, boshqa guruhlardan guruhning xabari bormi?

O'quv yurtining yaxshi yo'lga qo'yilishi uchun guruh o'quvchilari takliflar kiritib turadilarmi yoki yo'qmi?

O'quv yurti talabalarni guruh qanday bajaradi?

Guruuning boshqa guruh talabalari bilan qanday aloqasi bor?

O'quv yurti tadbiriylar choralarini rejalashtirishda guruh talabalari qanday ishtirok etadilar?

Talabalar jamoasining yuqori ko'rsatilgan usullar bilan holatini o'rganish o'qtuvchiga ko'ra imkoniyatlar beradi. Tajribali o'qituvchilar hamma vaqt biror guruhning rahbarligini olishdan avval oldin guruhni batafsil o'rganadilar, bu esa qiyinchilik guruh rahbariga vaqt tejashda, aniq ish rejalarini tuzishda va o'z faoliyatini o'quv yili davomida belgilangan tarzda amalga oshirishga yordam beradi.

## *2.6.. Mustaqillik sharoitida tarbiyaviy ishlar jarayoniga va guruh rahbari faoliyatiga qo'yilgan talablar.*

Pedagoglarda biz albatta oliyanoblik hissini tarbiyalashimiz shart. Oliyanoblik qalbning o'ziga hos holatidir. Bu holat insonda sokinlik, hurmat, mehr, g'urur hislarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Oliyanoblik hissi har bir insonda yoshligidan tarbiyalanib o'ziga to'g'ri baho berishga yordam beradi. Bu hislat har bir inson uchun lozim, ammo pedagog uchun bu zaruratdir. Chunki faqat oliyanob odamgina talablarda bu hislatni uyqotishi va rivojlantirishi mumkin. Qanday qilib o'zini hurmat qilmagan inson boshqalarga o'zini hurmat qilishni o'rgatish mumkin.

Oliyanob inson boshqalarning muvafaqiyatidan hursand bo'ladi va mag'lubiyatidan aziyat chekadi. Pedagog esa talabalarining yutuqlarida hursand bo'lib qolmasdan balki lazzat ham oladi. Chunki bu yutuqda pedagogning ham kichkina ulushi bor. Mag'lubiyat bu pedagogning ham mag'lubiyatidir.

Pedagokka qo'yiladigan birinchi ahloqiy talab, bu talabaga hurmat bilan, mehr bilan qarash. Ma'naviy shakllanish talabidan ko'p kuch va ko'p vaqt talab etadi. Ichki qrama – qarshiliklar talabani hulqida salbiy ko'rinishlar vujudga kelishi mumkin. Bunday hollarda murabbiy eteket chegarasi doirasida ish olib borishi mehr va toqat Bilan ish yuritishi shart. Murabbiy har bir shaxsni baholashda uning jamoadagi o'rniga, o'qishdagi muvafaqiyatlariga, ota – onasining nasl nasabiga qarab emas, balki shu talabaning ichki dunyosini shakllanishi darajasiga, odamiyligiga qarab baho berishi lozim. Bu kamsitmaslik ularning tarbiyasi ustida ish olib borayotgan davrda nuqsonlarni yo'qotishga harakat qilish va hurmat bilan qarashi zarur.

Pedagogning talabalarga bo'lган nisbatan bo'lган munosabati mehr, hayri hohlik va yordamida iborat bo'lishi kerak. Ma'lumki rivojlanish uchun yordam berish murakkab jarayon bo'lib, talabalar oldiga qo'yib o'zi chetda qarab turishi va faqat

shu talablar qanday bajarilayotganligini ko'zatib borishi etarli degan hulosaga kelgan pedagoglar katta hatoga yo'l qo'yadilar. Talabni qo'yish qiyin emas, lekin uni bajararilishiga erishish qiyin shuning uchun talablariga to'liq javob olg'a n pedagoggina o'z kasbining ustasidir deb tan olish kerak. Yaxshi pedagog har bir talabga individual yondoshib, uning talablariga javob berishida qanday qiyinchiliklar vujudga kelayotganini, uni nima qiyayotganini sinchiklab o'rganishi lozim. Talabaga bu jarayonda hayri-hohlik bilan yordam qo'lini cho'zishi kerak.

Pedagogning ishida muomalaning turli bosqichlarida uning emotsiyonal kayfiyati: faoliyatga hozirlik ko'rish jarayonida, uni amalga oshirish davrida, munosabat amalga oshgandan keyingi his qilanadigan sezgilarda va kechinmalarda muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa biz kasbiy pedagogik munosabatni amalga oshirish uchun juda muhim bo'lган pedagogning psihik holatlari va ularni faoliyati hamda munosabati jarayonida boshqarish muommasiga yaqinlashib kelayapmiz.

Kasbiy pedagogik munosabat jarayonida ijobiy kayfiyatni boshqarish muammolari nihoyatda muhimdir. Darsaga bo'lган psihologik rag'bat, guruh bilan bo'ladigan munosabatga rag'bat, o'zaro fikr almashish ilhomni degan ilhomning vujudga kelishi va amalga oishirilishi murakkab jarayondir. Dastlab pedagogning mustaqil psihologik yo'l tutishi asosida, uning pedagogik ishga munosabati uni jalb qiladigan bo'lajak faoliyati materialiga munosabati natijasida, talabalar bilan bo'ladigan munosabatidan qoniqishini oldindan his qilish asosida vujudga keladigan ilhom guruh Bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilish paytida huddi ana shu bevosita aloqaga muhtoj bo'ladi, bevosita muomala asosida rivojlanadi va mustahkamlanadi.

Pedagogning talabalar bilan munosabati ijodiy kayfiyati pedagogning ijodiy individualligining o'ziga hosligi, talabalar jamoasining hususiyatlari, faoliyat sharoitlari va shu kabilar bilan bog'liq bo'lган ko'p qirrali jarayondir. Pedagogning munosabatidagi kayfiyati pedagogik ta'sir ko'rastishning ob'ektlari – sub'ektlari bo'lган talabalarning ijodiy kayfiyati bilan ko'p jihatdan bog'liqdir. Buning ustiga pedagogchining mustaqil psihologik yo'l tutishi asosida vujudga keladigan ijodiy kayfiyat uning guruh Bilan uzviy hamkorligi paytida aynan talabalar bilan bo'ladigan munosabatga bog'liqdir.

Talabalar bilan bo'ladigan munosabat oldidan pedagogning ijodiy kayfiyatini hosil qilishda uning o'quv materialiga o'z hissiy munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini oldindan topishga intilishi muhim rol o'ynaydi: bular tegishli imo – ishoralar, yo'z harakatlari, gapirish ohangidir. O'quv materialiga o'z munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini o'ylab olish, tabiiyki, darsga, tadbirga shunday psi hologik tayyorgarlik ko'rishga tayanadiki, uning tarkibiy qisimlari sanab o'tilgan. Darsda tadbirlarda o'z fikrlari, his – tuyg'ularini qanday qilib yahshiroq va yorqinroq gavdalantirish ustida mulohaza yuritar ekan, pedagog bo'lajak faoliyat vaziyatga kirib boradi, unga choqlanadi, uning shakllarini his qiladi, faoliyatga bo'lган o'zining hissiy munosabatini etkazish vositalarini izlaydi.

Tarbiyalanuvchilar bilan muomalada kishi o'zini boshqara bilishi nihoyatda zarurdir. Pedagogning darsdagi yomon, noijodiy kayfiyati darhol umuman guruhning ijodiy kayfiyatiga ta'sir qiladi, birgalikdagi faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Ijodiy kayfiyatini boshqarishining taklif etilgan tizimi individual o'zlashtirishni, o'z ustida muntazam o'ynaltirigan ish olib borishni talab qiladi.

Tarbiyalanuvchilar bilan muomala jarayonida va bevosita undan oldin ijodiy kayfiyatni boshqarish – pedagog mehnatining eng muhim kasbkorlik talabi bo’lib, u pedagogning guruhda, tarbiyalanuvchilar Bilan muomalada va shu kabilarda erkin bo’lishni, xulq – atvorning samarli bo’lishni ta’minlaydi. Pedagogik ijodkorlikning asosiy bosqichlariga nisbatan pedagogning ijodiy kayfiyatiga muomala ta’sirining quyidagi jixatlarini ajratib ko’rsatish mumkin:

pedagogning guruhdagi muomalasini oldindan payqashi uning ijodiy kayfiyatini safarbar qiluvchi omil ekanligi;

Guruh bilan dastlabki aloqa bevosita muomala paytida pedagog ijodiy kayfiyatining rag’batlantiruvchi omili sifatida;

pedagogning guruh bilan muomalasi tizimi: u faoliyat jarayonida pedagogning ijodiy kayfiyatini rivojlantirishni qo’llab – quvvatlaydi va rag’batlantiradi;

Muomaladan qanoat hosil qilish shundan keyingi faoliyatda pedagogning ijodiy kayfiyatini rag’batlantiruvchi omil sifatida.

Pedagog muomala jarayoni o’zida kechadigan bir qancha shart –sharoitlar bilan murakkablashad. Muomala shart – sharoitlari muomala harakteriga ancha ta’sir qiladi, aslida ular muomalaning kasbiy yo’nalishini ko’p jihatidan belgilab beradi. Muomalaning oshkoralik vaziyat ko’pgina qiyinchiliklar tro’qdiradi. Tadqiqotchilar qayd etib o’tganlaridek, kishilar oldida, katta auditoriya oldida muomala qilish auditorianing gapiruvchiga diqqat qilishga muljallanganbo’lib boshlovchilar uchun nihoyatda murakkbadir va maxsustayyorgarlik ko’rmasdan o’tkazilishi mumkin emas. Faqat o’zaro fikr almashish malaka va usullarini egallashgina muomala jarayonida pedagogning hissiy kayfiyatini ta’minlaydi.

Pedagogning ijodiy kayfiyatini boshqarishning alohida muhim muomalasi bunday kayfiyatni bevosita faoliyat oldidan chiqarish va safarbar qilish noijodiy kayfiyatni english hisoblanadi va hakozo.

Pedagogning ijodkorligida «jismoniy harakatlar» usulini ro’yobga chiqarishning o’ziga xosligi shundan iboratki, u pedagogga faqat bevosita ijodkorlik boshlanishidan oldin o’zining ijodiy tabiyaatini safarbar qilishning vositasi sifatidagina zarurdir, keyin esa «bordi – Yu” holatidagi “jismoniy harakatlar” mantiqni ijodkorlik vaziyati bilan chinakkamiga ma’naviy moyillikka sekin – asta o’sib o’tadi, endi “bordi – Yu” holatida emas, balki guruh bilan haqiqiy muomalada bo’ladi.

Muomalada ijodiy kayfiyatni shakllantirish murakkab jarayondir. Bu erda ko’pincha pedagog zo’riqish tuyg’usini boshidan kechiradi, buni pedagog ijodkorligining omma o’rtasidagi faoliyat, o’zgarib boruvchi ijodkorlik holati, o’zining psixik holatlarini operativ ravishda boshqarish zarurligi, mehnatning o’zaro fikr almashish jihatdan boyligi kabi xususiyatlari taqozo qiladi.

Pedagog talabalar bilan hamkorlikda yashar ekan o’qituvchining eteketiga qat’iy rioya qilishi kerak. Unga ishonib aytilgan talabaning (sekeretini) sirini hech kimga aytmasligi, uning ustidan kulmasligi va albatta u bilan samimiy bo’lishi shart.

Hulosa.

Pedagoglarda biz albatta oliyanoblik hissini tarbiyalashimish shart. Oliyanoblik qalbning o’ziga hos holatidir. Bu holat insonda sokinlik, hurmat, mehr, g’urur hislarining qo’shilishidan hosil bo’ladi.

Pedagogning talabalarga bo'lgan nisbatan bo'lgan munosabati mehr, hayri-hohlik va yordamida iborat bo'lishi kerak. Ma'lumki rivojlanish uchun yordam berish murakkab jarayon bo'lib, talabalar olidag qo'yib o'zi chetda qarab turishi va faqat shu talablar qanday bajarilayotganligini ko'zatib borishi yetarli degan hulosaga kelgan pedagoglar katta hatoga yo'l qo'yadilar.

### **Tayanch iboralar.**

Pedagogik oliyjanoblik, oliyjanoblik hissini shakllantirish, kasbga nisbatan munosabati, talabaning munosabati, nuqsonlarni yo'qotishga yordam berish, talabalrning yutuqlaridan hursand bo'lish.

### **Nazorat uchun savollar.**

Oliyjanoblik deganda nimani tushunasiz?

Pedagog va talaba o'rtasidagi munosabatni shakllantirishda nimalarga e'tibor berish kerak?

Munosabatlar samimiyl bo'lishi uchun nima qilish kerak?

Talaba va pedagog o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni qanday yuzaga keltirish mumkin?

hozirgi kunda pedagog bilan talaba o'rtasida "devor" bo'lishi kerak deb o'ylaysizmi?

Pedagogik muomalada bir qolipdagi usullar hamisha ham ijobiy rol o'ynaydimi?

Talabaning sha hsida shakllanishida muomalaning o'ni qanday?

Individual muomala uslubiga qo'yiladigan metodik talablar nimalardan iborat?

### **Adabiyotlar**

1. Voljskiy A. Metodika vospitatelnoy raboto's molodejyu. – M. 2003.
2. Kotov V. Vospitatelnaya rabota v shkole: opo't i problemo'. – SPb: Sev.siyanie 2003.
3. G'aybullaev N. va boshqalar. Pedagogika. T., 2000.
4. Ziyomuxammedov B., Abdullaeva Sh. «Pedagogika». T., 2000.
5. Raximjonov N. "Yoshlar iqtisodiy tafakko'rini shakllantirishda oilaning roli" T., 2005 (B.M.I.)
6. Z. qurbaniyazova "Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy o'zlikni anglashni shakllantrishning pedagogik asoslari" nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2002.
7. [www.ppf.uni.udm.ru](http://www.ppf.uni.udm.ru)
8. [www.search.re.o'z](http://www.search.re.o'z) - O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi.
9. [www.ictcouncil.gov.o'z](http://www.ictcouncil.gov.o'z)-Kompyuterlashtirishni rivojlantrish buyicha Maxkamasi muvoffiklashtiruvchi Kengashining sayti. Vazirlar
10. [www.talant.spb.ruqwad.html](http://www.talant.spb.ruqwad.html)

### **III Bob. Guruh rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi va tarbiyaviy ishlarni tashkilliashtirishi yo'llari va usullari.**

#### **3.1.Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalashga qo'yilgan talablar.**

Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofik, uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mexnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoa (ta'lim muassasasi, guruh jamoasi, ta'lim muassasasidan tashkari talabalar birlashmasi va xokazolar)ni shakllantirish va rivojlantarish uchun qo'llanma xisoblanadi. Mazkur bobda gap guruh jamoasini barpo etish va rivojlantirish, guruh rahbarining shu yo'nalishdagi ishi xakida boradi.

Tarbiya metodlarini tanlashda ularning jamoaning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffaqiyatning muhim sharti xisoblanadi. Shuning uchun har bir pedagog tarbiyaviy ishni guruhdagi jamoa munosabatlarining rivojlanishi darajasi (bosqichi, davri)ni aniqlashdan boshlaydi. Pedagogning esa yangi guruh bilan Ko'p marta ish boshlashiga tug'ri keladi: o'z mexnat faoliyatining dastlabki yilida, guruhnini navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba'zan esa ta'lim muassasasida vujudga kelgan vaziyat taqozosi bilan. Guruh rahbari o'zining metodlari jamoaning rivojlanishiga tuskinlik qo'llanmasligi uchun shunday keyingi ishlari davomida vaqt vaqt bilan jamoaning rivojlanish darajasini anglab turadi.

Nazariyada jamoa rivojlanishining uch yoki turtta darajasi ajratib ko'rsatiladi («Pedagogika» darsligining tegishli bobiga qarang). Boshlang'ich daraja pedagogning kuch-g'ayrati natijasida guruhda o'rnatilgan muayyan darajadagi tartib, intizom bilan, tarbiyalanuvchilarning uncha katta bo'lмагan qismi guruh rahbarining harakatlarini qo'llab-quvvatlashi bilan izoxlanadi. Tarbiya jarayoni o'z – o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim talabalar va umuman jamoa o'z faoliyatini mustaqil rejlashtiradi va tashkil etadi, o'ziga va bir-biriga talablar kuyadi va o'z-o'zini nazorat qiladi. Guruh rahbari va talabalar jamoasi o'y-niyatlari va ishlarida birgadirlar.

Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yo'l uzoq bo'lib, muayyan qiyiichiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar juda qiziqarlidir. Bu guruh rahbarining asosiy ishidir. Umuman ta'lim muassasasi tarbiyachisining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o'tishiga borliq bo'ladi. Agar talabalar jamoasi barpo etilmagan bo'lsa, talaba ta'lim muassasasini hech afsuslanmay tark etadi, hatto keyinchalik o'qigan yillarini eslamaydi xam. Talabalar jamoasini inoq jamoaga birlashtirgan moxir guruh rahbari qo'lida tarbiyalangan odam baxlidir. Ulg'ayayotgan kishi, fuqaroning xayotdagi mavqeini shakllantirishda, uning xayot yo'lini belgilashda o'z vazifasini anglash guruh rahbarining tarbiyalanuvchilar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boradigan faol va qat'iy faoliyatining zarur sharti xisoblanadi.

Jamoa shakllanish bosqichlari. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi ko'p. Uning moxiyati u yoki bu rivojlanish darajasidagi jamoa normativ ta'rifini aniq jamoa ta'rifi bilan taqqoslashdan iboratdir ijtimoiy ahamiyatga ega

bo'lgan maqsadning, pedagoglar bilan talabalarning bиргаликдаги har tomonlama sobitqadam faoliyatining, o'zaro mas'uliyatli munosabatlarning mavjudligi; o'z-o'zini boshqarish organlarining faoliyati va xokazo.

Talabalarning jamoa turmush normalari va qoidalarining, intizomning buzilishiga munosabatlarini ko'zatib, jamoaning tashkiliy to'zilishi ta'sirchanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Jamoa rivojlanishining dastlabki bosqichida talabalar tarqoq bo'lib, ularda yakdil fikr va guruh rahbari tayanishi mumkin bo'lgan ta'sirchan faollar bo'lmaydi. Shuning uchun bunday jamoada salbiy xodisalar ochik muhokama qilinmaydi, mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi va hokazo. Agar jamoa rivojlashishning ikkinchi bosqichida bo'lsa, nomigagina emas, balki pedagogning harakatlarni qo'llab-quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchn faollar bo'lsa, uning ayrim talabalar va jamoa oldiga muayyan talablar qo'yishini ko'zatish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilardan biri — talabalarning bиргаликдаги faoliyatga ishtyoqi chiqindi qog'oz yoki metallom toplash, kechaga tayyorgarlik kurish kabi ta'lim muassasalari tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko'zga tashlanadi. Guruh rahbari jamoaning rivojlanish darajasini belgilash uchun talabalarda ularnipg hozirgi va bo'lajak xayotlarida ijtimoiy axamiyatga molik maqsadlari mavjudligiii bilishi muhim, ya'ni jamoaning xayotiy faoliyati istiqbollarini barcha yoki ayrim talabalar qabul qilishini va bu istiqbollarning xususiyati qandayligini bilib olish zarur. Agar bo'lajak shanbalik yoki bayram kechasi talabalar uchun faoliyatga undovchi voqeа bo'lsa va bu yaqin istiqbol faqat ayrim talabalar va faollar uchun ahamiyatli bo'lsa, jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi xakida gapirish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda talabalarning faqat guruhdan tashkari faoliyatida namoyon bo'ladigan munosabatlarni taxlil etish bilangina cheklanib bo'lmaydi. Guruh rahbari ishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy talabalar jamoasini emas, balki talabalar jamoasini shakllantiradi. Talabalarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. Shuning uchun guruh rahbari dastavval talabalarning o'qishga qanday munosabatda ekanliklarini, o'zlarini darsda qanday tutishlarini, uy vazifalarini sidqidildan bajarishlari yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va, nixoyat, eng muhimi — ularning o'qishdagi muljallari nimalardan iborat, bu muljallar ijtimoiy moxiyatga molik yoki molik emasligi xisoblanadi. IKP - 51 guruhda shpargalkalar, aytib turishlar, ko'chirib yozishlar avj olgan edi. Talabalar buni tan olishdan xam uyalishmas, bunday xolni o'ziga xos dustlik, jamoatchilik deb xisoblashardi. Anketa savollariga javob olishda «Sen shpargalkaga qanday munosabatdasan?» degan savolga faqat bir talaba — Madina bunday deb yozdi: «Aytib turishni va aytib turishdan foydalanishni o'zimga ep kurmayman». Anketa savollarga javob qaytarish natijalarini muxokama qilish chog'ida Ko'pchilik Madinaning tutgan qat'iy yo'lidan g'azablanishdi: «Qaranglar, qanday mag'rurlanib ketib-di! Kadr-qimmat bizda xam bor, lekii u algebra buyicha kontrol ishga nisbatan ancha muhimrok, ishlarda namoyon bo'ladi».

Guruh rahbariga bu guruhda ishslash juda qiyin edi. Bu erda Ko'pgina qobiliyatli va yaxshi o'zlashtiradigan, ayni paytda kolok o'qishda juda katta qiyinchiliklarga duch kelayotgan talabalar xam bor edi. Darsdan tashkari paytlarda

turli tadbirlar — kechalar, uchrashuvlar, ekskursiyalar o'tkazilardi. Lekin bularning xammasi eng muhim narsaga — talabalarning ta'lim jarayoniga munosabatiga va bu jarayondagi o'zaro munosabatiga ta'sir ko'rsatmasdi. Ko'pchilik ikkinchi kurs talabalari o'qish — xar bir kishining shaxsiy ishi, degan printsipga amal kilardi.

Yuqorida bayon etilgan vaziyat guruh jamoasi rivojlanish darajasining pastligidan dalolat beradi.

Jamoaning tarbiyaviy ta'siri. Pedagog guruh bilan ishlashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Guruhda xaqiqiy jamoa munosabatlari bulmasligi mumkin, bunda pedagog ishni boshidan boshlashiga To'g'ri keladi. Ko'pincha bunday xolat yangi shakllangan, «yig'ma» guruhlarda, yangi qurilgan ta'lim muassasalarida bo'lishi mumkin. To'g'ri, boshqa xollarda xam shunday bo'lishi, avvalgi guruh rahbarining kuch-g'ayrati muvaffaqiyat keltirmagan bo'lishi, tarkibi o'zgarmagan jamoa yuqori kursdagi guruhlarda xam shakllanmasligi mumkin.

Ikkinchi tomondan, guruh rahbari guruh bilan ish boshlar ekan, har doim jamoa rivojlanishining boshlang'ich davri bilan ish ko'radi, deb muljallab bo'lmaydi. Boshlang'ich o'qish darvlarida Ko'pincha yaxshi guruh jamoalari shakllanadi. Pedagog bunday xolda jamoa faoliyatining avvalgi tajribasini taxlil etadi va uning ancha yuqori rivojlanish darajasiga mos keladigan tarbiya metodlarini qo'llaydi.

Quyidagilarni ta'kidlash zarur. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashning eng ishonchli usuli — talabalarni ular bilan darsda, darsdan tashkarida, ta'lim muassasalarida, ta'lim muassasalaridan tashkarida o'zaro faol xamkorlik qilish jarayonida ko'zatishdan iboratdir. Maxsus diagnostik usullar, masalan, anketa tarkatish, pedagogii vaziyatlarni vujudga keltirish va boshqalardan xam foydalanish mumkin. Lekin bu usullar guruhini juda exgiyotkorlik bilan, katta pedagoglik odobi bilan qo'llash lozim. talabalarni o'rganishning har bir usuli ayni vaqtida tarbiya usuli xam ekanligi pedagoglar uchun qonun bo'lib kolishi kerak. Extiyotsizlik bilan o'tkazilgan anketa tarkatish, ayniqsa uning natijalarini muxokama qilish talabalarni jiqlashtirish urniga ularning orasi buzilib ketishiga olib kelishi mumkin. Keltirilgan misolda anketalarni muxokama qilish pedagog tomonidan puxta tayyorlangan, o'qdan «portlash» usuli sifatida foydalanildi va boshqa choralar bilan mustaxkamlandiki, ular tagida quyiroqda so'z yuritiladi. Shaxslar, ayniqsa katta o'smirlar o'zlarini «o'rganishlarini» Xo'sh kurmaydilar. Shuning uchun turli xil anketalarni oshkora va samimiyl javoblar olishga umid qilgandagina qo'llash tavsiya etiladi.

Pedagog jamoaning kuchli va zaif tomonlarini anglash uchun pedagogik vaziyatlar vujudga keltirishni qo'llaydi. Lekin bunda shuni esda tutish kerakki, talaba kamchiliklarini xammaning o'rtasida yorkin namoyish etish uni ma'naviy xalok etishi, kalbini jaroxatlashi mumkin. Shunday vaziyatlarni vujudga keltirish kerakki, ular salbiy tomonlarni emas, har bir shaxsda odatdagi sharoitda boshqalardan yashiringan ijobny tomonlarni xam ochib bersin.

Guruh rahbari jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasiga qarab tarbiya usullarini tanlaydi. Bunda pedagoglarning yosh xususiyatlarini xisobga olish qo'shimcha shart xisoblanadi. Bu xaqda gapirmsa xam bulardi, chunki bu shart pedagogik printsiplardan biridir. Shu bilan birga, ishni endi boshlagan pedagog,

ayniqsa guruh rahbari tarbiya usullarini emas, balki shakllarini tanlashda o'z tarbiyalanuvchilari yoshini xisobga olishi muhimdir. Bunda bir xil usullar — talablar, topshiriklar va xokazolar turlicha izoxlanadi. Quyi guruhlarda ko'pgina talablar, qoidalarni tushuntirish, xatto ayrim «zerikarli» vazifalarni bajarishga urgatish ko'pincha o'yin shaklida o'tkaziladi. kichik guruhlarda tarbiya shakllari ancha jiddiy, amaliy tus oladi, lekin imkonli boricha ularga o'smirlarda ishtiyok uygotishga qodir bo'lgan romantik tus beriladigan. Yuqori guruhlarda chuqur tushuntirish ishlari olib borish, xatto ma'naviy talablarni falsafiy asoslab berish talab etiladi.

Jamoani shakllantnrishning dastlabki bosqichida guruh rahbaridan ayiksa Ko'p shaxsiy kuch-g'ayrat sarf etish talab etiladi. Bunda, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, vaziyat shunday bo'lishi xam mumkin, ya'ni guruh yangi emas, talabalar bir necha yildan buyon birga o'qishlari, jamoa esa tarkib topmagan yoki «sochilib ketgan» bo'lishi mumkin. Pedagog har qanday xolda xam o'z o'tmishdoshlarining xatolarini takrorlamaslik uchun vujudga kelgan vaziyatni taxlil etadi va buning pedagogik sabablarini aniqlaydi.

Quyilgan vazifalarni xal etish istiqbollarni olg'a surishdan boshlanadi. Jamoa qanday bosqichda turmasin, uning oldida bir vaqtning o'zida yaqin, o'rta va uzoq istiqbollar bo'lishi kerak. Tajribaning ko'rsatishicha, talabalarning shaxslararo munosabatlari jamoa tusini olmagan boshlangch bosqichlarda guruh rahbari talabalarning shaxsiy manfaatlariga daxl qiladigan Yaqin istiqbollarni o'rtaga qo'yish va ro'yobga chiqarish to'g'risida uylashiga To'g'ri keladi. Yaqin istiqbol sifatida odatda Ko'p tayerkgarlikni talab qo'llanmaydigan, lekin shu bilan birga qisqa muddatli amaliy muomala: ekskursiya, madaniy yurish, shahar tashkarisiga sayrdan xursandchilik etkazadigan qiziqarli ishlar tanlanadi. Bu kichik tadbirlarni tayyorlash talabalarning faol pedagogik erdam ostida muayyai kuch-rayrat sarflashlarini va tashkilotchilik fazilatlarini namoyon etishlarini talab qiladi. Bunday jamoa tadbirlarini o'tqazish chog'ida faol talabalar aniqlanadi.

Shuni yodda tutish muhimki, istiqbollar (Yaqin, o'rta, uzoq istiqbollar) jamoa xaet faoliyatining barcha: o'quv, ijtnmoiy-siyosiy, mexnat va ommaviy-madaniy soxalarini kamrab olg'an bo'lishi kerak. Bunday endashuv faqat «ko'ngillochar» istiqbollarni olg'a surish yo'lidan borish xavfidan xalos bo'lishga yordam beradi.

### **3.2. Guruh jamoasini o'rganish va uni dasturini ishlab chiqish**

#### **1. Talabalar to'g'risida umumiy ma'lumot**

- \* talaba qayerda yashaydi;
- \* ota-onasini kasbi va ish joyi;
- \* oila a'zolari va ularnin moddiy ta'minlanganligi;
- \* oilada ota-onasining o'zaro munosabati;
- \* talaba rejimi;
- \* oilaning xo'jalik ishlarida talabaning ishtiroki;
- \* talabaning hayotida eng muhim voqealar;
- \* talaba sog'ligi to'g'risida ma'lumot

#### **2. Yoshlar taraqqiyotining umumiy holati**

- \* umumiy taraqqiyot ( nutq madaniyati, dunyoqarash, harakteri, kino, teatr, muzey, stadionlarga borish);

- \* o'qishga bo'lган munosabati;
- \* talabaning davomati;
- \* talabaning jismoniy mehnatga munosabati;
- \* talabaning intizomi, xulqi, tirishqoqligi;
- \* talabaning qiziqishi (o'qishga, sportga).

### **3. Talabaning jamoat ishlariga ishtiroki**

- \* guruhning jamoat hayotida ishtirok qilish;
- \* jamoat ishlarining bajarilishi harakteri;
- \* talabaning guruhda obro'i va mavqeи.

### **4. Talaba shaxsining asosiy xususiyatlari**

- \* jamoatchilik, dunyoqarash;
- \* talabaning madaniy sifatlari, Vatanni sevish, do'stlik, insoniylik, baynalminallik;
- \* irodalik harakteri va xususiyatlari ( maqsadi bo'lish, faollik, botirlilik, tashkilotchilik, mustaqillik, intizomlilik, mardlik, kamtarlik va hokazo);
- \* talaba mijozining xususiyatlari va uning ruhiy jarayoni (nutq, diqqat,xotira, xayol, ruhiy holatlar).

### **5. Talabani o'rganish asosida guruh rahbari quyidagi chora-tadbirlarni to'zadi.**

- \* talabalarni qaysi sifatlarini tarbiyalab rivojlantirish lozim;
- \* talaba axloqidagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun nimalar qilish kerak;

V. Guruh jamoasini o'rganishining namunaviy dasturi

#### **1. Guruh hayoti.**

- \* guruhdagi talabalarning yoshi, ruhiy, fiziologik va gigenik holatlari;
- \* talabalarning shaxsiy taraqqiyoti, ma'rifatlilik jihatlari;
- \* guruhdagi jamoatchilik ishlari.

#### **2. Guruhning hamjihatliligi va uyushqoqligi.**

- \* talabalarning o'zaro munosabati;
- \* talabalarning birgalikda mehnat qilishlari va uning vaqtி;
- \* qizlar va o'g'il bolalarning do'stligi hamda hamfikrligi;
- \* jamoa a'zolarini himoya qilish;
- \* yutuq va muvaffaqiyatsizligini anglay bilish;
- \* o'quv yurti tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlarda guruh talabalarining ishtiroqi;
- \* millatlararo munosabat.

#### **3. Guruhning tashkilotchiligi.**

- \* jamoa bo'lib qiladigan ishlarni talabalar o'zlari mustaqil ravishda qila oladilarmi yoki yo'qmi;
- \* vazifa topshiriqlarni talabalar o'zaro taqsimlay oladilarmi, yo'qmi;
- \* talabalarning guruh majlisida qabul qilingan qarorlarga itoat qiladilarmi yoki yo'qmi.

#### **4. Guruhda hamkorlik.**

- \* talabalar o'z o'rtoqlarining qaysi odatlarini ma'qul ko'radilar va qaysi noma'qul deb hisoblaydilar;
- \* Rag'batlantirish va chora ko'rishni talabalar qanday tushunadilar;
- \* guruhda qabul qilingan chora-tadbirlarni amaliyotda qo'llash orasida farq bormi;
- \* guruhda tanqid va o'z-o'zini tanqid qilish mavjudmi.

#### **5. Guruhda do'stlik aloqalarining harakteri.**

- \* talabalarning o'quv yurti va undan tashqarida o'zaro do'stlik munosabatlari qanday;
- \* talabalar bir-biriga nisbatan sezgirlik, ko'zatuvchanlik xususiyatlariga egami;
- \* o'rtoqlariga nisbatan talabachanligi;
- \* o'rtoqlarining kamchiliklarini ko'ra biladimi, yo'qmi;
- \* guruhning a'llochilar, zukko, ishbilarmon talabalarning darsdan ketib qoladigan, o'zlashtirmoqchi talabalarga munosabatlari qanday;
- \* jismoni y jihatdanzaif bo'lgan bolalarga qanday yordamlar beriladi,

## **6. Guruh faollari.**

- \* faollar hayati;
- \* ularning guruhdagi obro'lari;
- \* faollarning o'rtoqlariga nisbatan munosabatlari;
- \* faollar guruhdan ajratib turadilarmi, guruhdagilar ularni hurmat qiladilarmi yoki yo'qmi.

## **7. Guruhning o'quv yurti bilan aloqasi.**

- \* o'quv yurtida bo'lgan hodisalardan, boshqa guruhlardan guruhning xabari bormi;
- \* o'quv yurtining yaxshi yo'lga qo'yilishi uchun guruh o'quvchilari takliflar kiritib turadilarmi;
- \* o'quv yurti talablarini guruh qanday bajaradi;
- \* guruhning boshqa guruh talabalari bilan qanday aloqasi bor;
- \* o'quv yurti tadbiriy choralarini rejalashtirishda guruh talabalari qanday ishtirok etadilar.

Talabalar jamoasining yuqorida ko'rsatilgan usullar bilan holatini o'rganish o'qituvchiga ko'p imkoniyatlar beradi. Tajribali o'qituvchilar hamma vaqt biror guruhning rahbarligini olishdan avval, oldin guruhni batafsil o'rganadilar, bu esa keyinchalik guruh rahbariga vaqt ni tejashga, aniq ish rejalarini tuzishda va o'z faoliyatini o'quv yili davomida belgilangan tarzda amalga oshirishga yordam beradi.

### **3.3. Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalash ishini rejalashtirish.**

Guruh rahbari ishini rejalashtirishda o'quv yurti umumiy ish rejasidan kelib chiqib aniq guruh rejasini tuzishda parallel guruhlarda ko'rildigan chora-tadbirlarni hisobga olish juda muhimdir.

O'quv yurtining tarbiyaviy ish rejasining o'quv yilining boshida pedagogik jamoa majlisida tasdiqlanib olinadi. har bir guruh rahbari o'z guruhi tarbiyaviy ish rejasini o'quv yurti tarbiyaviy ish rejasida ko'rsatilgan chora-tadbirlarni o'z guruhida taaluqli bo'lган qismlarini kiritib reja tuzadi.

Talabalarni tarbiyaviy ishni o'quv yurtining taxminiy tarbiyaviy ishlari mazmuniga muvofiq bir guruh yoki parallel guruhning rahbarlari majlisida talabani yoshiga, ruhiy, fiziologik xususiyatlariga mos keladigan tarbiyaviy chora-tadbirlar bajarilishi rejaga kiritilib, tasdiqlanib olinadi.

1. Guruh tavsiyanomasi. Guruh rahbari tarbiyaviy ish rejasining asosi hisoblanadi. Amalda guruh rahbarining kiritiladigan tarbiyaviy ishlari xilma-xildir. Mamlakatimizning turli tumanlarida, shahar va qishloqlarda joylashgan o'quv yurtlarining o'ziga xos tarbiyaviy an'analarini hisobga olmasak, tarbiyaviy ish rejalariga kiritiladigan masalalar bir-biriga juda o'xshab ketadi.

Guruhnинг музассал педагогик тавсиyanomasida аниқ ко'rsatilgan tadbiriylар qaysi tartibda berilishida qaramasdan tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari doimiyligicha qoladi. Masalan, guruh rahbarining ish rejasiga quyidagi boblarni тавсиya etish mumkin: г'оявий-сиюсиy dunyoqarashni shakllantirish; о'rtal maxsus ta'limga amalga oshirish; axloqiy tarbiya, jamoani tashkil etish; talabalarning tahliliya yordam ko'rsatish; ijtimoiy foydali mehnat va kasb tanlash; ekologik va tejamkorlik ruhida tarbiyalash; ijtimoiy kamolot, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlар; ota-onalar bilan ishlash va hokazolar kiradi.

Yuqorida ko'rsatilgan тавсиyalar qator yillar davomida ish jarayonida amalda sinalgan bo'lib, guruh rahbarining ish doirasida muhim o'rinni egallaydi.

Rejaga kiritilgan chora-tadbirlarning aniqligi, har bir bajaradigan tarbiyaviy ishning aniq va tushunarli tashkil etilishi, rejadagi har bir bajaradigan ishlarning aniq va ravshan ko'rsatilishi, chora-tadbirlarni tayyorllash. Ularni o'tkazish natijalarini yakunlash va shunga o'xhashlar tarbiyaviy ishlар rejasining asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Guruh rahbarining ish rejasи odatda bir o'quv yili uchun yarim yillik yoki choralik muddatlariga mo'ljallanib, o'quv yurti rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Tarbiyaviy ish rejalarini esa qisqa muddatlarga tuzish maqsadga muvofiqli.

Guruh rahbari tarbiyaviy ish rejasini tuzishda guruh faollari, talabalar, ota-onalarni jalb qiladi. Guruh tarbiyaviy ish rejasida ko'rsatilgan chora-tadbirlar takror bo'lmasligi uchun o'quv yurti, jamoatchiligining ish rejalarini bilan solishtirilishi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni rejalahtirishda talabalarning yoshi, kundalik rejimi, yil fasllarining kunlari, ob-havo nazarda to'tiladi va belgilanganidan ortiq darsdan tashqari ishlар, ortiqcha jamoat ishlарini rejaga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Guruh rahbarining tarbiyaviy ish rejasи o'quv yurtining muhim hujjati hisoblanadi. Guruh tarbiyaviy ish rejasini tuzish va uni amalga oshirishda guruh rahbari ma'muriyat va o'quv yurti organlari oldida javobgar shaxsdir.

Guruh rahbarining nizomida uqtirib ko'rsatilganidek, guruh rahbari, albatta, yarim yillik, bir choralik tarbiyaviy reja asosida ish olib borishi kerak. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, tarbiyaviy ish rejalarini choraklik yoki yarim yillikni tartibli olib borish ma'suliyatli ish bo'lib, u guruh o'quvchilari va faollarning orasida muhokama qilinishi lozim.

2. Tarbiyaviy rejalarini tuzishda qo'yiladigan asosiy talablar. Guruh rahbarining tarbiyaviy ish rejasи haqiqiy hujjat bo'lishi uchun u bir qator педагогик psixologik talablarga javob berishi lozim. Bu talablar quyidagilardan iboratdir:

A. Rejaning ma'lum maqsadli bo'lishi lozim. Tarbiyaviy ish rejasи agar o'z g'оявийлиги jihatidan maqsadli va mukammal bo'lsa, asosli va to'g'ri deb hisoblanadi. Rejaning qismida г'оявий-сиюсиy ishlarga va ijtimoiy foydali mehnatga o'quvchilarni jalb qilish diqqat markazida bo'lishi lozim.

B. guruh rahbarining tarbiyaviy ish rejalarini shakli, metodlari va mundarijalari aksariyat bir xil mazmunga ega. Bu o'xhashliklar ko'pincha quyidagilardir: seminarlar, siyosiy axborotlar, yuqori kurslarga sirtdan sayohat va boshqalar tarbiyaviy ish rejalarida keng aks ettiriladi.

V. Talabalarni ketma-ket tizimli tarbiyalashini ta'minlash. Guruh tarbiyaviy ish rejasiga kiritilgan chora-tadbirlar tarbiya jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Har bir ijro etilgan chora-tadbirlar oldindan rejalarashtirilgan chora-tadbirlar bilan uzviy boglangan bo'lishi lozim. O'quv choraklarida to'zilgan rejalar, qishki va yozgi ta'tillarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar aks yettililadi. Ikkinchchi yarim yilda talabalarning yozgi dam olish vaqtlarida bajaradigan tarbiyaviy ishlarini oldindan qayd etish lozim.

G. Rejaning real bo'lishi. Rejani tartibga solishda unga ijro etilishi qiyin bo'ladigan masalalar kiritilmasligi lozim. Reja aniq va ijro qilib bo'ladigan bo'lsin. Masalan, guruh rahbaridan biri, birinchi yarim yillik uchun tarbiyaviy ish rejasida quyidagi chora-tadbirlarni o'tkazish: talabalar orasida do'stlik va o'rtoqlik tarbiyasini amalga oshirish uchun ijtimoiy foydali mehnatni birgalikda o'tkazish, jamoa bo'lib sayohatlar uyushtirish; guruh devoriy gazetasini birgalikda siqarib o'zaro uyushtirish, san'at havaskorlarning kechalarini o'tkazish, do'stlik va o'rtoqlik mavzusidagi davra suhbatlari o'tkazish kabilarni amalga oshirish talabalarni bir-biriga yaqinlashtiradi, o'z navbatida ular o'rtasida do'stlik va o'rtoqlikni mustahkamlaydi.

D. Guruh tarbiyaviy ish rejasining o'quv yurti tarbiyaviy ish rejasi bilan muvofiqligi. Guruh tarbiyaviy ish rejasini tuzishdan oldin guruh rahbari guruhning tarbiyaviy ish rejasi bilan tanishib chiqish lozim.

E. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, guruh tarbiyaviy ish rejalariturli tartibda to'zilgandir, chunki har bir guruh turli xil sharoitlarda ishlaydilar. O'quv yurti ish tajribalarini o'rganib, ularni umumlashtirish asosida guruh rahbarini tarbiyaviy ish rejalarining taxminiy chizmasini tavsiya qilishni lozim topdik. Tavsiya etayotgan guruh rahbarining tarbiyaviy ish rejasi respublikamizning oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan tavsiya etilgan buyruqlar va tavsiyalar asosida to'zilgandir.

### **3.4. Guruh jamoasi bilan ishlash va unga rahbarlik qilish.**

Guruh rahbari o'z guruhidagi talabalarning bevosita ta'lif tarbiya jarayoni, ya'ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas'uldir. Guruhdagi barcha talabalarni qobiliyatiga qarab to'garaklarga jalg etish kerak. Guruhdagi talabalarning soni nechta bo'lishidan qat'iy nazar ularga ma'naviyat daftarini tuttirish kerak. haftada bir marta o'tkaziladigan ma'naviyat soatlarini to'g'ri tashkil etib, unga haqqoniy yondoshish shartdir. Tarbiyachi qanday sharoitda ishlamasin, u qanday guruhda ishlashidan qat'iy nazar, talaba shaxsini kamol toptirishi kerak. Guruh rahbarligi odatda guruhnini va alohida har qaysi talabani o'rganishda boshlanadi. Ma'naviyati boy bo'lgan guruh rahbari talabalar bilan alohida – alohida ishlashni amalga oshirishi, talabalarga o'z ta'siri, metodlarini mohirlik bilan qo'llash kerak.

Agar guruh rahbari talabalar faolligini yanada oshirishga harakat qilsa ota – onalar bilan aloqani mustahkamlashi lozim bo'ladi. qaysiki guruh rahbari ota – ona bilan yaqindan aloqada bo'lsa, uning guruhidagi talabalarning faolligi oshadi.

O'zbekistonimizning «Ta'lif to'g'risida»gi qonunini talabalar, ota – onalar o'rtasida o'ranib ishlab chiqishi kerak. O'quv maskanida ta'lif mazmunini takomillashtirish, ta'lif metodlarini yagilash borasida ko'p ishlar qilindi va qilinmoqda. Tarbiyachi talabalarda bilim olishga bo'lgan ishtiyoq va ehtiyojini

uyqotishga harakat qiladi. Agar guruh rahbari o’z guruhidagi talabalar o’rtasida hurmat qozona olsa, talabani fikrlashga o’rgatsin.

O’quv maskanida olib boriladigan tarbiyaviy ishlар sistemasini to’g’ri va bevosita guruhda o’zlashtirshni ko’tarishga ta’sir etadi. Guruh rahbari talabalar bilan hamkorlikda tarbiyalanuvchilarni o’qishga ongli munosabatda bo’lishga o’rgatadi, talabalarning o’qishga nazorat qiladi.

Darslarga kiradi, ko’zatadi va o’z guruhidagi talabalar bilan birgalikda guruhda o’quv ishlari sifatini oshirish chora – tadbirlarini belgilaydi. Guruh xonasining jixozi va ko’rinishi talabalarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun talabalarga guruh burchagini qanday jixozlash kerakligini aytib berish kerak. Guruh rahbari ko’rgazmali qurollardan samarali foydalanish, talabalarning darsdan bo’sh vaqtlaridan foydalanish tarbiyalanuvchilar ijodiy qobiliyatlarini o’strishda, ularni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradi. Darsdan bo’sh vaqtlarida talabalarning jamoat topshiriqlarni, to’garaklarda ishtirok etishini nazorat qilish kerak.

Tarbiyalanuvchilarni sevish va hurmat qilish tarbiyaviy ish samaradorligini oshirishning zarur shartidir. Agar pedagog tarbiyalanuvchilarni sevmasa u tarbiyalanuvchilarning haqiqiy tarbiyachisi, murabbiyi bo’la olmaydi.

Hozirgi kunda tarbiyaviy ishlар usulubiyoti fanining eng mu him vazifasi bu – kelajagimiz poydevorini kuruvchi va yuksaltiruvchi, bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil ishslash – ma’naviy qadriyatlarimizni va umumbashariy qadriyatlarni o’zida mujassamlashtirgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashdir. Buning uchun esa zamonaviy va jaxonning ilgor ta’lim texnologiyalari bilan ta’minlangan o’quv – uslubiy adabiyotlar majmualarini yaratish, ta’lim tizimini tubdan o’zgartirish uning mazmuniga milliy ruh singdirish, samarali an’anaviy uslublarni saqlab kolg’an holda ilgor uslublarni yaratish va ularni amaliyotda qo’llash lozim.

Shu maqsadda so’ngi yillarda pedagogik olim va amaliyotchilar tomonidan ilmiy asoslangan hamda O’zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta’lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta’lim – tarbiya amaliyotida qo’llash yo’lga qo’yilmoqda. O’qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o’qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Dars jarayonida yuqori samardorlikka erishish uchun quydagи metod va uslullardan foydalanish mumkin: ba hslar, tadqiqot, mo’zyorar, ishbilarmonlik o’yinlari, loyihalash, kitob bilan ishslash, suhbatlar, pinbord, boshqalarni o’qitish, davra suhbatlaridir. Ushbu metodlarni dars jarayoniga qo’llash uchun esa ta’limning kichik guruhlar bilash ishslash shaklidan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Bu esa o’z navbatida «Ta’lim beruvchi – t’alim oluvchi» diologidan voz kechishni va “ta’lim beruvchi – guruh – ta’lim oluvchi” ko’rinishidagi uch tomonlama o’zaro munosabatga o’tishni taqozo etadi. Shu tufayli pedagog bilan talaba o’rtasida mustahkam kontakt o’rnatalidi, shaxsiy va bir vaqtning o’zida ta’lim jarayonida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.

Quyida biz sizlarning e’tiboringizga “Men qanday jamoa tuzishni hohlayman” nomli mavzudagi roli o’yinni ko’rib chiqamiz.

## **Mavzu: «Men qanday jamoa tuzishni hohlayman” rolli o'yini .**

I. Mashg'ulot maqsadi: Talabalarni qanday jamoa tuzishga o'rgatish, jamoani tashkil etishda nimalarga ahamiyat qilish, Jamoaning tarbiyaviy ta'siri haqida tushuncha va ta'savvurlarini shakllantirish.

Mashg'ulot natijalari:

talabalarda darsga bo'lган qiziqishni o'stirish;  
roli o'zin orqali talabalarning mavzuni o'zlashtirishi;  
jamoa bo'lib mulohaza yuritish;

talabalarni qandaydir real vaziyatlarni ijro etish orqali hayotga tayyorlash:  
Talab etiladigan vaqt 1 soat 15 minut.

Zarur bo'ladigan materiallar:

texnik vositalar: Kodoskop

Tarqatma materiallar: tablichka 4 dona, qog'oz 20 dona  
ko'rgazmali materiallar: slaydlar 2 dona.

Mashg'ulot tafsiloti:

Mashqulot bosqichlari	Ta'lim beruvchi faoliyati	Ta'lim oluvchi faoliyati
I.bosqich. Tayyorlov	O'quv mashqulotining maqsad va natijalari aniqlanadi, ta'lim oluvchining baholash mezonlari aniqlanadi. Texnologik qaritasini tuzadi, zaruriy o'quv materiallar tayyorlanadi.	
II. bosqich. O'yinga kirish	Talabalarga "Men qanday jamoa tuzushni qoqlayman" rolli o'zin qatnashchilari bo'lishlarini e'lon qilinadi. Ushbu ta'lim usulining ma'nosini tushuntiriladi. Maqsad va natijalarini aytib beriladi. Ta'lim oluvchilarni 4 - guruhga bo'lib chiqiladi. Xar bir guruqning sardori bo'ladi. qar bir sardorning oldiga ismi va lavozimi yozilgan tablichkalar qo'yib chiqiladi.	Talabalar mavzuning nomini va o'quv mashqulotning maqsad va natijalarini slaydlar orqali ko'rib turadilar. Talabalar guruqlarga guruq sardorlari tomonidan bo'linadi.
III.bosqich Asosiy	Endi xar bir guruh o'zi tuzgan jamoa nima bilan shuqillanishini, guruq sardori ushbu guruqni tuzishda nimalarga aqamiyat qilganligini, guruqdagi	Ta'lim oluvchi o'qituvchisi beragan vazifalarni bajarish uchun guruqlarga bo'linadi.

	<p>ishni nimadan boshlab nimada yakunlashi kerakligi tushuntiriladi. Buning uchun vaqt ajratiladi. Ushbu vaqt ichida guruqning qar bir a'zosiga vazifa berilish kerak bo'ladi. Ya'ni qar bir talaba qaysi vazifada bo'lishiga qarab jamoaning o'sha qismini qimoya qilish kerak bo'ladi.</p>	<p>Guruq sardoriga bo'ysingan qolda guruqdagi o'z vazifasini bajarishga kirishadi. ïzining takliflarini kiritadi. So'ngra butun bir jamoa bo'lib o'zining gruqi sha'nini qimoya qiladi.</p>
IV.bosqich Taklif o'zi - o'zini baholash	Bilim oluvchilarga Jamoani tashkil qilish faoliyatini taqlil qilish va o'z- o'zini baqolashni amalga oshirishni taklif qilish.	O'z - o'zini baqolashni amalga oshiradi.
V. Muhokama Xulosalash	<p>Ta'llim oluvchilarga savol berish. 1 - savol. Jamoa tuzishda nimalarga e'tibor berish kerak</p> <p>2 - savol. Jamoani shakllantirish uchun qanday omillar ta'sir ko'rsatadiq</p> <p>3 - savol. Sizlarda ushbu dars qanday ta'surot qoldirdiq Ta'llim oluvchilar berilgan savollarga javob beradilar.</p>	<p>Ta'llim beruvchining yakunini eshitadi va o'zlari uchun xulosalar chiq aradilar.</p>

## **Xulosa.**

Jamoa – bu odamlarning biror bir muayyan ijtimoiy ahamiyati bo’lgan faoliyat asosida birlashuvlarining tashkiliy formasidir.

Tarbiyalovchi jamoa pedagoglar uchun tarbiya ob'ekti bo'lib, pedagogik ishlarning butun mohiyati jamoalarning tashkiliy jixatdan shakllantirish, tarbiyalanuvchilarni tegishli intizom doirasida saqlashdan iborat bo'lmay, balki talabalarning mazmunli hayotini tashkil etishdan, chinakam boy ijtimoiy va jamoa munosabatlarini shakllantirishdan iboratdir.

Jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro bog'liqlik, o'zaro nazorat, o'zaro ma'suliyatdan iborat muayyan munosabatlar tarkib topadi.

Guruh rahbari o'z guruhidagi talabalarning bevosita ta'lim tarbiya jarayoni , ya'ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas'uldirlar.

## **Tayanch iboralar.**

Jamoa, jamoa orqali tarbiyalash, pedagogik rahbarlik, insonparvarlik, banalminallik, mehir – oqibat, shakllantirish, rivojlantirish, ibrat, shaxsiy namuna, guruh rahbari, o'zaro hurmat, oqibat, ma'suliyat.

## **Nazorat uchun savollar.**

Jamoada shaxsni tarbiyalashning qanday shakllarini bilasiz?

Shaxsning shakllanishida guruh rahbarining roli qanday ?

Hozirgi kunda guruh rahbarlarining oldiga qo'yilayotgan vazifalar nimalardan iborat?

Guruh rahbarlarining ota-onalari bilan qilgan hamkorliklari natijasida nimalarga erishish mumkin?

Jamoada tarbiya individual shaklda olib borishning qanday afzallikkleri bor?

Ijobiy harakterga ega bo'lgan chora tadbirlarning amaliy ahamiyati qanday?

Guruh bilan ishlash va unga rahbarlik qilishda nimalarga ahamiyat qilish kerak?

Guruh rahbari ma'naviyatining boyligi talabalar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadimi?

#### **IV Bob.Guruh rahbarining oila va jamoatchilik hamkorligida olib boradigan pedagogik faoliyati.**

##### **4.1. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi"** Kontseptsiyasing o'rni va ahamiyati.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y- harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Kontseptsiyasi yoshlarni istiqlol g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturilamal bo'ldi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya turqrисidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv bilim yurti nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqzo etadi.

Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, birinchidan, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfikrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya — milliy mafkuraga sadoqat ru hida tarbiyalash;

uchinchidan, yoshlarni baynalmilal jahon xamjamiatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat tuqdirish uchun intilish ruhida tarbiyalash;

to'rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadokat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

beshinchidan, yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash O'zbekistonda talaba-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

Davlatimiz rahbari ko'rsatib bergenidek, ta'lim-tarbiya so hasidagi islohotlar: birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga;

ikkinchidan, insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga;

uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsni shakllantirishta;

to'rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga;

beshinchidan, umumiylar va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy Dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Mazkur Kontseptsiyada taraqiyotimizning ma'naviy-a hloqiy negizi milliy va umuman insoniy qadriyatlar uyg'unligi e'tirof etildi, milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o'zaro aloqalari, uyg'un yo'naliishlari belgilab olindi.

Milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik fazilatlari shakllantiriladi.

Umuminsoniy yo'nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigienik va boshqa tarbiya yo'nalishlari amalga oshiriladi. Bu Kontseptsiya milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablari asosliliginini ta'minlaydi.

Kontseptsiyada oilaga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda 1998 yil "Oila yili" deb e'lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytiradi. qayd etilgan masalalar jamiyatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri va uning dunyo miqyosidagi siesiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 martda qabul qilingan "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 130-sonli qarori misol bo'la oladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 30-moddasida "Voyaga etmagan shaxslarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari shaxsning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, o'quv muassasasigacha, umumiyligi o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar", deb belgilab qo'yilgan.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning 3.2 bandida esa ta'lim oluvchilarining o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Bu "Oila, o'quv bilim yurti, mahalla hamkorligi" bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma'naviy-a hloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash; umumiyligi hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Kontseptsiyasining asosiy maqsadidir.

O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlar "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" yo'nalishidagi shaxs tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, o'quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

#### **4.2. Guruh rahbari oila va jamoa bilan olib borgan faoliyati**

O'quv yurtining oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi guruh rahbari orqali amalga oshiriladi. Guruh rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o'rnatadi va aloqani doimo mustaqkamlab boradi;
2. Talabaga nisbatan o'quv yurtining va oilaning yagona talablar qo'yishga erishadi;
3. Guruh ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning guruhdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta'minlaydi;

4. Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko'taradi;
5. Guruhga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va o'quv yurtiga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o'rnatadi va ularni guruhdagi tarbiyaviy ishlarga jalg qiladi.

Guruh rahbarining talabani yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bola bilan qilayotgan ishlari haqida birlarigaqanchalik ko'p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog'liq. Ana shu maqsadda guruh rahbari oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak: Talabaning o'quv mehnatiga tavsifnomasi, o'qishdagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi, ularning sabablari, olayotgan baholari.

- Talabanining ijtimoiy faolligi haqida axborotlar, talabanining jamoa hayotidagi ishtiroki nimalardan iborat ekanligi, jamoat topshiriqlari va vazifalarning boryo'qligi, sababi, ularga o'zining munosabati.

- Talabanining o'z o'rtoqlari, o'qituvchilar bilan munosabatida vujudga kelgan holatlarning harakteri, o'quv yurtidagi munosabatlarnig doirasi.

- Talabanining ayrim xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish. Oilaga talaba tarbiyachi haqida maslahat va tavsiyalar. Oila ham o'z navbatida farzandi haqida o'z mulohazalari, ko'zatishlari yuzasidan guruh rahbariga quyidagi mazmunda ma'lum axborotlar berib borishi mumkin:

- Farzandi uya berilgan vazifalarni qanday bajaradi, unga sarflaydigan vaqtin, dars tayyorlash tartibi, mustaqillik darajasi.

- Belgilangan kun tartibining bola tomonidan bajarilishi.

- Talabanining o'quv yurti haqidagi hikoyalari, taassurotlari, gaplari, guruh hayotidagi turli voqealarga baholari.

- Ota-onaning ayrim o'qituvchilardan, guruh rahbaridan, o'quv yurti rahbarlaridan iltimoslari va takliflari.

Guruh rahbari bilan oila o'rtasidagi bu xildagi o'zaro xabarlashuvlar talabani to'la o'rganishga, ta'lim va tarbiyada shu talaba uchun eng maqbul tarbiya va ta'sir vositasini topishga yordam beradi. Guruh rahbari o'z ko'zatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'plangan ma'lumotlarni vaqtiga vaqtida o'rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo'llari, keyingi rejalarini belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib bo'lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Guruh rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari tajribasida shaxsiy, guruh-guruhi va ommaviy kabi shakllar keng tarqalgan. Ayniqsa, uning ota-onalar bilan olib boradigan ommaviy ishlari bu sohadagi faoliyatinnig asosiy yo'nalishidir. Chunki bu barcha ota-onalarni birlashtiradi hamda ularni o'quv yurti talablari bilan tanishtirish, jamiyatning tarbiyadan ko'zatadigan maqsadlari, ota-onaning vazifalari, tarbiyani amalga oshirish yo'llari, uslub va shakllari haqida bilim berish, guruh hayotidagi o'zgarishlar, rejalar haqida maslahatlashish uchun pedagogik ma'ro'zalar tashkil etish ilmiy anjumanlar, "ochiq eshik" kunlari, savol-javob kechalari, ota-onalar majlislari o'tkazish ommaviy ishning turlaridir.

Guruh rahbarining tajribasida ota-onalar majlislari keng tarqalgan va qaror topgan ish shaklidir. Bu majlislar guruh ota-onalar jamoasining yuqori organi sifatida

o'z qarorlari bilan guruhdagi, oiladagi va turar joylardagi amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning vazifasini va yo'naliishini belgilab beradi.

Guruh ota-onalar majlislarining bir necha xili mavjud: guruhdagi tashkiliy ishlar bilan bog'liq majlislar, ota-onalarga pedagogik ma'lumot berishga bag'ishlangan majlislar, munozara shaklidagi majlislar, yarim yillik yoki yil yakuniga bag'ishlangan majlislar. Bu majislarning har biri o'z maqsadiga tayyorlash va o'tkazish tartibiga ega.

Tashkiliy masalalar bilan bog'liq guruh ota-onalari majlisida odatda ota-onalar guruhi saylanadi, ish rejalar tasdiqlanadi, ota-onalar o'rtasidagi vazifalar taqsimlanadi.

Ko'pgina o'quv yurtidagi guruh rahbarining ota-onalar bilan olib borayotgan ishlari tajribasida savol-javob kechalari, maslahatlar va munozaralar ham vujudga kelmoqda. Maslahatlar ko'proq shaxsiy ish shakli bo'lib, unga guruh rahbari ota yoki onaga farzandini tarbiyalashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va boshqa masalalar yuzasidan aniq maslahatlar beradi. Guruh rahbari o'zining shaxsiy suhbatini, oilani o'rganish va ko'zatish asosida to'plagan ma'lumotlarni ota-onalar bilan o'tkaziladigan ishlarni hisobga olib boradigan maxsus jurnaliga yozib borishi g'oyatda muhim. Agar bu xil jurnalni guruh rahbarlari har yili muntazam holda yuritib borsa, u tarbiyaviy ta'siri yaxshilashning muhim vositasiga aylanadi.

#### **4.3. Ota-onalar bilan ishlashning shakl va metodlari.**

Guruh rahbari ota-onalar bilan ish olib borishda ishlashning xilma-xil shakl va metodlaridan foydalanishi lozim. Ota-onalar bilan ishlashga shaxsiy ishlar jamoa bilan birgalikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz quyida ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari bilan tanishib chiqamiz :

1. Talabalarning uylariga borish – bu oila bilan aloqa qilishning eng samarali shakllaridan biridir. Bunda guruh rahbari talabaning ota-onasi, uning yashash sharoiti, moddiy imkoniyatlari bilan tanishishga imkon topadi.
2. Ota-onalarni o'quv yurtiga chaqirish. Bundan maqsad, faqatgina talabalarning xulqi, savodliligi va boshqa xususiyatlari bilan ota-onani tanishtirish emas, balki shu bilan birgalikda ota-onalarga pedagogik va ruhiy maslahatlar berib, ularga talabani oilada tarbiyalashlariga yordam ham qilishdir.
3. Ota-onalar bilan ishslash. Bu esa talabaga chaqiriqlar yoki maxsus da'vatnomalar orqali amalga oshiriladi.
4. Ota-onalar guruh majlisini o'tkazish. Bu shakldagi aloqa maxsus ish rejasi orqali amalga oshiriladi.
5. Ota-onalarni maxsus pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish maqsadida ular bilan suhbat va ma'ro'zalar o'tkaziladi.
6. Savol-javoblar kechasi. Ishning bu shakli guruh talabalarning xususiyati, harakterini yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi.
7. Ota-onalarning tarbiya borasidagi ilg'or tajribalar bilan fikr almashish, o'rtoqlashish. Bu narsa quyidagi mavzuda bo'lishi mumkin:
  - a) yoshlarni qanday qilib mehnatga tayyorlash mumkin?
  - b) talabaning kundalik rejimi haqida.

v) “Ota-onalarning obro’si” haqida, “Oilada yoshlarga axloqiy tarbiya berish” va hokazolar to’g’risida anjumanlar o’tkazish.

8. O’quv yurti qoshida ota-onalar universitetlarini tashkil etish va bu universitetlardan tizimli ish olib borish:

a) ota-onalarni tarbiya sohasidagi adabiyotlar bilan tanishtirish.

b) “Ota-onalar, sizlar uchun” degan mavzuda oqzaki jurnal.

v) faol ota-onalarning tarbiyaviy ish tajribalari bilan boshqa guruh rahbarlarini tanishtirish kabi ishlar olib borilishi lozim.

Guruh rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g’oyat keng, ko’p qirrali bo’lib, bu ishlar faqat guruh va o’quv yurti miqyosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va talabaning ota-onasi ishlab to’rgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo’lishni taqozo etadi.

Bizning yosh avlod xalkimizniig inqilobiy, mehnat, jangovar an'analarini o’zlashtirib, o’ziga katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini — g’oyaviy e’tikod va matonatni, Vatanga muxabbatni, uning iqtisodiy, siyosiy va jangovar kudratini mustahkamlashda ishtirok etishga intilishni singdiribgina o’z bobolari va otalari ishini davom ettira va ko’paytira oladi. Bu ishda ota-onalar ayniqsa muhim o’rin tutishlari kerak.

Buni barcha guruh rahbarlari nazarda tutishlari muhimdir, Bunda shaxsning huquqiy etukligi shaxs ijtimoiylashuvining maxsuli ekanligini har bir oilaga tushuntirish g’oyat muhimdir. Oila shaxs uchun uning ijtimoiylashuv jarayoni ro’y beradigan, uning ahloqi, dunyoqarashi asoslari va hokazolar tarkib topadigan dastlabki va nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo’lgan jamoadir.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta’sir ko’rsatishga qodirdir va odatda ta’sir ko’rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta’sir ko’rsatiishning chuqur o’ziga hosligi bilan uyg’unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta’sirchan qilibgina kolmay, shu bilan birga sha hsni shakllantirish jarayonining zarur buginiga ham aylantiradi.

Oilanipg yuksak tarbiyaviy imkoniyati shaxslar va ota-onalarning o’ziga hos hususiyatlari: kon-karindoshligi, muhabbat, Yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obruliligi va hokazolar bilan ta’minlanadi. O’z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini yurgakdagi chog’idan biladigan, uning kalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta’sir etishni biladigan onadan va otadan yahshiroq. Kim ham ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, do’stlikka, muhabbatga urgata oladi!

Ma'lumki, xilma- hil faoliyat sharoitida shaxsning qobiliyatları eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, shaxsni oiladan boshqa qayerda ham faoliyatning hilma- hil turlariga jalb etish mumkin. Oilaviy tarbiyanipg qimmatliligi va a hamiyati yana shundaki, kichik shaxslik paytida oilada egallangan narsalar bir umr saqlanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota-onalarning shaxslarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab quyilgan.

Guruh rahbarlari ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham mu himdir, ularga ;muvozik usib kelayotgan kishi shahsini shakllantirishga

oilaning kushadigan hissasi turli yosh bosqichlarida turlicha bo'ladi va to'lqinsimon o'zgaradi. Dastlabki 3 yil ichida u ayniqsa kuchli bo'ladi, shundan keyin oilaviy ta'sirning muayyan darajada barqarorlashuvi davri boshlanadi. Uning navbatdagi chukkisik» odatda maktabgacha yosh tugaydigan paytga to'g'ri keladi, shundan keyin ta hminan o'smirlik davrigacha u zaiflashgandek bo'ladi. Yana ota-onalariing ta'siri ota-ona oilasidan ajralib, o'z oilasini o'zguncha ancha kuchayadi.

Psihologik-pedagogik tadqiqotlarning ma'lumotlari ba'zan shaxsning imkoniyatlari to'g'risidagi barqaror tasavvurlarni o'zgartirib yuboradi. Masalan, uch yillik shaxslar olimlar bir necha yil muqaddam tahmin qilganlariga nisbatan ancha chuqur idrok etish qobiliyatga ega, uch yoshli shaxs hozir faqat olti yoshli shaxslar qilgan va qo'llanmagan narsalarni bilishi va qilishi mumkinligi kichkintoyni yurishdan oldin so'zlashishga, ona tili bilan deyarli baravar chet tilida gapirishga o'rganish mumkinligi va hokazolar ma'lum bo'ldi.

Va holanki, tajribaning ko'rsatishicha, ota-onalar ko'pincha o'zlarini tarbiyaviy ishga tula tayyor deb biladilar va maxsus pedagogik bilimlarni egallashni zarur deb hisoblamaydilar. Ota-onalarning bu hususiyatini taniqli pedagog va psiholog K. D. Ushinskiy o'z davrida ta'kidlagan edi. «Tarbiya san'ati, — deb degan edi u, — shunday hususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi — odam bu ish bilan nazariy va amaliy ji hatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rindi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishini e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tugma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak, deb o'ylaydilar; lekin juda kam odam sabr-toqat, tugma qobiliyat va malakadan tashkari yana mahsus bilimlar. Kerakligi haqida ishonch hosil kiilish-

Bunday bilimlarniig yo'qligi oilaviy tarbiyada ko'plab hatolarga olib keladi, guruh rahbari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo'q.. Bu jihatdan ota-onalarning shaxslarni tarbiyalashdagi kuydagi qiyinchiliklari va hatolarini ajratib kursatgich mumkin:

1. Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining etishmasligi. Ular o'zları, ishlari haqida kam so'zlab beradilar, o'quv bilim yurti talabalar jamoasining hayoti, o'z shaxssining qiziqishlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va hokazolar bilan kam qiziqadilar. Muomalaning etishmasligi shaxslarning ota-onadan uzoqlashishiga olib keladi, ;kattalarni shaxsga yanada faolroq ta'sir ko'rsatish imkoniyatidan mahrum etadi.

2. Shaxslarni mehnat jarayonlariga jalb etish orkali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmaslik Ona ishga ko'milib ketgan paytda shaxslar oilaviy ishlardan, turar joylardagi ishlardan va hokazolardan ozod etiladilar. Buning natijasida mehnatga mensimay munosabatda bo'ladi.

3. Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi o'quv muassasasining pedagogik kuch-g'ayratini yo'qqa chiqaradi.

4. Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirinipg izchil emasligi — onda-sonda o'qishini tekshirish, biror nojuya ish uchun jazolash va hokazolar ahloqiy immunitet hosil bo'lishiga yordam bermaydi.

5. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida takiklashlar sistemasi — ijobiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, shaxs hayotini u har doim turli hatti-harakatni mashk qiladigan

tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir. Bu sistema shaxsning kattalar hohishiga salbiy munosabatini tugdiradi, mustaqillikning rivojlanishini susaytiradi.

6. Harakatlarning o'quv bilim yurti bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchilik. Tarbiyalanuvchida pedagogga, o'quv bilim yurtiga ishonchsizlik paydo bo'ladi va o'sib boradi, bu esa uning kamchiliklarini tuzatishni qiyinlashtiradi, pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

7. Ayrim ota-onalarning shaxslar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faollikni susaytirib yuborishlari, bu esa shaxslarning ota-onalardan uzoqlashuviga, o'quv bilim yurtiga qiziqishi pasayishiga va hokazolarga olib keladi.

8. Qarorlar qabul qilishda kechikish . Shaxs katta bo'lgandan keyin akli kirib, to'zaladi deb uylash odatda o'zini oqlamaydi, Ko'pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar katoriga ota-onalarning tarbiya usullarini bush bilishlarini, shaxslar ulg'ayishi bilan ularni o'zgartirishni bilmaslik yoki istamaslik ota bilan onaning talablari birligining, pedagogik odob, chidamning yo'qligi, ota-onalarning turmushning ma'naviy tomoniga zid tarzda moddiy tomoniga qiziqib ketishi va boshqalarni qo'shish mumkin.

Ota-onalar bilan ish shakllari va usullarini tanlashni odatda guruh ra hbari o'z shaxsiy hususiyatlari tajribasini, talabalarning oilalarida vujudga kelgan o'ziga hos hususiyatlarni, ota-onalarning bilim va tajribasini, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan hatolar va qiyinchiliklarni, fe'l-atvor hususiyatlarini, o'quv muassasasi pedagoglar jamoasidagi muhitni, ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an'analarni va hokazolarni hisobga olib belgilaydi, Tajribaning ko'rsatishicha, guruh rahbarining ota-onalar bilan hamkorligining ommaviy, guruh. tarzidagi va yakka tartibdagi ish shakllarini oqilona birga kushib olib borish, bunda uning mazmunida izchillikka rioya etish orkali erishiladi.

Ko'rsatilgan shakllar ta'rifi va ularni qo'llashning eng yuqori natija berishi ta'minlaidigan shart-sharoitlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Talabalarni tarbiyalashda oilaning bir qancha vazifalari mavjud bo'lib ular quydagilardir:

—oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro ham xo'p bo'lishni ta'minlash;  
—oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab etishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;  
—farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatlari kishilar bo'lib etishishlarini ta'minlash;

—bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;

shaxslarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

shaxslarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqlol g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

shaxslarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish;

—farzandlarida mavjud bo’lgan iste’dod ko’rtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

—o’z farzandlarining o’quv muassasasi, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to’la ado etishlari uchun oilada mas’uliyatli bo’lish;

—ota-onalar o’zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;

— shaxslarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma’naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish;

—oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo’nalishlarini uyg’un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga ma’sullikni ta’minlash;

—sanitariya-gigienik, ekologik ko’nikmalarini singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;

—oila, o’quv bilim yurti va mahalla oldida o’z farzandlarining barcha hatti-harakatlari uchun javobgardir;

—sog’ligida va aqlida nuqsonlari bo’lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-kor o’rgatishdan iborat.

Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o’zbekona ta’bir bilan aytganda, farzandga yahshi nom qo’yish, yahshi muallim qo’liga topshirib savodini chiqarish, ilmli, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

#### **4.4. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va o’quv yurtining hamkorligini amalga oshishirish tamoyillari va bosqichlari.**

Yosh avlodni yaxshi hulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, harakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko’zlangan maqsadga erishib bo’lmaydi. Oila, mahalla, o’quv bilim yurti hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo’ladi:

—ta’lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;

—tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg’unligi; — hamkorlik jarayoni sub’ektlarining teng huquqliligi va yuksak mas’uliyati;

—faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;

—hamkorlikning ilmiy asoslanganligi;

Birinchi bosqich. Yosh oilalar bilan ishslash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida falsafiy, tibbiy tushunchalarni berish va bu masalalarga tibbiyot hodimlari, obruli hotin - qizlarni, ota-onalarni jalb qilib, "Yosh onalar va otalar o’quv muassasasilarini" faoliyatini yo’lga qo’yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinci bosqich. Farzandning o’quv muassasasigacha bo’lgan davridagi jismoniy, aqliy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash borasida ularga rasm chizish, voqealarni bayon qilish, o’ziga o’zi hizmat qilish, harf tanish, qo’shiq, aytish va raqs tushish, turli o’yinlarda ongli qatnashish tushunchalarini singdirish va mustaqil ravishda bilim olish ko’nikmalarini shakllantirish yuzasidan o’quv muassasasiga tayyorlash guruhlari, "Yakshanbalik o’quv maskanlar" ishini tashkil qilish.

Uchinchi bosqich. Kichik yoshdagilar uchun muljallangan (6-11 yosh) o’quv muassasalarida shaxslarning jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy shakllanishini

ta'minlash, uning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, o'z hatti - harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, bo'sh vaqtini tug'ri tashkil qilishni o'rgatish, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lib, do'stlik, baynalmilallik, vatanparvarlik hislatlarini shakllantirish.

To'rtinch bosqich. O'smirlarning (11-16 yosh) qiziqishini, bilimga chanqoqlik va aql zakovatini hisobga olg'a n holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo'lishini ta'minlash, maishiy mehnat faoliyati orqali turli kasblarga yo'naltirish, o'smirlar guruhlari va jamoatchilik orasida o'z o'rmini topa olishiga ko'maklashish, o'z hatti-harakatlari uchun jamiyat, qonun va ota-onalari oldida javobgarlik tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy faolligi va mustaqil dunyoqarashini yuzaga keltirish.

Beshinchi bosqich. Yoshlarni (16 yosh va undan yuqori) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliklarini ta'minlash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta'lif olishlariga, tanlagan kasblari bo'yicha ish bilan ta'minlanishlariga, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, Davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to'la shakllantirish, mustaqil oila qurishga tayyorlash.

Ta'lif va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, direktiv ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, o'quv muassasasi hamkorligi faoliyati o'ziga hos pedagogik tizim, uslub va shakllarga ega bo'lishi zarur.

O'tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashgan, mantiqian teran, qiziqarli va ko'rgazmali, ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kerak.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim. hamkorlik tadbirlarining mavzulari "Sog'lom avlod uchun", "Ota-onangga rahmat", "Odobinga balli", "Soq tanda sog'lom aql", "Mehr chashmasi", "qizlar ibosi", "Bir yigitga qirq, hunar oz", O'g'lim posbonim", «hayot—ustoz, xalq—muallim», "O'zbekiston Vatanim manim!", "Milliy burch va mas'uliyat", "Oila saboqlari", "Oila etikasi", "Oila tinch — mahalla tinch", "Mustaqil hayot bo'sag'asida", "Askarlik — yigitlik o'quv muassasasi", "Oila bahti — Vatan bahti", "Sportchi oila", "Oilamiz ohanglari", "Vatan ostonadan boshlanadi", "Biz kimmiz" kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin.

" bahslar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin.

Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat to'g'ilganda o'quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, kor hona va idoralarning ta'lif-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to'g'risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## **Hulosa.**

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lif va tarbiya turqisidagi qator me'yoriy hujatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatlilishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv bilim yurti nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psihologik ta'sir ko'rsatiishning chuqur o'ziga hosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina kolmay, shu bilan birga shahsni shakllantirish jarayonining zarur bo'g'iniga ham aylantiradi.

## **Tayanch iboralar**

Oila, jamoa va o'quv yurtining tarbiyaviy ishlarini hamkorligi, "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Kontseptsiyasi, hamkorlik, oilaning o'rni, Ota-onaning farzand oldidagi burchi, farzandga yaxshi nom qo'yish, savodini chiqarish, kasb-hunarli qilish, uslublar.

## **Nazorat uchun savollar.**

"Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Kontseptsiyasining o'rni va ahamiyati?  
Oila – jamiyatning asosiy bo'qinidir deganda nimani tushunasiz?

Oila, mahalla hamda o'quv yurti hamkorligini qanday yo'lga qo'yish mumkin?

Oiladagi tarbiya jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatadi?

"Bir shaxsga yetti qo'shni ota – ona" degan iborani tahlil qiling.

Oila, mahalla hamda o'quv yurti hamkorligining ijobiy tomonlarini sanab bering.

Oila, mahalla hamda o'quv yurti hamkorlikda qanday tadbirlar tashkil qilish mumkin?

Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligini amalga oshirishning qanday uslublari mavjud?

Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va o'quv yurtining hamkorligini amalga oshirishning qanday tamoyillari va bosqichlari bor?

1. Kotov V. Vospitatelnaya rabota v shkole: opo't i problemo'. – SPb: Sev.siyanie 2003.
2. G'aybullaev N. va boshqalar. Pedagogika. T., 2000.
3. Ziyomuxammedov B., Abdullaeva Sh. «Pedagogika». T., 2000.
4. «Pedagogika» V.A.Slastenin, I.F.Isaev, A.I.Mihenko, E.N.Shiyanov. Moskva. «Shkolnaya pressa». 2004
5. Mahkamov M. «Bo'lajak tarbiyachilarining pedagogik muloqat madaniyatini shakllantirish» nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2005.
- 6 . [www.ppf.uni.udm.ru](http://www.ppf.uni.udm.ru)

7. [www.search.re.o'z](http://www.search.re.o'z) - O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi.
8. [www.ictcouncil.gov.o'z](http://www.ictcouncil.gov.o'z)-Kompyuterlashtirishni rivojlantirish buyicha Maxkamasi muvoffiklashtiruvchi Kengashining sayti.
9. [www.talant.spb.ruqwald.html](http://www.talant.spb.ruqwald.html)
10. [www.school.edu.ru](http://www.school.edu.ru).

Vazirlar

## **V Bob. Talabalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda guruh rahbarining roli.**

### **5.1. Mehnat tarbiyasining mazmuni**

Mehnat tarbiyasining mazmuni hilma- hildir. U ta'lif muasasalarining butun o'quv-tarbiyaviy ishlarini o'z ichiga oladi. Umumiy tarzda aytganda, umumiy ta'lif va hunar o'quv muassasasiidagi, mehnat tarbiyasi fan asoslari yuzasidan uquv mehnatini va mehnat ta'lmini o'z ichiga oladiki, ularning vazifasi talabalarda aqliy va jismoniy mehnatga ijobjiy munosabatni shakllantirishdan va ularni umumiy politehnik bilimlar, mehnat malakalari va ko'nikmalari bilan qurollantirishdan iboratdir. Lekin fan asoslari yuzasidan o'quv mehnati va mehnat ta'limi faqat o'quv maqsadlari bilan cheklanmaydi. Ular mehnat tarbiyasi bilan qo'shib, talabalarni ma'nnaviy, aqliy, jismoniy va estetik rivojlantirishning muhim asosi bo'lib maydonga chiqadi. O'qish bilan qo'shilgan ijodiy mehnatda talabalarning barcha qobiliyatları rivojlanadi va takomillashadi, ular sha hsining g'oyaviy-ma'nnaviy sifatlari shakllanadi.

Ijtimoiy foydali mehnatga quyidagilar kiradi:

- jamoat ishi - talabalar jamoasini uyushtirish, uni g'oyaviy-siyosiy tarbiyalash, aholiga ommaviy-madaniy hizmat ko'rsatish maqsadlariga hizmat qiladigan faoliyat;
- o'z-o'ziga hizmat qilish - o'quv muassasasi jamoasi oila foydasiga qilinadigan ijtimoiy foydali mehnat;
- unumli mehnat - talabalarning o'quv bilim yurti sharoitida (o'quv usta honasi, o'quv bilim yurti ho'zuridagi usta honalarda) bo'lganidek, ishlab chiqarish sohasida (fabrikalar va zavodlarda, kol hozlar vasov hozlarda va hokazo) ham moddiy boyliklarni yaratish bilan bog'liq ijtimoiy foydali mehnat faoliyati.

Biroq ayrim mehnat turlarining tarbiyaviy ahamiyati bir hil emas, ularning har biri o'z hususiyatlariga, afzalliklariga va qiyinchiliklariga ega. Ulardan faqat eng muhimlarini ko'rib chiqamiz.

Oilada va ta'lif muassasasida o'z-o'ziga hizmat qilish – bu eng qulay va kundalik mehnat turidir. Shaxsda mehnatsevarlikni tarbiyalash, uni tobora murshkkablashib oradigan mehnat faoliyati turlari bilan oshno etish shundan boshlanadi. Ko'p yillik tajribaning ko'rsatishicha, tarbiya umumiy sistemasida bu mehnatni pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish o'z-o'ziga hizmat qilishga doir bu mehnat yahshi odatga aylanadi, faqat majburiyat emas, talabalarning ehtiyoji bo'lib qolishga yordam beradi.

Mehnat tarbiyasining birinchi bosqichi shaxslarni kichik va mazkur yosh uchun mos keladigan mehnat topshiriqlariga asta-sekin o'rgatish hisoblanadi. Ota-onalar shaxslarning o'z-o'ziga hizmat ko'rsatish mehnati majburan ekanligini, mustaqil bajarish mumkin bo'lgan narsalarni kattalar qilishiga majbur etish yahshi emasligni tushunishlariga yordam berishlari kerak.

Ikkinchi bosqich mehnat turlarini o'z-o'ziga hizmat ko'rsatishdan umuman oilaga hizmat ko'rsatishgacha kengaytirish hisoblanadi. Kichik yoshdagagi tarbiyalanuvchilar ukasi yoki singlisining paltosidagi osilib ketgan tugmasini qadab, sochiq va dastrumollarni dazmollab, otasining kastyumini tozalab qo'yishga qodirdir. Dastavval bu ishlar ota-onaning tashabbusi bilan bajarilishi mumkin, lekin

keyinchalik oilaning boshqa a'zolariga o'z tashabbusi bilan yordam berish ehtiyojini asta-sekin tarbiyalab borish kerak. Buning sabablari har hil bo'lishi mumkin. Masalan, bugun ota charchagan, shuning uchun uni uy ishlaridan ozod qilishga harakat qilish kerak bugun ona nimadandir ranjigan, uni quvontirish - honani tozalab chiqish, metall idish-tovoqlarni yaraqlatib qo'yish kerak.

Oilaga hizmat ko'rsatishga doir mehnat ko'nikmalari rivojlanishi bilan talabalarning mehnat faoliyati sohasini asta-sekin kengaytirish, muhtoj bo'lgan boshqa kishilarga mehnat yordai ko'rsatishga jalb etish muhimdir. Bu o'ziga hos hudbinlikni, faqat o'ziga yaqinlari uchun ish bajarishga tayyorlikni bartaraf etishga kumaklashadi.

### ***5.2. Mehnat tarbiyasini singdirishda guruh rahbarining tutgan o'rni.***

Mehnat tarbiyasida tarbiyalanuvchilarning o'ziga hos hususiyatlarini hisobga olish ham muhim hisoblanadi. Jumladan, jismoniy zaif shaxslarga ularni mehnatdan ozod qilmagan holda kichik ishni topshirish va uni ochiq havoda bajariladigan qilib tanlashga harakat qilish, shu bilan ular salomatligini mustahkamlashga intilish kerak. Asabiy shaxslar uchun ularni tinchlantiradigan, vazmin holatga tushiradigan mehnatni izlab topish kerak. Qizlarning kashta tikishi, to'qishi, o'g'il shaxslarning ishlab chiqarish- texnika sohasidagi qo'l mehnati bilan shug'ullanishlari foydalidir. Kitob o'qish va boshqa o'tirib bajariladigan, mehnat turlariga qiziqadigan shaxslar uchun harakat qilish va muskullarni mashq qildirishni talab etadigan ishlarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Va aksincha, agar shaxs ko'p yugursa, turli haraktli o'yinlarni o'ynasa, unga o'tirib bajaradigan ishni berish kerak.

Hayoli parishon tarbiyalanuvchiga diqqat-e'tibarni jamlashni talab etadigan mehnatni: sutni qaynatishni, tuhum pishirishni, yuvib qo'yilgan choyshab va ko'rpa-yostiq jiddlari qurib ketmasligini ko'zatishni, o'z vaqtida tovuqlarni boqishni, sinchikovlik bilan rezavor buta sha hchalarini qirqishni, belgilangan vaqtida magazinga harid qilishga borib kelishni va hokazolarni topshirish mumkin. Irodasi bush shaxslar uchun ular har bir ishni oxirigacha etkazishlari muhimdir. Ularga o'zлари uchun qiziqarli bo'lib ko'rinnagan mehnatni topshirish va asta – sekin ular irodaviy kuch – g'ayrat ko'ratishlarga erishish foydalidir. Dangasalikka moyil bo'lgan yoki yengil-yelpi ishlaydigan shaxslar uchun aksincha, dastlab ularni qiziqtira oladigan, ularning ijodiy fikrlarni uyqotadigan ishni tanlash kerak.

Turmushning har bir holati uchun tavsiya berish qiyin. Lekin bo'lajak pedagoglar mehnatdan tarbiya vositasi sifatida foydalanganda eng muhim narsa – mehnat topshiriqlariga yondoshish kerakligini o'z hamkasblari, guruh rahbarilari bilan tez – tez maslahatlashishni yoddan chiqarmasliklari kerak.

### ***5.3. Talabalarning o'quv mehnatini tashkil etish usullari.***

Talabalarning o'quv mehnatini tashkil etishda mehnat topshriqlarini bajarish jarayonida ularning bilish faoliyatini faollishtirish muammosi g'oyat muhim hisoblanadi. Bu erda gap fan asoslari bilimlarini topa olish va mehnat ta'limida qo'llashga ularning o'zlarni qanday o'rgatish, ko'r – ko'rona emas, ongli ishslashlarini

qanday o'rgatish haqida bormoqda. Bu muammoni hal etish mehnat topshiriqlari hususiyatlariga bog'liq. Mamlakat ta'lif muassasalari ilg'or tajribasining ko'rsatishicha, agar talabalarga sanoat mehnatining ayrim nisbatan jo'n turlari (masalan, mazkur jarayonga oldindan sozlab qo'yilgan dastgohda ayrim murakkab bo'limgan jarayonlarni bajarish yoki konveyerda ishlash va hakozo) topshirilsa, bunday mehnat odatda ulardan bilimni qo'llashni talab etmaydi. Talabalar oldiga kompleks vazifalar qo'yilganda ahvol keskin o'zgaradi.

Bunday topshiriqlarni bajarishda talabalar o'zlari harakt qila boshlash oldidan ko'pgina narsalarni o'ylab ko'rishlari kerak bo'lgan real vaziyatlarga duch keladilar. Bular buyumlarni konstuktsiya qilish, detallarga aniq ishlov berish, ularning tehnik talablariga mos bo'lishi masalalari, materiallarni tanlash, operatsiyalarining tehnologik ketma – ketligini o'rgatish, asboblarni tanlash, qatnashchilar o'rtasida mehnatni taqsimlash, uskunalarini mehnat unumdarligini oshiradigan, brakni kamaytiradigan moslamalar bilan jihozlash masalalari va hakozolardir. Bu va ko'pgina masalalarni hal etish matematika, fizika, chizmachilik va boshqa bilimlarni qo'llashni talab etardi.

Qishloq ho'jalik mehnatida ham shunga o'hshash narsa ko'zga tashlanadi. Agar ta'lif muassasalar talabalardan ayrim, ancha jo'n qishloq ho'jalik ishlarida (masalan ekinlarni chopiq qilishda, ekinlarni suqorishda, hosilni yiqishtirib olishda) foydalansalar, bunday ishlar odatda yuzaki, fikrlash faoliyatsiz va fan asoslari bilimlaridan foydalanmasdan bajariladi.

Har qanday qo'l mehnatiga o'rgatishni hunarmandchilik deb atash, tokarlik yoki boshqa dastgohda, tikuv mashinasida har qanday o'rgatishni politehnik mehnat deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi. Ishning mohiyati uni qanday qurollardan foydalanib bajarishda emas, baki mehnatning o'z hususiyati, aqliy mazmuni qandayligidadir. Jamiyat farovonligi yo'lida qilinadigan ijtimoiy foydali, unumli mehnat – talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi jihatdan eng ahamiyatli mehnatdir. Bundan tashqari, u eng ko'p tarqalgan mehnat bo'lib, shahar ta'lif muassasalarda ham qishloq ta'lif muassasalarda ham qo'llaniladi. Unda talabalarning ishtirot etish shakllari ham hilma – hildir. Biz o'quv bilim yurti talabalari mehnat birlashmalari deb nom olgan mehnatning faqat ayrim shakllariga to'htalib o'tamiz. Ular faqat mehnat tarbiyasida emas, shu bilan birga hoviy – siyosiy, aqliy, a hloqiy, estetik, jismoniy, iqtisodiy, ekologik tarbiyada ham g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Talabalarni jamoat ishlab chiqarishida ongli va ijodiy ishtirot eitshiga tayyorlashda, shuningdek kasb tanlashda ham ularning ahamiyati kam emas. Mehnat brlashmalaridagi ishni tashkil etishning metodik masalalari ko'pgina o'quv qo'llanmalarida o'z aksini topgan. Ularda asosiy e'tibor dastavval shunga qaratiladiki, talabalarning mehnat birlashmalari – bu ular mustaqil mehnat hayotining birinchi o'quv muassasasi, topshirilgan ish uchun yuksak ma'suliyatni tarbiyalash o'quv muassasasiidir.

Jismoniy va aqliy mehnatga birday hurmatda bo'lish kabi hislatlarni shakllantirish o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasidagi eng muhim vazifalardan biridir.

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti sharoiti shakllanayotgan bir kezda talabalarda turmushga va mehnatga yangicha munosabatni, layoqatni shakllantirish – mehnat tarbiyasining asosiy maqsadlaridan biridir. Bunda albatta, ishlab

chiqarishning asosiy shakllarini, ayniqsa iqtisodiy munosabatlarning Yangi – yangi omillarini, ularga tanish hizmat turlarini belgilab olish darkor. Shaxslarda hunar va kasbga bo’lgan muhabbatni uyqotish jarayonida ularning ijobiyligi hislatlarini shakllantirishga ham e’tibor qaratish lozim. Tarbiyalanuvchilarni quyi guruhdan kasbga yo’naltirib, 9 guruhnini tugatganlarida akademik litsey yoki kasb hunar kollejlariga yo’llanma berish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyalanuvchilarni bozor sharoitiga o’rgatishning o’zi ularning halol va fidokorona mehnati tufayli foyda olish haqidagi amaliy bilimlarini boyitadi.

Tarbiyalanuvchilarni jamoa bo’lib hamkorlikdagi mehnati natijasida mahsulot soni va hizmat turlarini oshirish mumkinligiga o’rgatish lozim. tarbiyalanuvchilarning qurilish maydonchalari, yordamchi yig’im – terim otryadlari va birgadalari saflarida hunarmandchiliklari bilan sho’g’illanishlari, usta shogird o’quv muassasasilariga qatnashib xalq amaliy san’atida, bemorlarni parvarish qilishda va nafaqaho’rlarga hizmat ko’rsatish bo’limlaridagi, hovlilarni va ko’cha kuylarni tartibga keltirishdagi, sanoat – korhonalarida, hisoblash markazlari, kasalhonalar va o’quv muassasasigacha ta’lim muassaslalaridagi ishlarni alohida qo’llab quvvatlamoq lozim. Ular bu ishlarning barchasidan foyda topish malakasini oshirib borish kerak. Bozor munosabatlari bugungi kunda jahonda tan olingan moddiy barqarorlik va odamlarning iqtisodiy faoliyatini rag’batlantirib turadigan birdan – bir vosita ekanligini anglamoq kerak.

Bu munosabatlarda yuqori ko’rsatkichlarga erishish uchun qat’iy intizomga, tehnik va iqtisodiy bilimga, malakali muta hassislarga, ishni to’g’ri rivojlantirishga asoslanadi. talaba bozor qarama qarshiliklarini va ularni bartaraf etish yo’llarini ham topa bilish kerak.

Bugungi kunda mukammal iqtisodiy tarbiyani takomillashtirmasdan ish qilib bo’lmaydi. Shu bois pedagoglar, guruh rahbari, o’quv muassasasidan tashqari ta’lim muassasasi hodimlari nafaqat bilim berishlari, balki tarbiyalanuvchilarda iqtisodiy faoliyat malakasini hosil etish, bozor munosabatlari sharoitida mustaqil fikrlashga o’rganish lozim bo’ladi. shaxslarga savdo va hizmat sohasidagi Yangi iqtisodiy termin va tushunchalarni o’rgatish, ularni qanday qo’llash ko’nikmalarini shakllantirish lozim.

Ishga ijodiy yondoshuvining rivoji, topqirlik, ishtirokchilik, ishbilarmonlik, faollik va tashabbus tufayligina yuqori samara beruvchi foyda yuzaga kelishi mumkinligi tushuntirilsa, talabalar iqtisodiy faoliyatda muovafqiyat qozonadi.

O’quv muassasasi birlashmalari, shirkatlari faoliyatini nazorat qilish, o’quv muassasasininig o’zini- o’zi boshqaruvi orqali olib boriladi. shaxslar tomonidan topilgan daromad ular ihtiyyorida qoldiriladi. Shaxslarning roziligi bilan tarbiyalanuvchilar mehnat birlashmalari, shirkat va korxonalardan daromad faqat ish haqqi sifatida tulanma, balki o’quv muassasasi vujudiga jamoa to’zilmalari jamg’armasiga ham o’tkazilishi ham mumkin.

Ta’lim muassasalarda kichik biznesni tashkil etish, tarbiyalanuvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

So’zsiz ularda bir – birini qo’llab quvvatlash, mehribonlik, homiylik, yordam kabi fuqarolik e’tiqodlari va fazilatlari shakllantirib boriladi.

Bozorning a hloqiy va huquqiy me'yorlari bu insoniy a hloq me'yorlarining o'zginasidir. Bular:

halollik, berilgan so'zning ishonchli va qat'iyatliligi, batartiblik, ijrochilik, majburiy mehnatni tashkil qilish, kredit va qarzlarni qoplash, broker (vositachi)lik ishlarini olib borish, hushmomilalak, sherikka, iste'molchiga bo'lgan hurmat va hakozolar. ularning barii talabaga singdirilishi lozim.

Ta'lim muassasalarida rivojlangan nazoratli, bozor munosabatlarini tashkil qilish bo'lg'usi biznesmen va ishbilramon kishilarni shakllantirish, uddaburon ho'jalik yurituvchi, iqtisodiy fikr va musho hadasi rivojlangan odani tayyorlash imkonini beradi. Mehnat tarbiyasida shaxslarni tizimli iqtisodiy bilimlar bilan qo'rollantirish, iqtisodiy qonunlar va qarama – qarshiliklardan oqilona foydalana oladigan qilib tarbiyalash juda muhimdir.

Bu ishlarning hammasi samarali kasbga yo'naltirish ishlarini ta'minlashga qaratilan bo'lib, kasb tanlagan o'smirga yordam berish va uning ma horatini, iqtidorini namoyish etish lozim.

Tajribalarni tahlil etish shuni ko'rsatadiki har qanday mehnatni tashkil etishning asosiy bosqichlari: rejalashtirish va tayyorgarlik ishlari, ishning boshlanishini tashkil etish va talabalarni ish joylariga to'g'ri taqsimlash, musobaqa va o'zaro yordam elementlari bo'lgan mehnat jarayoninig o'zini uyushtirish, ishni uyushqoqlik bilan tamomlash va uni baholashdan iborat. Rejalashtirishda: ishni to'g'ri borishini, uyushqoqlik bilan tugallanishi, mehnatni hisobga olish va baholash shakllarini ko'zda tutish zarur. Ishni to'g'ri boshlash, talabalarni ish joylariga eng maqsadga muvofiq tarzda taqsimlash kelgusi butun ishlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Talabalarda mehnatga doimiy psihologik va amaliy tayyorgarlik har doim ham shakllanmasligini nazarda tutish kerak. Ayrimlar darhol ishga kirishishni bazilar esa aksincha ishslashni istamaydi. Shuning uchun mehnatni tashkil qilishda avvalombor moyillikni keltirib chiqarib bajariladigan mehnat jarayoniga yo'l yo'riq berish, qiziqtirish lozim. Bu mehnatni psihologik ehtiyojga aylanishida eng kerakli shart hisoblanadi . Mehnatning maqsadi aniqlangach uni taqsimlash boshlanadi. Yakka holdagi topshiriqlarni berish ko'pincha ya hshi natijalarga olib keladi. Yakka tartibdagi ish har bir talabaning qobiliyati va mehnatini yahshiroq hisobga olga yordam beradi . Lekin shu Bilan birga u jamoa ishi va talabaning o'z – o'zini boshqarish ahamiyatinin pasaytiradi. Guruhlarga ajralib umumiy guruh Bilan topshiriqni normada bajarish usuli ham mavjud. Lekin bu usul ham o'zini unchalik oqlamaydi chunki unda har bir guruh a'zosini va uning mehnat natijalari tenglashib qoladi. Ko'pchilik tajribalarda kichik guruhlari (5-10 ta) kishidan iborat guruhlarda ish bir oz yahshiroq borishi ko'zatilgan bunda talabalrn o'z – o'zini boshqarishini keng rivojlantirish ishni oson rejalahtirish nazoratni yahshiroq o'rnatish, natijalarini hisobga olish imkoniyati to'g'iladi.

Pedagog talabalarning bevosita faoliyati davomida mehnatga muhabbatni tarbiyalashning barcha usullarini mohirona qo'llashi kerak. Bir shaxsning chiroyli va tartibli bajargan ishi Bilan fa hrlanish boshqasiga odob bilan mulohaza qilish, o'z mehnati bilan yordam ko'rsatish, kichikroq bo'lgan intilishni qo'llab quvvtlash, rag'batlantirish bularning hammasi talabalarning ma'naviy qiyofasini shakllantiradi.

Mehnat qilinayotgan paytda musobaqa va o'zaro yordamni tashkil etish alohida katta tarbiyaviy qiymatga egadir. Ayni paytda ishning boshqa tomonini ham unitmaslik kerak. Ba'zan ish su'rati ketidan quvish uning sifati pasayishiga jismonan zaif talabalarning charchab qolishiga olib kelishi mumkin.

### ***Hulosा.***

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti sharoiti shakllanayotgan bir kezda talabalarda turmushga va mehnatga yangicha munosabatni, layoqatni shakllantirish – mehnat tarbiyasining asosiy maqsadlaridan biridir. Bunda albatta, ishlab chiqarishning asosiy shakllarini, ayniqsa iqtisodiy munosabatlarning Yangi – yangi omillarini, ularga tanish hizmat turlarini belgilab olish darkor.

Ishga ijodiy yondoshuvining rivoji, topqirlik, ihtiyojchilik, ishbilarmonlik, faollik va tashabbus tufayligina yuqori Samara beruvchi foyda yuzaga kelishi mumkinligi tushuntirlsa, talabalar iqtisodiy faoliyatda muvafqiyat qozonadi

Tayanch iboralar.

Mehnatga layoqat, insonning shakllanishida mehnatning o'rni, ahamiyati, ishga ijodiy yondoshish, ishbilarmonlik, mehnatsevarlik, jismoniy mehnat, aqliy mehnat, ishni rejalashtirish, mehnatni uyuştirish, tashabbuskorlik, foydali mehnat, faollik, ishlab chiqarish, layoqat.

### ***Nazorat uchun savollar.***

Mehnatning mazmuni nimalardan iborat?

Mehnatni tashkil qilishda nimalarga e'tibor berish kerak?

Yoshlarning mehnatga layoqatini o'stirish uchun nima qilish kerak?

Mehnatga oid maqollarni bilasizmi?

Yoshlarning mehnatni qadrlaydigan bo'lishlarida oilaning roli qanday?

Ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasi qanday yo'lga qo'yilgan?

Hozirga kunda shanbaliklar kerak deb o'ylaysizmi?

Mehnat tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun rag'batlantirishning o'rni qanday deb o'ylaysiz?

### ***Adabiyotlar***

1. Kotov V. Vospitatelnaya rabota v shkole: opo't i problemo'. – SPb: Sev.siyanie 2003.
2. G'aybullaev N. va boshqalar. Pedagogika. T., 2000.
3. Ziyomuxammedov B., Abdullaeva Sh. «Pedagogika». T., 2000.
- 4.«Pedagogika» V.A.Slastenin, I.F.Isaev, A.I.Mihenko, E.N.Shiyanov. Moskva. «Shkolnaya pressa». 2004
5. Mahkamov M. «Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqat madaniyatini shakllantirish» nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2005.
- 6 . [www.ppf.uni.udm.ru](http://www.ppf.uni.udm.ru)
7. [www.search.re.o'z - O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi](http://www.search.re.o'z - O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi).

## **VI BOB. Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakllari**

### ***6.1. Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni va unga qo'yiladigan talablar.***

Shaxs sog'lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun unda o'qishga intilish hissini takomillashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Ular ongida kasb - hunar va mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan o'z vatani va xalqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo'lish tuyg'usini, huquqiy ongini tarbiyalash lozim. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da madaniy - estetik, ilmiy, tehnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda o'quv bilim yurtidan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ta'kidlangan hamda ta'lim sifatini yahshilash, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan. Ushbu «Darsdan tashqari ta'limni tashkil qilish davlat talablari» talabalarning bo'sh vaqtini tarbiyaviy ta'lim jihatdan samaradorli tashkil etishga qaratilgan bo'lib, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va milliy dastur g'oyalari asosida ishlab chiqildi.

Darsdan tashqari ta'limni urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, Respublika hududlari talablari asosida tashkil etib, uning tarmoqini kengaytirib, hozirgi zamon talablari darajasida isloh, qilish kun tartibida to'rgan dolzarb masaladir. Hozirgi paytda yangi pedagogik va axborot tehnologiyasi qonuniyatlarini asosida pedagog olimlarimiz ta'lim muassasalaridan tashqari ta'limni tashkil etishning turli shakl va metodlarini ishlab chiqish yo'nalishida tegishli tadqiqotlarni olib bormokdalar. Shuning bilan birga bu, bir joyda to'htab turuvchi jarayon emas. Ushbu «Talablar» barcha o'quv maskanlaridan tashqari ta'lim muassasalari o'quv - tarbiyaviy ishini rejalashtirishda dastur va uslubiy materiallar, metodik qo'llanmalar, o'quv adabiyotlarini tayyorlashda muhim hujjat bo'lib hizmat qiladi.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarining to'garak qatnashchilarini ongida yuksak ma'naviy a hloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalari to'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish ular ongini ijobiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish muhim o'rinn tutadi. To'garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular Davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni bilishi shart. Talabalar qaysi to'garakka qatnashishidan qat'iy nazar shu kasb yoki hunar to'g'risida boshlang'ich ko'nikmalarga zga bo'lishi lozim.

Darsdan tashqari ta'lim talabalar qiziqshiga, hohishiga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar buyicha to'garak qatnashchilariga talablar qo'yilishi kerak:

1. Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi.
2. Estetik ta'lim.
3. Sayyohlik yo'nalishi buyicha to'garaklarga qatnashish.
4. Ekologik ta'lim yo'nalishi buyicha.
5. Talabalarni ma'naviy, a hloqiy yo'nalish buyicha.

6. Huquqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha.
7. Texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha.
8. Iqtidorli va iste'dodli yoshlar.
9. Iqtisodiy ta'lim.

## ***6.2. Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarning shakllari.***

Darsdan tashqari ta'lim muassasalari oldida to'rgan muhim tarbiyaviy faoliyati bu yoshlarga estetik, ekologik, ahloqiy, huquqiy, iqtisodiy va shunga o'hshash boshqa turdag'i tarbiyaviy ishlarni o'rgatishdan iboratdir. Tarbiyaning ushbu turlarini yosh avlodga singdirish uchun avvalo muassasada o'tkaziladigan talabalar his - tuyg'usini shakllantirishga asoslangan turli tadbirdarda, to'garaklar faoliyatida milliy madaniy-tarihiy an'analarga, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda amalg'a oshiriladi. Masalan estetik tarbiyani yoshlar ongiga singdirish maqsadda talabalar uylari, saroylari, shaxslar va o'smirlar ijodiyot uylarida doirachilar, paqc, vokal-cholqu, folklor, maqom, karnay-surnaychilar, ashula va raqs, o'zbek xalq cholqu dastalari, hor studiyasi, qo'qirchoq teatri, drama tugaragi, san'at sevarlar klublari tashkil etadi.

To'garak a'zolari ushbu dasta, to'garak va klublarda san'atni sevishga, ardoqlashga, san'at orqali go'zallikni kura bilishga, shu go'zallik orqali o'z ona yurtini ulug'lashga, undagi go'zallikni, chiroyni asrab qolishga intiladi.

Estetik yo'nalish bo'yicha tahsil olg'a n to'garak a'zolari quyidagilarni bilishi lozim:

- raqs san'atining mashhur namoyandalari hayoti va ijodini;
- kuy tinglash, uning mo'hiyatini tushunib paqc harakatlari orqali ifodalashni;
- turli millat va elatlar raqslari harakatlarini, uni ijro etishni;
- doiraning yaratilish tari hini, uning keksa namoyandalari ijodiy yo'lini, doirani ushslash qoidalarini;

Shuningdek, estetik ta'lim tasviriy va xalq amaliy san'ati yo'nalishlaridagi to'garaklar Mashg'ulotlari orqali ham talabalar qalbiga singdiriladi. Bu o'rinda talabalar uylari, saroylarida tashkil etilgan «Tasviriy san'at», «haykaltaroshlik», «Kulolchilik», «Milliy kashtachilik», «Naqqoshlik», «yoqoch o'ymakorligi», «Ganch o'ymakorligi», «Yosh ta'mirlovchilar» to'garaklari ayni maqsadni doimiy va uzuksiz amalg'a oshiradi.

Sayyoqlik to'garaklariga talabalar ularning qiziqishlarini hisobga olg'a n holda keng jalg qilinadi.

To'garakka qabul qilinayotgan talaba yoshlar avvalo sayyoqlik to'garaklarining biror bir yo'nalishiga qiziqqan, sayyoqlik ekspeditsiyasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lgan, sog'lom bo'lishi kerak.

Sayyoqlik yo'nalishi bo'yicha qatnashadigan talabalar birinchi o'quv yilidan keyin quyidagilarni bilishi lozim:

- yurtimiz haqida ta'savvurga ega bo'lishi;
- yurtimizning tari hini, qadimiy obidalarini, ular haqidagi afsona va rivoyatlarni bilishi;
- ma'lum joy, ulkani o'rganish bo'yicha reja va yo'nalishlarni ishlab chiqish;
- sayohat davomida ko'zatuvchanlikni bilish, sayyoqlikka oid materiallarni o'rganish;

-turli hildagi sayyoqlikka oid adabiyotlar bilan doimiy tanishib borishi va ularni bilish kerak.

Ekologik tabiatshunoslikdan tashkil qilingan to'garaklarning asosiy maqsadi yoshlarda jonli va jonsiz tabiat haqida ya hlit tasavvur hosil qilish, tarbiyalanuvchilarni usimlik va hayvonot olami bilan tanishtirish. To'garak a'zolarida usimlik va hayvonlarni himoya qilish kerakligi to'g'risida tasavvur hosil qilish, to'garak a'zolari o'quv bilim yurtilarida er maydonlarida va tirik tabiat burchagida o'simlik va hayvonlarni parvarish qilgandagina, ya hshi hosil olish mumkinligiga ishonch hosil qilishdan iboratdir.

To'garak a'zolariga birinchi o'quv yili o hirida quyidagi talablar qo'yilishi lozim:

-jonli va jonsiz tabiat haqida ta'savvurga ega bo'lishi;

-jonli va jonsiz tabiatni bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini;

-yoz, ko'z, qish va bahorning harakterli belgilarini;

-yilning turli fasllarida odamning yashab to'rgan joyidagi mehnati va ularning turlarini;

-o'simlik nomlari, ildiz, poya, barg, meva va uruqlarini;

-o't usimliklar, darahtlar nomini;

-meva va manzarali darahtlarni aa ularning bir biridan farqlarini

-uchib ketuvchi va qishlovchi qushlarning hayoti va hususiyatlarini;

-tabiat bilan inson orasidagi qonun-qoidani doimo muvozanatda saqlashni bilgan, ko'zatgan ishlari yuzasidan hisobot yoza bilishni, ma'ro'za qilishni bilishilari kerak.

Ta'lim muassasalaridan tashqari ta'limning barcha yo'alishlari va to'garaklaridagi talabalarning ma'naviy fazilatlari, boy madaniy merosimiz, tari hiy an'analarimizga, umuminsoniy k,adriyatlarga hurmat, vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalishi bilan belgilanadi.

O'quv bilim yurtlaridan tashqari ta'lim muassasalarini klub va to'garaklari boradilar. Bilimga tashnalik ham ahloqiy tarbiyaning tarkibiy qismidir tarbiyachi, muassasa hodimlari talaba qalbida kitobni sevish, uni o'qish va ardoqlash kabi fazilatlarni doimiy ravishda shakllantiradilar.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida rejalshtirilayotgan har bir tadbir mazmunida, klub va to'garaklar faoliyatida - Vatanga muhabbat va komilinson tarbiyasi aks etishi lozim. Talabalarda Vatanga muhabbat tuyg'usini tarbiyalashda yurtimiz madaniyati tari hi, muayyan davrlardagi mavqeい, buyuk mutafakkirlarimizning jahon fan va madaniyati sohasidagi o'rni, mamlakatimizning yorqin istiqboliga ishonch to'qpisida ma'lumot beriladi. Vatanni sevish, uning istiqboli haqida qayqurish iymon-e'tiqod ramzi ekanligi o'qtiriladi. Shu nuqtai nazardan asosiy maqsad - komil insonni tarbiyalash amalga oshiriladi.

Talabalarning huquqiy ongini oshirmsandan huquqiy fuqarolik davlatni tasavvur etib bo'lmaydi. huquqiy ong poydevoriga o'quv muassasasilarda asos solinadi.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida talabalarga huquqiy bilimlar, ijtimoiy hayot me'yorlari va qoidalari to'g'risida keng ma'lumotlar berib boriladi. huquqiy ta'limning mazmuni mustaqil O'zbekiston davlatining iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy-huquqiy manfaatlarini o'zida mujassamlashtirishi kerak.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida iqtidorli shaxslar va iste'dodli yoshlarni o'ziga xos psixologik jihatlarini va fazilatlarini hisobga olib turli to'garaklarga jalb

etish «Respublika iste'dod markazi» xodimlari bilan hamkorlikda va ularning ilmiy amaliy tajribalaridan foydalangan holda iste'dodlarin aniqlashga muljallangan texnologik diagnostik tadbirlar asosida amalga oshiriladi.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida quyidagi tadbirlar ishlab chiqiladi:

--iqtidorli shaxslar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan turli tadbirlarni amalga oshirish;

--«Kamolot», «Mahalla», «Ulug'bek», «Oltin meros», «Umid», «Ustoz» kabi jamg'armalar bilan hamkorlikda ish olib borish;

--o'quv bilim yurtlaridan tashqari Ta'lim muassasalarida yoshlar iste'dodi va iqtidorini namoyon qilishga doir shart sharoitlar yaratib berish;

--ularning qiziqishini inobatga olgan holda fanlar buyicha olimpiadalar, tanlovlardan, ko'rgazmalar, turli bayramlar, talabalar ijodkorligi kabi tadbirlarni o'tkazish.

Respublikaning chekka mintaqalaridan iqtidorli shaxslar va iste'dodli yoshlarni izlash, ularga kelgusida o'z qobiliyatlarini takomillashtirishlariga shart-sharoitlar yaratib berish kerak.

### ***6.3.Talabalarni o'z-o'zini boshqarish.***

Pedagog mustaqil tayyorgarlik davrida talabalar bilan ishlashni tabakalashtirilgan tarzda olib boradi, ularni guruhlarga taqsimlaydi, ayrimlari bilan esa yakka tartibda ish olib boradi. Pedagog fan kabinetlaridagi mustaqil ishlarni tashkil etib, bilimlar egallahni ta'minlovchi topshiriklar sistemasini ishlab chikadi, muntazam ravishda o'qishning borishini nazorat qiladi, talabalarning kitob, asboblar, qullanmalar, o'quv teleko'rsatuvlari, qo'shimcha adabiyotlar va boshqalar bilan ishslash malaka va ko'nikmalarini muntazam shakllantirishni ta'minlaydi.

Mustaqil tayyorgarlikni tashkil etishda laborant talabalar alohida o'rinni tutadi. Ular murakkab tajribalarni amalga oshirishda yordam beradilar, diapositivlar, filmlarni namoyish etadilar, haritalarni tayyorlaydilar, almashtiriladigan stendlarni bezatadilar, kabinetlarda inventarizatsiya utkazadilar, darsliklar va dasturlarga doir adabietlar fondiga mudirlik qiladilar va hokazo.

Mustaqil mashgulotlarda pedagog bilan talabaning hamkorlik qilishi zarurligi bekor qilinmaydi, lekin u darsdagiga nisbatan boshqacha—asosan bevosita, o'quv materiali (sxemalar, jadvallar, yo'l-yuriklar, maxsus to'zilgan ma'lumotnomalar va hokazolar)ni tegishli tarzda tashkil etish orkali amalga oshiriladi.

Kelgusida o'rta buginda darsdan tashkari mashgulotlarni tashkil etishda pedagogning yunaltiruvchi ta'siri ostidagi talabalarning o'z-o'zini tartibga solish, o'z-o'zini nazorat qilishi asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutub honada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashrulotlar etakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda darsdan tashkari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnomalar, laboratoriya uskunalar, kurgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, tehnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda to'tiladi.

O'z ichiga:

— darslik va qo'shimcha adabietlar bilan ishlashning hilma-hil shakllarini olg'an, nazariy bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi;

— tajribalar, ijodiy tusdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyi halashni, maketlar, modellar va hokazolarni tayyorlashini olgan mustaqil ishslash uchun topshiriklar sistemasi maqsadga muvofikdir.

Yuqorida kayd etilgan topshiriklarni bajarish jarayonida talabalar turli qo'llanmalar, asboblar, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o'rganadilar, o'z-o'zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarni jalg etish ko'nikmalarini egallaydilar. Ayni paytda ularda topshiriklarni bajarish uchun zarur materiallarni tanlash, ishning ketma-ketligini belgilash, vaqtini hisobga olish kabi tashkiliy ko'nikmalar shakllanadi. Bunga u hhash mashgulotlar talabalarga ular uchun yangi bo'lgan sharoitlarda me hnat qilish kuiikmasini egallahsga yordam beradi, o'qituvchiga esa talabalarda ta'lim-tarbiya jarayoniga faol kushilish uchun zarur bo'lgan fazilatlarni aniq, maqsadni ko'zlab, izchil shakllantirish imkonini beradi.

Natijada talabalar uchun o'quv Mashg'ulotlarini tashkil etishning yangi shakllni kiroat hona va bush auditoriyalarda pedagogsiz mustaqil mashgulotlarni asta-sekin joriy etish mumkin bo'ladi. Shuni aytish kerakki, bunday ish shaklining dastavval ayrim kismlari o'zlashtiriladi. Talabalar guruuhlariga tarbiyachisiz, o'zlari shugullanishlari uchun imkoniyat yaratiladi. Bunday mashgulotlar kattik, tartibga solinadi: ish joyi, tarbiyachiga takdim etilishi kerak bo'lgan hisobot materiallari va bu ishlarni amalga oshirish vaqtini aniq belgilab quyiladi. Talabalarni guruuhlarga taqsimlash oldidan katta tayyorgarlik ishlari olib boriladi: tarbiyachilar bilan ular mehnatini tashkil etish usullari haqida suhbatlar, qiroat honada va bush auditoriyalarda mustaqil mashgulotlarni tashkil etish yuzasidan dastlabki sinovlar, bu tajribani mu hokama qilish va unga zarur to'zatish kiritish kabi ishlarni bajariladi.

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, ishning yangi shakllariga o'tish butun pedagoglar jamoasining kuch-g'ayratlarini birlashtirishni, bo'sh honalarni taqsimlashda, tartib va intizomga rioya etilishini nazorat qilishda alo hida aniqlikni talab etadi.

Talabalarning o'z-o'zini tartibga solish va o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan guruuh. va yakka tartibdagi ish shakllari asta-sekin asosiy ish shakllari bo'lib qoladi. Ular talabalarda intizom va ma'suliyatni shakllantirishga kumaklashadi.

Bir qancha hollarda mustaqil tayyorgarlik yuzasidan ayrim mashgulotlarni tarbiyachi ishtirokida uyuştirish zarurati vujudga keladi. Bu unchalik mustahkam bulmagan va yanada kuchaytirilishi zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarni tiklash yoki shakllantirishni davom ettirish maqsadida o'tkaziladi. Binobarin, tarbiyachi ishtirokidagi mustaqil mashgulotlarni talabalar mustaqilligi shakllanishining muayyan bosqichida tula bardam topadigan shakl sifatida karamaslik kerak. U o'quv mashgulotlaridan keyingi darslarni tashkil etish shakllari sistemasida zarur ji hat sifatida saqlanib qoladi, lekin undan foydalanish me'yori o'zgaradi.

Mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish jarayonida shaxslarning zo'riqishiga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Shu maqsadda shaxslarda o'quv ishining oqilonqa usullarini, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy axborot oqimida yo'l topa olish, mustaqil tajribalar qilish va ko'zatish olib borish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Fanlararo aloqalar g'oyalarini ro'yobga chiqarish uchun: dars va darsdan tashkari o'quv ishlari—mustaqil tayyorgarlikni uyg'un birlashtirish; mustaqil tayyorgarlik davrida turli fan o'qituvchilarining o'zaro aloqasi; fan o'qituvchisi bilan

tarbiyachining hamji hatligi; turli rejim paytlarida yagona talablarni amalga oshirish kabi yangi imkoniyatlar vujudga keladi va hokazo.

Talabalarning barcha fanlar yuzasidan mustaqil ishlashi faqat darsdan tashkari faoliyatdagina emas, shu bilan birga darsda ham boshqacha sifat kasb etadi. Dars va mustaqil tayyorgarlikning bir-biriga singib ketishi, o'quv va qo'shimcha adabiyotlardan, qomuslardan, ma'lumotnomalardan va boshqalardan keng foydalanish imkoniyati ob'ektiv tarzda o'quv materialini eng ko'p darajada o'zlashtirishga, mustaqil ishni jadallashtirish hisobiga (uni birmuncha qisqartirgan holda). o'quv vaqtidan samarali foydalanishga, eng mu himi, talabalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, mas'uliyatni tarbiyalashga kumaklashadi.

Talabalarning mustaqilligi turli darajada bo'lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilishi mumkinligini hisobga olish muhimdir, albatta, bu esa ular sha hsining shakllanishiga shub hasiz ta'sir ko'rsatadi. Ayrim talabalarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki talabalarning o'zlar oldilarida to'rgan vazifalarni va ularni hal etish yo'llarini ancha yaxshi tushunadilar. tarbiyalanuvchilar tarbiyachi yordamisiz ishlaydilar. Bu erda tarbiyachining aralashuvi makbul emas, chunki bunday holat tarbiyalanuvchilarning mexnatsevarligini, bilish ehtiyojlarini shakllantirishda eng katta imkoniyatga egadir.

Talaba mustaqil harakat qilib, lekin o'z ishini tarbiyalashning fikri va ba hosiga boglik qilib kuygan paytda tobe mustaqil holat vujudga keladi. Ish qiziqish va ishtiyok bilan bajarilsa ham, mustaqil ishni bajarayotgan shaxsnинг harakatlarida ishonchsizlik ji hatlari mavjud bo'ladi.

Tarbiyachining tula rahbarligi va nazorati ostida harakat qiladigan talabalar toifasida majburiy-ijro etish holati paydo bo'ladi. Bunda talabalar ishga unchalik qiziqish bildirmaydilar. Ular Ko'pincha tar-biyachining yordamini surab murojaat qiladilar, kuchli talabalarning kullab-kuvvatlashidan foydalanishga intiladilar, agar bunday kullab-kuvvatlash bulmasa, ishni davom ettirishda irodalarini ishga solmaydilar. Bunday shaxslarda tashkaridan majbur qilish vaqtida harakat qilish odati mustahkamlanadi. Agar bunday holat barqaror bo'lib kolsa, u talabaning faqat akliy emas, shu bilan birga ma'naviy rivojlanishiga ham, tuskinklik qilishi mumkin.

Mustaqil tayyorgarlikning nazoratsiz—ijro etish holati rasmiy ijrochilik bilan, ishgiyok. va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan talabalarda ko'zatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, aks holda talabalarda ishga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo bo'ladi, bu esa ularning mehnatdagi tashki faolliklarini yo'qqa chiqaradi.

Va, nihoyat, beixtiyor hosil bo'ladigan holat ham ro'y berishi, bunday holat «hohlasam—o'ynayman, hohlamasam—o'ynamayman»; «yo'qsa—ishlayman, yokmasa—ishlamayman»; «oson bo'lsa—bajaraman, qiyin bo'lsa—bajar-mayman» degan so'zlarga rioya etadigan talabalar faoliyatida namoyon bo'ladi. Bu talabalar guruhi tarbiyachiga yuqorida kayd etilgan talabalar guru higa nisbatan kam qiyinchilik va tashvish keltirmaydi. Shaxslarning mustaqil tayyorgarligidagi beihtiyor holatni boshqa holatga aylantirish ancha qiyin ishdir. Bu shaxslarning faqat o'z sha heiy istaklari buyicha ish bajarishga doir no hush mayllarini bartaraf etish uchun uzoq. vaqt ter tukib me hnat qilishga to'g'ri keladi.

Ko'rsatib o'tilgan hollarning har birida shaxslarni bilish jarayoniga jalg etish, ularning qiziqishlariga tayanish, talabalarga o'quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishni his etish imkonini berish, ularni ragbatlantirish va albatta o'qishga urgatish kerak.

Ko'zatishlarning ko'rsatishicha, tarbiyachilarning o'zлari ko'pincha shaxslarning mustaqil tayyorgarligi, ularning ishga munosabatidagi holatning hilma-hilligini bilmaydilar. Pedagog esa ana shunday holatlarning namoyon bo'lishiga tayanib, yakka tartibda yahshiroq, yondashishni amalga oshirish mumkin, mustaqil tayyorgarlik davrida tarbiyalanuvchilarga o'z ta'snrini muvofiklashtirishi va takkoslashi, uni shahsni shakllantirishning samarali vositasiga aylantirishi mumkin. Bunda unga talabalarning fe'l-atvoridagi o'zgarishlar jarayoo'ini va o'z tarbiyaviy faoliyatining pirovard natijalarini oldindan kura bilish, har bir talabaning hususiyatlarini, uning shahs sifatida mehnatga munosabatini yaxshi bilish yordam beradi.

Talabalarning mustaqil tayyorgarligini tashkil etganda, shaxslar mustaqilligini pasaytiruvchi ortikcha vasiylik qilishga yo'l quyib bo'lmaydi. Ko'zatishlarning ko'rsatishicha, tarbiyachilar mustaqil tayyorgarlikning turli bosqichlari (bo'lajak ishning borishi tushuntiriladi, uy ishi, uning mazmunini, talaba faoliyatining tartibini tula tushuntirib berish hollari uchraydi va hokazo)da talabalarning ishiga aralashib, ko'pincha ular mustakkillinginiig rivojlanishiga halakit beradilar, mustaqil faolnyat ko'nikmalari shakllanishiga tuskinlik qiladilar. Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talabalar mustaqilligi muntazam oshib borishi va yordam berish muntazam kamayib borishiga erishish mu himdir, albatta.

O'z guruhining imkoniyatlarini, shaxslarning o'ziga hos hususiyatlarini, ular mustaqil ishining uslubini hisobga oluvchi tarbiyachi mustaqil tayyorgarlik davrida g'oyat talabchan bo'ladi, shaxslarni mustaqil faoliyatga yunaltiradi, mustaqil tayyorgarlikii talabalar bilimlarini mustahkamlashning va ularda tashkiliy-amaliy malaka va ko'nikmalarii rivojlanirishning vositasi sifatida qarab, o'z yordami darajasini asta-sekin pasaytiradi.

Ta'lrim muassasalari talabalarining mustaqilligi haqida gapirar ekanmiz, biz bu jarayointing ikki tomonini ifodalaydigan tushunchalardan: talabalar faoliyatida-mustaqillik darajasidan, tarbiyachi faoliyatida—yordam berish darajasidan foydalanamiz. Mustaqillik darjasasi deganda biz talabalarning pedagog yordamiga bo'lgan ehtiyojini nazarda tutamiz. Yordamga bo'lgan ehtiyoj qanchalik yuqori bo'lsa, talabalarning mustaqilligi shunchalik past bo'ladi. Shaxslarga yordam ko'rsatish darajasining mezoni sifatida biz o'quv muassasachilarining topshiriqlarni bajarish jarayoniga tarbiyachining aralashuvini qabul kilamiz.

Ayni vaqtda shuni hisobga olish muhimki, mustaqil tayyorgarlik mustaqil faoliyat shakli bo'lib, u shaxsni o'qishga o'rgatar ekan, to'liq ravishda tarbiyachining rahbarligisiz, muayyan darajadagi tarbiyaviy kuch-g'ayrat sarflashisiz o'tishi mumkin emas.

Pedagoglarning mustaqillikni tarbiyalash vazifalarini hal qilishga sarflagan kuch-g'ayrati talabalarning ruhiy-fiziologik kayfiyatiga mutanosibdir. Agar shaxslar mustaqil tayyorgarlikni o'z faoliyati zanji-ridagi tabiiy bo'g'in sifatida qabul qilsalar, pedagoglar tomonidan ham, shaxslar tomonidan ham katta kuch-g'ayrat

sarflash talab etilmaydi. Aksincha, mashg'ulotga yomon tayyorgarlik ko'rish hamma uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Tarbiyachining o'quv muassasasi talabalariga irodaviy ta'sir ko'rsatishi talab etiladi, ularning esa o'z organizmlari va ruhiyatlarining a hvolini muayyan faoliyatga yunaltirish uchun irodaviy zurikishlariga To'g'ri keladi. har qanday holatda tarbiyachi tomonidan ham, talabalar tomonidan ham ko'p yoki oz midorda kuch-g'ayrat sarf etishni talab etadigan vaziyatlar vujudga keladi. Mustaqil tayyorgarlik davomida ta'lim muassasalarining talabalari mustaqil faoliyatining u yoki bu ko'nikmasi shakllanayotganda ham huddi shunday vaziyatlar vujudga keladi. Bu vaziyatni zarur tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga yordam beradigan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq holatga aylantirish tarbiyachining mahoratini bildiradi.

O'z-o'zini tarbiyalash o'z ustida ongli va rejali ish olib borish, jamiyat va rivojlanish shaxsiy dasturi talablarga javob beruvchi xususiyat va sifatlarni shakllantirishga yo'natirilgandir. O'z-o'zini tarbiyalash tarbiya jarayonida shakllanadi.

Bu usullarni shartli ravishda 2 guruhga bo'lish mumkin.

O'z-o'zini tarbiyalash shaxsining o'z-o'zini anglashdan boshlanadi. Buning uchun quyidagi usullar qo'llaniladi. Ular 1-guruhga tegishli:

O'z-o'zini ko'zatish ;

Taqqoslash;

O'z-o'zini tahlil qilish;

Empatiya;

O'z-o'zini baholash.

Bu usullarning barchasi o'z-o'zini anglash saviyasini o'stirishni maromlashtiradi. Bu besh usul yordamida shaxsni o'z-o'zini baholashi amalga oshiriladi. Qolgan usullar o'z-o'zini tarbiyalash uchun qo'llaniladi:

O'z-o'zini tanqid qilish;

O'z-o'ziga majburiyat yuklash;

O'z-o'zini boshqarish;

O'z-o'ziga buyruq berish;

O'z-o'zini jazolash;

O'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish;

O'ziga ishonch.

#### ***6.4.Ta'lim – tarbiya muassasalarida bayramlarni, ommaviy tadbirlarni namunali o'tkazish.***

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yurtmizda ko'plab bayramlar nishonlana boshlandi. Ular o'z mazmunicha xalqimizning azaliy an'analarini, urf – odatlarini va orzu umidlarini olgan bo'lib, ommaviy tarzda muntazam nishonlanib kelyapti. Albatta, bu bayramlar kishilarga zavqu shavq bag'ishlash barobarida, yoshlarda vatanparvarlik, an'analarimizga sadoqat, urf – odatlarimizga hurmat hissini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu darslar talabalar qalbida iymon – e'tiqod hissini munavvar etib, ona – Vatan, xalqiga mehir muhabbat uyqotish zarur. Shu bois avvalo dars mavzusini to'g'ri tanlab olish, talabaning bilimdarajasi, malaka va ko'nikmalariga mos ravishda aniq belgilay bilishi lozim. Dars o'tiladigan xona ham mavzuga mos ravishda

bezatilgan bo'lishi lozim. Ya'ni qanday bayram o'tkazilishga qarab O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi, Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida" gi qonun, Mutafakkir olimlarning ibratli so'zlaridan namunalar keltirish mumkin va hakozolar.

Saboqlar suhbat, savol-javob, babs-munozara, hikoya shakllarida sahnalashtirilgan lavhalar yordamida tashkil etilsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunday bayram tadbirlariga eng asosiyalaridan misol tariqasida aytib o'tishimiz mukin bo'lganlari "Mustaqillik – buyuk ne'mat" umumxalq bayrami – "O'qituvchilar va murabbiylar kuni", "9 may – Xotira va qadrlash kuni", "Navro'z – gul bayrami" kabilardir.

Ushbu bayramlarni tashkil etishda Milliy dastur talablariga muvofiq vujudga kelayotgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, ayniqsa, behad ko'tarinki ruhda alohida mahorat va izlanuvchanlikni talab qiladi.

Ta'lim muassasalarida, akademik-litsey, kasb-xunar kollejlarida, o'quv yurtlarida, mahallalarda, korxonalarda "1-oktyabr—O'qituvchilar va murabbiylar kuni" bayramini o'tkazish o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda xalqimizning ustoz murabbiya bo'lgan munosabatlarining eng yaxshi namunalari misolida o'quvchi yoshlar, umuman insonlar dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Bayram tantanalariga ota-onalar, mahalla faollari, xalq ta'limi xodimlari, yozuvchi, shoirlar, san'at ashli, homiy tashkilotlar, faxriy o'qituvchilar, "Umid", "Kamolot", "Ulug'bek", "Mahalla" "Nuroniy", "Ustoz" "Oltin meros" kabi jamg'armalar, ommaviy axborot vositalari vakillarini jalb etish kerak.

Bayram doirasida dars, tarbiyaviy soat, seminar-adabiyot, adabiy-badiiy va ilmiy kechalar, uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazilishi mumkin.

Bayram tantanalari "O'qituvchi—ulug' nom, u Mag'rur jaranglaydi", "Ustoz—otangdan ulug'", "Ustoz va murabbiylar, sizlarni sharaflaymiz", "Men sevgan ustoz", "Agar hayot bo'ston bo'lsa, bog'bon muallim", "Ustozlar kuni — umumxalq bayramidir" kabi mavzularda o'tkazilishi mumkin.

Shuningdek, yosh musavvirlar, yosh xunarmandlar yosh raqqosalar, yosh chevarlar ko'rik-tanlovlari, yosh polvonlar, yosh sportchilar, o'tkir zehnlilar, topqirlar musobaqalarini, she'rxonlik va mushoiralarini o'tkazish lozim.

Ustoz va murabbiylar bayramini nishonlashda o'tganlar ruhini shod etishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

"O'qituvchilar va murabbiylar kuni" bayramini quydagicha reja asosida o'tkazish mumkin:

- 1 oktyabr — "O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayrami — dam olish kuni ekanligi;
- o'qituvchi—ulug' zot ekanligi haqida;
- ustoz—otangdan ulug'ligi;
- o'qituvchi va murabbiylar mehnatining qadr-qiymati haqida;
- buyuk ustozlar haqida O'qituvchilar sulolasi haqida;
- ustozlar ruhini shod etish;
- o'qituvchilarni munosib taqdirlash, sovg'alar ularashish;

- rivoyat, hikoyalari, she'r va kuy-qo'shiqlar ijro etish;
- saxna lavhalaridan, sport o'yinlaridan namoyish etish;
- san'atkorlar chiqishi;
- sayl-sayohatga borish;
- nafaqaxo'r, faxriy o'qituvchilar holidan xabar olish;
- ko'rgazma tashkil etish, kimoshdi savdosini uyuştirish.

Bayramni ikki bosqichli tadbir asosida o'tkazish ham mumkin.

Birinchisi — ma'rifiy, ma'naviy tadbirlar bo'lsa, ikkinchisi, ko'ngil ochar, estetik zavq-shavq olishga bag'ishlangan o'yin-kulgi, tomoshali tadbirlardir. Sayohat va sayllarda, muzey va muqaddas qadamjoylarga, "Xotira va qadrlash" maydonlariga borish.

O'quv yurtlarida "O'qituvchi va murabbiylar" bayrami teatrlashtirilgan reja asosida olib borilishi bayramning estetik tarbiyaviy qimmatini yanada oshiradi. Buning uchun, o'quv yurtlarining havaskorlik drama teatri azolari, musiqa va cholqu asboblari to'garaklarining ishtirokchilari bilan teatrlashtirilgan badiiy qismlar tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Shaxrisabz, Termiz, Xiva shaharlariga o'qituvchilar sayohatini uyuştirish. Bu ishlarda xalq ta'limi bo'limi, hoqimiyat, mahalla, homiy tashkilotlar, san'at va adabiyot ahli hamkorlikda faoliy ko'rsatishlari lozim.

Tomoshalar, kontsertlar, Musiqali kechalar va lektoriylarga ustozu yosh murabbiylar va o'quvchilarning bepul kirishini ta'minlash, shuningdek, ijodkor xodimlar guruhlari ta'lim-tarbiya muassasalariga tashrif buyurishlari lozim. "O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayramini o'tkazishni Respublika, viloyat, shahar, tuman ommaviy axborot vositalari orqali yoritish maqsadga muvofiqdir. Bayram o'tkaziladigan joyni bezashda quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

- "O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayramini o'tkazish uchun, avvalo, sahna mavzuga mos qilib, did bilan bezatilishi — o'qituvchi ustoz haqida hadisu Sharif, qur'oni Karim, Yusuf Xos Xojyb, A.Jomiy, A.Navoiy, A.Avloniy, Usmon Nosir, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar qori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov so'zlaridan namunalar bitilib, shior qilib osib ko'yilishi;
- Davlat Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi o'rniغا tug'ri joylashtirilishi;
- "Qur'oni Karim", "Hadisu Sharif", "Qutadqu bilig", "Qobusnama", "Mahbub ulqulub", "Muhokamatul luqatayn", "Odobnama", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Alifbe", "Ustoz-muallim", "Odob saboqlari" va boshqa qadimiy hamda zamонавиј darslik va ko'llanmalardan namunalar qo'yilishi;
- fidoyi o'qituvchilar suratlari, eng yaxshi dars va darsdan tashqari ma'naviy tarbiya ishlari bayonidan lavhalar, shuningdek, devoriy gazetalarning bayram sonlari ko'rgazma sifatida namoyish etilishi;
- O'zbekistonda "Davlat tili", "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "O'qituvchilar va murabbiylar kuni", "Davlat Mustaqilligi to'g'risida"gi Davlat qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'z aksini topishi;
- katta zalda dasturxon bayramona nozu-ne'matlar bilan to'zalishi, o'rindiqlar hozirlanishi;

—bayramga mahalla oqsoqollari, faxriy o'qituvchilar-murabbiylar, xalq ta'limi, tuman, shahar hoqimiyati, xayriya jamg'armalari, homiy tashkilotlar va matbuot xodimlari vakillari, yozuvchilar, san'atkorlar taklif etilishi;

—ota-onalar, a'luchi o'quvchilar ham ishtirok etishlari;

—bayram zarur texnik va musiqiy asbob-uskunalarini, boshlovchi, badiiy havaskorlar bilan ta'minlanishi, azaliy o'zbekona udumga binoan shodiyona karnay-surnay sadolari bilan boshlanishi lozim.

Quyida bayram tantanalarini o'tadigan joyni bezatishda foydalanish uchun buyuk allomalarning ustoz va murabbiylar haqidagi fikr va mulohazalaridan namunalarni ilova qilamiz:

1. O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur,  
Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lur.

(Yusuf Xos hojib)

2. Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila  
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yo'z ganj ila.

(A. Navoiy)

3. Jahonda bo'lmasa muallim agar  
hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar.

(A. Jomiy)

4. Ustoz, muallimsiz qolg'a nda zamon,  
Nodonlikdan bulurdi qora jahon.

A. Jomiy

5. Ustozlar—aziz yurting eng aziz, eng ulug' va mo'tabar kishilaridandir.

I.A. Karimov

6. Hayot yo'lida birinchi masala — mакtab masalasidir.

Abdurauf Fitrat

7. Ustoz yo'li porloqdir, ustoz yo'li porloqdir,  
Ustoz ko'ngli xazina, sahovatga to'likdir.

P. Mumin

3. Inson chindan ham shu ulug' nomga sazavar bo'lsa, u o'z qadriga etish bilan birga o'zgalar qadrini ham baland tutib, odamiylik burchini to'g'ri ado etadi. Ana shu insoniylik burchlaridan biri o'tganlar ruhini shod etib, ular xotirasi, qadr — qimmatini o'z joyiga qo'yishdir.

"Vatanimiz mustaqilligi uchun jonini, bor kuch — quvvatini ayamagan biror bir kishi unutmasligi kerak. Ularning har biriga munosib hurmat — ehtirom ko'rsatilishi shart", - deb ta'kidladi. Prezident I.Karimov.

O'zbek diyor o'zining fidoiy, vatanparvar, har qanday yovo'z kuchlarni enga oladigan, o'z onasi, rafiqasi, opa — singillari — yu, aka — ukalarini xor qilib qo'yishdek pastkashlikni o'ziga or deb biladigan jasur o'qlonlari bilan g'ururlana oladi. Fikrimizning dalili sifatida ikkinchi jahon urushidagi fidoyilarni olishimiz, ular bilan xaqli ravishda faxrlanishimiz mumkin. Ikkinchi jahon urushi butun qardosh respublikalar qatori O'zbekiston aholisi uchun ham oqir kulfatlarni keltirdi. O'zbek elidan ko'plab o'g'lonlar borib, begona yerlarda qolib ketdi.

Afsuski, urush qatnashchilari – hozirgi kunda hayot bo'lganlari kundan – kunga kamayib bormoqda. Bugungi kunda respublikamizda 109 ming urush qatnashchisi, 159 ming urush orqasida mehnat qilgan kishilar bor.

Respublikamiz Prezidentining “9 may – Xotira va qadrlash kuni” deb e'lon qilish haqidagi Farmoni zaminida ushbu kunlarimiz nafasi barq urib turibdi. Xotira, qadrlash bu kishi qalbi uyqoqligining, o'sha qalb toza va pokligining timsolidir.

Hayot bor ekan, demak to'g'ilish bor, o'lish bor. O'tganlarning xotirasini abadiylashtirish, ularning chiroqini doimo yoqib turish nafaqat o'sha ormizda yo'q kimsalarning izzatini joyiga qo'yishni, balki kishining o'z – o'ziga bo'lgan qadr – qimmatini ham anglatadi.

Ushbu bayramni umumxalq bayrami sifatida nishonlash bu istiqlol hadya etgan in'omlardan biri ekanligini va bu kunning mazmunli, ko'tarinki ruhda o'tkazilishiga erishmoq lozim.

Akademik litseylar, kasb – hunar kollejlari, bilim yurtdagi talabalarga jangohlarda “Vatan, Vatan, Vatan, ona, ona, ona” - deb jon bergenlar ko'p bo'lganidek, “Fevral voqealari”dek “Vatan”ni, “Ona”ni sariq chaqaga almashtiruvchi “Vatanfurush” bo'lib olmaslikni tushuntirish lozim.

Shuningdek, 9 may «Xotira va qadrlash kuni» ni umumxalq bayramini o'tkazishda quydagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

“Xotira va qadrlash kuni” umumxalq bayramini O'tkazuvchi maxsus komissiya tuzish, tadbirlar ishlab chiqish;

“Xotira – qalb chiroqi”, “Inson buyuk zot, uni qadrlash oliy hikmat” kabi mazularda maxsus darslar, turli – tuman kechalar, davra suhbatlari, savol – javob, bahslar va tarbiyaviy soatlar o'tkazish;

«Osmonimiz musaffo, erimiz tinch bo'lsin», “Yurtimiz husni jamoliga ko'z tegmasin”, “Toshkent – tinchlik shahri”, “O'tganlar xotirasi, tariklar farovonligidir”, “Xotira va qadrlash - burchimiz” kabi mavzularda sherxonlik tanlovin o'tkazish;

Ikkinci jahon urushi qatnashchilari bilan uchrashuv o'tkazish, ularning xonodonlariga borish, ularni tabriklash, ularga ma'naviy va amaliy yordam berish; “Xotira va qadrlash” kuniga bag'ishlab adabiyotlar ko'rgazmasini tashkil etish. Shuni ta'kidlash lozimki, tadbirlar talabalarning bilim ko'nikma va malakalarga qarab ijodkorlik bilan o'tkazish tavsiya etiladi.

“Xotira va qadrlash kuni”da nafaqat ikinchi jahon urushi qatnashchilari balki qatoqon yillarida nohaq ayblangan, qamoqxonalarda hamda mustabid to'zum davridagi afqon urushida halok bo'lganlarni eslash maqsadga muvofiqdir.

### **Hulosा.**

«Darsdan tashqari ta'limga qo'yilgan davlat talablari» yoshlari ta'limgat tarbiyasini yanada takomillashtirishga, samaradorligini oshirishga hizmat qiladi hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda aniq yo'naliishlarni belgilab beradi. U zamon talablari asosida tashkil etiladi. Bu borada pedagogik hodimlarning javobgarligi ham oshiriladi. Ushbu talablar asosida guruhdan va ta'lim muassasalaridan tashqari ta'larning istiqbol, rejalarini, tadbirlarini ishlab chiqish mumkin.

## **Tayanch iboralar.**

Darsdan tashqari ta'lim, tarbiya, uning turlari, shakllari, iqtisodiy tarbiya, huquqiy tarbiya, estetik tarbiya, ekologik tarbiya, ularni rejalashtirish, o'z – o'zini tarbiyalash mustaqillik, iqtidorli yoshlar tarbiyasi.

## **Nazorat uchun savollar.**

Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarga qo'yiladigan talablar.

Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarning qanday shakllari bor?

Tarbiyalanuvchilarning o'z – o'zini boshqarishi deganda nimani tushunasiz?

Darsdan tashqari ta'limning yoshlar tarbiyasidagi o'rni qanday?

Estetik tarbiyani yoshlar ongiga singdirish maqsadida qanday tdbirlar tashkil etish lozim?

Hozirgi kunda iqtidorli yoshlarga qanday imkoniyatlar yaratib berilmoqda?

Iqtidorli va iste'dodli yoshlarnizni qanday jamg'armalar o'z otaliqiga olishmoqda?

Talabaning mustaqil ta'lim olishi uchun qanday chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda?

Darsdan tashqari vaqtdagi bayram tadbirlarini qanday o'tkazish maqsadga muvofiq?

Sizningcha ta'lim muassasalarida ommaviy tadbirlarni tashkil etishda nimalarga e'tibor berish kerak?

Siz "Mustaqillik" bayramini qanday o'tkazishni taklif etasiz?

O'qituvchilar va murabbiylar" bayramini tashkil etishda talabalarni qanday aktivlashtirish kerak?

"Xotira va qadrlash kuni"ning tarbiyaviy ahamiyati nimada?

## **Adabiyotlar.**

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. P.I.Ruvinskiy. – T. 1991 y.
  2. Tarbiyaviy ishlar metodikasidagi ko'rsatmalar. Baubekova Z.D. – T. 1991 y.
  3. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish (qo'llanma) – Toshkent – 2000. J.q.Yo'ldoshev.
  - 4.Tarbiya nazariyasi. N. Xo'jaev va boshqalar. – Toshkent – 2003.
- Bolalarni tarbiyalashda va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya. Abdullaev. D.I., Ishmuhamedov R.J. – Toshkent – 2002.
- «Pedagogika» V.A.Slastenin, I.F.Isaev, A.I.Mihenko, E.N.Shiyanov. Moskva. «Shkolnaya pressa». 2004
- Voljskiy A. Metodika vospitatelnoy raboto's molodejyu. – M. 2003.
- Kotov V. Vospitatelnaya rabota v shkole: opo't i problemo'. – SPb: Sev.siyanie 2003.

## **VII. BOB Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanini o’qitishda yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish.**

### **7.1. “*Tarbiyaviy ishlar metodikasi*” fanini o’qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning o’rni.**

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning dunyo ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o’zlashtirish zarurligi ko’p marta takrorlanib, ularni o’quv muassasalariga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo’llashga intilmoqda.

Shu o’rinda savol to’g’iladi. Pedagogik texnologiya atamasining mohiyati nimada? «Texnologiya» yunoncha so’z bo’lib, «techne»-mahorat, san’at, «Logos»-tushuncha, o’rganish demakdir.

Bugungi kunda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan biri ta’lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo’llash, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda ta’lim oluvchilarni o’qitishni jadallashtirish sanaladi.

Respublikamizda ta’lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo’llashga doir keng ko’lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o’ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, etarli darajada tajribalar to’plandi. Ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko’rsatmoqda.

«Pedagogik texnologiya» so’z birikmasi asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta’limda esa fan bo’yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo’li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o’zaro aloqani o’rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o’qitishdir. O’zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o’quv jarayonini to’liq qamrab olishi kerak.

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o’z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta’rif bergan. Hali bu tushunchaga to’liq va yagona ta’rif qabul qilinmagan. Ushbu ta’riflar ichida eng maqsadga muvofiqi YUNESKO tomonidan berilgan ta’rif sanaladi.

Pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o’qitish va bilimlarni o’zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo’llash, ularning o’zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Shuningdek, texnologiya deganda, sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, pedagogning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki, boshqacha aytganda pedagog tomonidan o'qitish vositalari yordamida talabalarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin.

«Pedagogik texnologiya»ning ta'limdagi amaliylik jihatni va tashkiliy-uslubiy imkoniyatlardan foydalanishga yo'naltirilganligi, uning aniq vositalar yordamida hayotga tatbiq etilishi jahon pedagoglarining unga bo'lgan e'tiborini kuchaytirmoqda. Texnologik yo'nalishga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Ba'zi pedagoglar «pedagogik texnologiya» tushunchasi mazmunida ta'limni differentialsallash vositasini ko'rayotgan bo'lsalar, boshqalar undagi kam mehnat sarflab yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari hamda barcha ta'lim oluvchilarni oldindan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga etkazish mumkinligi bilan qiziqmoqdalar. Ayrim pedagoglar ta'limni «texnologiya» lashtirish yordamida ommaviy ta'lim amaliyotida tub burilish yasalishiga umid boqlamoqdalar.

50-yillarning o'rtalarida ta'limda texnik vositalarni qo'llash masalasi «pedagogik texnologiya» yo'nalishi bilan qo'shib ketdi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilar auditoriyasini kengaytirishda texnik vositalar imkoniyatlarini oshirish, axborot siqimi hamda ularni o'zatish sifatlari, shuningdek, ta'limni individuallashtirishga qaratildi. Ushbu yondoshuv hozirga qadar ham mavjud bo'lib, u texnik vositalarning imkoniyatlarini tayanch nuqta sifatida baholab, asosiy e'tiborni o'quv jarayonini «texnologiya»lashtirishning tashqi jihatlariga qaratadi.

60-yillarning boshlariga kelib dasturlashtirilgan ta'limni tashkil etish «texnologiya» tushunchasining asosi bo'lib qoldi. Dasturlashtirilgan ta'limni amalgalashishda ta'lim jarayoniga alohida qism sifatida emas, balki izchil jarayon tarzida yondoshiladi. Dasturlashtirilgan ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan qo'mita (AQSh) tavsiyalarida yaxlit ta'lim dasturining «texnologik» tushunchasi ilgari surildi. U o'z ichiga ta'lim maqsadi, ularni o'zgartirish va baholashning mezonlari, ta'lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o'rgatish majmuasini to'laligicha qayta tashkil etish tushunchasiga mos keladi.

Ta'limni «texnologik» yo'nalishda qurishning umumiy mezoni uning aniq va batafsil belgilangan maqsadga yo'naltirilganligidadir. Bu holatda xususiy maqsadlarni amalgalashishda ularni oshirish uchun alohida qonuniyat, jarayon, ketma-ketlik va ularga mos amallar majmuining mavjud bo'lishi asos sifatida olinadi. «Pedagogik texnologiya»ning vositaviy yo'naltirilganligi uning turli uslublar asosida ta'lim tizimlarini shakllantirish borasidagi imkoniyatlarini belgilab beradi. Bunda ta'limning tashkiliy jihatlari, oldindan, go'yoki tashqaridan belgilangan maqsadlarga erishish usuli sifatida qaraladi. Mos ravishda amalgalashishda oshirilishi talab etiladigan jarayonlar

tahlili va ularni saralash o'quv faoliyati mazmunini hisobga olmagan holda olib boriladi. Pedagogik texnologiya doirasidagina aniqlab olinadigan maqsadlarning empirik tahlili beriladi. Ta'lism maqsadlarining ajratilgan tahlili texnologik ishlanmalarning didaktik jihatdan to'laqonliligi bo'limgan vaziyatda empirik tavsif asosida ochib beriladi. Umumiy didaktik maqsadlarning texnik reduktsiyasi tahlili pedagogik texnologiya didaktik imkoniyatlari tahlilining muhim jihatni hisoblanadi. Ta'lism maqsadlarining tahliliy bayonidan tashqari har bir o'quv jarayoni uchun ta'lism uslublarini tanlashning sharti sifatida bilim darajasini oldindan tashhislash, uni muayyan ko'nikma va malakalari mavjud bo'lgan tinglovchilar bilim darajasi bilan taqqoslash qabul qilingan. Ta'lism jarayonining borishi o'quvchilarning belgilangan maqsad sari harakatlanishini uzluksiz nazorat qilishni ko'zda tutadi. Uzluksiz nazoratni tashkil qilish ta'lism texnologik tizimi yuqori vositali imkoniyatlarining asosi hisoblanadi.

2. Mustaqil shaxsni shakllantirish jarayoni uzoq va murakkab bo'lib, bir tomonidan, barcha davlat to'zilmalari hamda ijtimoiy tashkilotlarning va ayniqsa, ta'lism tizimi mazmunining takomillashtirilishini, ikkinchi tomondan esa, bevosita ushbu masalani amalga oshirishni ta'minlovchi yagona tarbiya tizimini barpo etish lozimligini taqozo etadi. Bu jarayonda kadrlar tayyorlashning yaqin kunlardagi va istiqboldagi vazifalari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, erkin tafakkur qila oladigan shaxsni, mustaqillik va demokratiya g'oyalariga sodiq bo'lgan ongli fuqaroni, o'z Vatanining jonkuyari sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotga ongli ishtirok etishga, ijtimoiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatishga, mamlakat taqdiri uchun zimmasiga mas'uliyat ola bilishga qodir shaxsni kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

Ikkinchidan, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, tub ma'nodagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish ishiga demokratiya asoslarini joriy etish jarayonlarini jadallashtirish, tafakkur va bahslashish madaniyatini rivojlantirish, shaxsning ichki dunyosini boyitish, binobarin, yangicha ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirishdir. Boshqacha aytganda, yosh avlodda yangicha ong shakllanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilmoqi kerak;

Uchinchidan, yosh avlod milliy istiqlol g'oyasini anglab olishi, bu g'oyaning har bir fuqaro uchun, Vatanning obod va farovon bo'lishi uchun hayotiy zarurat ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimini ro'yobga chiqarish lozim.

## **7.2.Dars jarayonida treninglarni tashkil qilish va uning tarkibiy qismlari.**

Treninglarni o'tkazishda guruhlar bilan ishslash va ularga rahbarlik qilish. Bugungi kunda pedagogikada talabalarning ta'lism jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi turli rolli o'yinlar, treninglar, babs munozaralarni tashkil qilish va hokazolardir. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish jarayonida ayniqsa treninglarning o'rni beqiyosdir. Sababi trening o'tkazish jarayonida talabaning nutqi o'sadi, tafakkuri rivojlanadi, muloqatga tez kirisha oladigan bo'ladi. Shu sababli trening verbal va noverbal ko'rinishda tashkil etish mumkin.

Treningni noverbal (so'zsiz, mimika, pantomimika, qarash va hakozolar) ko'rinishda tashkil qilgan tarbiyachi gapirayotganida har bir qatnashuvchini ko'z ostida tutishi, hammaga bir xil e'tibor berishi va guruhdagi ba'zi odamlarga xayrixoh bo'lib qolmasligi lozim. Xonada guruhning diqqatini bo'zmasdan harakat qilishi (tez-tez va maqsadsiz yurishlardan qochishi, shuningdek, guruhga o'zi ko'rinxayri maydigan joydan turib gapirishi) kerak bo'ladi. Qatnashuvchilarning bosh qimirlatishi, tabassumi va xatti-harakatlari nimanidir aytmoqchi ekanligiga, xohishi borligiga e'tibor berishi kerak bo'ladi.

Treningni verbal ko'rinishda tashkil etilsa, pedagog savollarni shunday tuzishi kerakki, asosan qatnashuvchilar gapirsin. Bunda tarbiyachiga ochiq savollar yordam beradi: "Siz bu haqda nima deysiz?", "Nimaga?", "qanday...?", "Agar..." va hokazolar. Agar qatnashuvchi "ha", "Yo'q" deb javob bersa, "Nimaga shunday gapiryapsiz?" deb so'rash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari boshqa qatnashuvchilardan ham so'rash kerak tasdiqlangan fikrlarga qo'shiladimi?

Pedagog trening o'tkazish jarayonida o'z ovozining ohangiga e'tibor ham e'tibor berishi, sekin va aniq gapirishi kerak bo'ladi. Qatnashuvchilarni ko'proq gapirishga undash kerak. Tarbiyachi o'zining va qatnashuvchilarning so'zga chiqishi vaqtini hisoblashi lozim bo'ladi. hamma savollarga faqat o'zi javob bermasligi, qatnashuvchilar bir-birlarining savollariga javob berishi mumkinligini unutmasligi lozim. Baxs natijalarini xulosa qilishda har bir mashg'ulot qatnashchisining muhokama qilinayotgan muammoni mohiyatini to'g'ri tushunayotganini aniqlab, keyin umumiy xulosa chiqarish kerak. Agar tarbiyachining shaxsiy tajribasi mazkur baxsga mos kelsa, qatnashuvchilar fikrlarini mustahkamla "Bu menga o'tgan yilgi voqeani eslatadi" – deyishi mumkin.

Yaxshi trening o'tkazishning bir nechta tarkibiy qismlari mavjud.

Izyuminka. ( Bolalar bilan ishslashning o'ziga xos ajoyib tomoni.) qatnashuvchilarning treninga qiziqishini uyqotish uchun qisqa baxs boshlang, savollar bering, provokatsion ta'kidlashlarini ilgari so'ring eki qandaydir faoliyat to'rini faraz qiling. O'qish qatnashchilarining avvalgi bilimlari va ularning haetiy tajribalarini boqlashga harakat qiling. Trening nima uchun ahamiyatli ekanligi sabablarini tushuntiring.

Qatnashuvchilar uchun natijalarini ta'kidlash. qatnashuvchilarga ulardan nima kutilayotganligi tushuntiring. Qatnashuvchilar uchun natijalar quyidagi savolg'a javob berishi kerak: "Bu treningdan keyin qatnashuvchilar nimalarni bilishini va qilishini xohlamayman?".

Trenerning hissasi. Trening uchun kerakli boshlanqich ma'lumot va yetarli bilimlar (matn, ma'ro'za, xujjatlar, o'qish) va biror faoliyat to'rini o'tkazish uchun Fan mazmunini namoyish qiling.

Interfaol. Bu – trening yuragi. Interfaol uslubietda foydalanadigan ish tartibini qisqacha baen qiling. Interfaol uslub – bu jamoaviy muxokamani tashkil etish, fikrlarni erkin aytish, muhokama, tahlil va faoliyatni baholashdir. Umuman treningdagi faoliyatning ushbu turida qatnashishning barcha qadamlarini chizib chiqing. Ayniqsa, guruhda ishslash uchun aniq va qisqa tushuntirishlar olib boring. Tushuntirishini tekshiring va tushuntirishlar bering.

Treningni to'liq yakunlashga vaqt etishi uchun uning har bir qismini diqqat bilan tashkil qiling. Treningni o'tkazish savollari bu erda muhim ahamiyatga ega (guruhni o'lchovi, guruhga shaxsiy erdam, tushunishini tekshirish). Aynan shu narsalar treningni o'tishiga erdam beradi. Trener mashqlarni bajarish jarayonida qatnashuvchilarni topshiriqlarni to'g'ri bajarishini ko'zatib boradi.

Debriefing (xulosa) baholash. qatnashuvchilar o'zлari yodlagan, o'rgangan yo'nalishlari bo'yicha xulosa qiladilar, olingen ma'lumotlar va malakalarni boshqa holatlarda, bolalar bilan ishlashda qo'llashni muhokama qiladilar.

Bu – treningni baholash qismidir. «qatnashuvchilar nimani o'rgandilar?». Trening davomida o'rganganlari eki ko'rsatganlari natijalar Bilan mos kelishini tekshiring. “Muammoli bola” treningni o'tkazish texnologiyasi.

Treningni maqsadi:

Qatnashuvchilarga muammoli bolalar bilan o'zaro til topishishning hamda ular bilan bo'ladigan turli vaziyatlarda to'g'ri echimni topishlarga erdamlashish.

Muammoning mohiyatini aniqlashda malakani shakllantirish.

Tarbiyaning ba'zi usullari bilan tanishtirish, bolalar va o'smirlar bilan ishlashda ushbu uslublarni to'g'ri tanlashni o'rgatish.

Muammoli bolalarning paydo bo'lish sabablari va etakchi tarbiyachilarning ushbu muammoni echishdagi xatti-harakatlarini to'g'ri anivlashni o'rgatish.

### **7.3.Treninglarni o'tkazishda guruhlar bilan ishlash va ularga rahbarlik qilish.**

Eng avvalo, ta'limning guruqli shakli “ta'lim beruvchi – ta'lim oluvchi” dialogidan voz kechishni va “ta'lim beruvchi – guruh – ta'lim oluvchi” ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni nazarda tutadi. O'quv guruhi, tarkibi bo'yicha harakatchan kichik guruhlarga bo'linadi va ularning har – biri o'zicha o'quv materialini o'zlashtiradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, shu tufayli siz bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida ancha mustahkam kontakt o'rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o'zida ta'lim jarayonida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.

Ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakti tashkillashadi, bu esa, o'quv – bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi:

vazifani hamkorlikda o'rtoqlari tomonidan bildirilgan fikirlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo'ladi;

ta'lim oluvchilar bir- biriga savollar beradilar, shuning uchun, ular savollarni aniq shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni-argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa, ular bir birlarini diqqat bilan eshitishlari kerak;

guruhlarda ishlash paytida, zarurati bo'lganda, ta'lim oluvchilar yordam berishlarini so'raydilar va boshqalarga yordam berishni o'rganadilar.

har bir ta'lim oluvchining potentsial imkoniyatlarini rivojlanishi va amalga oshirilishi ta'minlaydi:

-qobiliyatli va iqtidorli bolalar, ularni «maqtanganlik» larida ayblashtiridan cho'chimasdan o'z qobiliyatlarini ko'rsatishlari mumkin. Ular, guruhda nafaqat ta'lim beruvchi roliga bo'lishlari, balki ta'lim oluvchirolida ham bo'lishlari mumkin va

ta'lim beruvchi roolidagi o'z o'rtoqlari tomonidan baholanishi, raqib bo'lmasdan ulardan o'rganishi mumkin; o'rtacha qobiliyatga ega yoki harakteri bo'yicha qo'rkoq bolalar o'z bilimlari va mahoratlarini namoyon qilish imkoniyatini oladilar.

Kichik guruhlarda ishslash, ularni stress holatlardan xalos etadi, ya'ni noto'g'ri javob berganda butun jamoa oldida izza bo'lishdan qo'rqlikdan holi bo'ladi. Guruh a'zolari, javobni do'stona baholab, ularda o'ziga ishonch tuyg'usini uyg'otish imkonini beradilar. 4 -5 kishidan iborat guruhda, qo'rkoq kishi, 25 kishilik guruh oldida o'zini tutishga nisbatan, o'zini ancha erkin his etadi;

Ta'limning ushbu shakli, ta'lim oluvchilar bilimini o'zaro hamkorlikdagi boyishini ta'minlaydi: faqatgina kooperatsiya va harakatlar (bilish) usullari bilan o'zaro almashish umumiy mahsulot olish – muammoni yechish imkonini beradi. Shuning uchun, guruhda ta'lim berishda, biz, jamoaviy muhokama qilishdan, o'zaro konsultatsiyalar berishda maksimal foydalanamiz.

Guruhlarda ishslash, atrofdagilarga bo'lgan munosabatni o'zgartiradi, «men va ular»dan «biz»ga o'tishni ta'minlaydi va o'zini guruhnинг bir bo'lagi sifatida his qilish imkonini beradi.

4. Guruhlarni shakllantirish tamoyillari. Avvalombor, «tamoyil» tushunchasi nimani anglatishini aniqlab olaylik.

Guruhlarni shakllantirish tamoyillari:

bu, guruhlarni shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilishga bo'lgan asosiy talablar ifoda qilingan, umumiy, birlamchi qoidalardir.

Shu bilan birga, guruhlarni shakllantirish tamoyillari:

bu tayyor retsept va universal qoida emaski, unga rioya qilgan holda yuqori natijalarga erishishga umid qilsak. Ularni amalda bajarish quyidagi xususiy omillar bilan belgilanadi:

bizning va ta'lim oluvchilarning motivatsiyasi bilan: nafaqat bizning o'zimiz, balki har bir ta'lim oluvchi ham, ushbu talim shaklini mohiyatini tushunib etishi juda muhimdir;

bilimlar va tajribalar bilan;

bizning pedagogik mahoratimiz bilan.

Shunday qilib, ta'lim oluvchilar guruhlarini shakllantirishda, qanday tamoyillardan foydalanamiz?

Ta'lim oluvchilarni guruhlarga ajratish paytida o'qitish maqsadlarini, natijalarini va usullarini hisobga olish.

Ta'lim shaklini tanlashni belgilovchi asosiy omil, ta'lim maqsadlari hisoblanishini biz aniqlab bo'ldik.

Ushbu ta'riflanishdan ko'rinish turibdiki, ta'lim maqsadlari deganda, nafaqat maqsadlarning o'zi, balki natijalar ham tushiniladi. Shuning uchun, biz, guruhli bilish faoliyatini amalga oshirish uchun guruhlarni shakllantiramiz, ya'ni:

biz qo'ygan ta'lim maqsadlaridan (o'qituvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi, motivatsion) kelib chiqqan holda (2 – jadvalga qarang);

ta'lim texnologiyalari loyihasiga kiritilgan ta'lim usulini e'tiborga olg'a n holda (3 – jadvalga qarang);

Bunda, ta'lif oluvchilarni guruhlarga birlashtirishni, biz quydag'i belgilarga qarab amalga oshirdik:

\*birinchidan, tasodifiy belgi bo'yicha:

buning uchun, ta'lif oluvchilarga 1 dan 5 gacha ketma – ket sanashlarini iltimos qilamiz, keyin esa, «birinchilarni»

«ikkinchilarni», «uchinchilarni», va h. k. kichik guruhlarga birlashtiramiz; yoki ta'lif oluvchilarni, auditoriyada joylashganliklariga qarab, ixtiyoriy guruhlarga birlashtirishimiz mumkin.

ikkinchidan, ularni o'qishda erishgan yutuqlari darajasini belgilash asosida: baravarlashtirish guruhi;

qo'llab – quvatlash guruhi;

rivojlantirish guruhi (Go'zeev V. V., 1996).

Guruhnинг son tarkibini aniqlash paytida paytida vazifaning harakterini hisobga olish.

kichik vazifalarni bajarish uchun guruhnинг maqbo'l tarkibi

3-5 kishi (mashqlar, o'quv turniri, kitob bilan ishslash va boshqalar).

ko'p mehnat talab qiladigan (chet tillar bo'yicha Mashg'ulotlarda) murakkab vazifalar uchun ko'p sonli guruh tuzish zarur;

bir – birini tushunishni talab qiladigan (chet tillar bo'yicha darslarda) mashqlar uchun juftliklarda ishslash yaxshi.

Guruhlarni faoliyat ko'rsatishda vaqt omilini hisobga olish. har bir guruh, unga yuklatilgan vazifani bajarish uchun ajratilgan vaqt qancha bo'lsa, shuncha vaqt faoliyat ko'rsatadi. Albatta, bir nechta o'quv mashg'uloti paytida ishslashni talab qiladigan muammoli tadqiqotni bajarish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, unda ushbu guruh bir nechta darsda faoliyat ko'rsatadi.

Vaqt tugashi bilan, guruh hisobot beradi va o'z faoliyatini tugalaydi.

#### **7.4. Guruh tarkibini almashuvchan harakterini hisobga olish.**

Guruhlar doimiy tarkibda faoliyat ko'rsatsa, guruhdagi ishslash mazmunini buzilishiga olib kelishi mumkin. Jamoa uchun maksimal samara bilan guruhdagi har bir a'zoning o'qish imkoniyatlari amalga oshishi maqsadida, guruhdagi ishslash, barcha ta'lif oluvchilarni faolligini, mutanosib rivojlanishini ta'minlashi zarur.

Talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida dars jarayonida turli mavzularda bahs – munozaralarning o'tkazilib to'rishi maqsadga muvofiqdir. Zaro munosabatlarini yanada yaxshilash, bir-birlariga tezlik bilan ko'nikishlari uchun ba'zida bolalar guruhlari bahslar tashkil tilib turilsa maqsadga muvofiq bo'ldi. Chunki bunday bahslar talabalarning o'z fikrlarni charxlab olishga, haetga va turli muammolarga bo'lgan munosabatini aniqlab olishga katta erdam berdi. Bahs mavzularini talabalarning o'zlarini aytib berishlari mumkin. Bu mavzular talabalarning bahsga chorlovchi, muammoli, qiziqarli bo'lishi kerak, bo'lmasam, bahs davomida o'z fikrlarni baen eta olmaydilar eki bahsga qo'shilib o'z fikrlarni isbotlar himoya qila olmaydilar. Bahslar talabalarning ba'zi yanglish fikrlarga qarshi kurashishga o'rgatadi, atrofdagi bo'laetgan voqealarga tushungan holda qarab ularni to'g'ri sharhlashga, o'z pozitsiyasida turishga noo'rin fikrlarga o'z vaqtida qarshilik

ko'rsatishga hamda har bir fikrni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlab olishga, shu bilan bir qatorda o'rtoqlari bilan suhbat qilish, bahslashish, o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish, ta'sir eta olish madaniyatiga o'rgatadi. Bahslarni samarali o'tishi, albatta, ularning oldindan qanday tayyorlanganligiga bog'liq. Biz quyidagi bahslarga tayyorgarlik ko'rishning ba'zi bir bosqichlarini ajratib ko'rsatmoqchimiz:

Bahs mavzusini tanlash va uni tasliqlab olish.

Tarbiyaviy vazifalarini aniqlab olish.

Oldindan bahs mavzusini e'lon qilish va bahs davomida muhokama qilinadigan savollarni belgilab qo'yish.

Talabalarni bahs davomida muhokama qiladigan savollarni to'larq yoritishga yordam beradigan qo'shimcha materiallarni to'plash.

Bahsni o'tkazish uchun mas'ul va boshlovchilarni tayinlash.

Bahs o'tkaziladigan joyni jihozlash.

Bahs qatnashchilari bahsni o'tkazish va unda o'zini tutish to'g'risidagi qoidalar bilan oldindan yoki bahs davomida tanishib olishlari kerak. Ular quyidagilar:

Bahslashishdan oldin, avval nima demoqchililingni yaxshilab o'ylab ol. Gapirayotganingda fikrlaringni aniq, sodda, mantiqan va ketma-ketlik bayon qil. Faqat seni hayajonga solayotgan, ishonching komil bo'lган fikrlarni bayon etishga harakat qil, o'zing bilmagan, o'zing ishonmagan fikrlar bilan bahslashma.

Kimningdir fikriga qo'shilmasang, sen uni fikrini masharalamay, uning ustidan kulmay, xatosini aytmay haqgo'ylik bilan bahslash.

Sen gapirguningcha aytilgan fikrlarni qaytarma, yangi fikr bo'lsagina o'sha fikringni bayon et.

Bahslashuv davomida qo'llaringni har tomonga o'ynatma, ovozingni balandlatma, baqirib gapirma, agar boshqalarni o'z fikringga ishontirmoqchi bo'lsang, ularni sening fikringga qo'shilishlarini istasang, unda sen o'z fikrlarning isbotiga, albatta, aniq dalillar, misollar keltir.

Sen bilan bahslashayotgan suhbatdoshingni hurmat qil, uni xafa qilmaslikka, uning shaxsiga tegadigan gaplarni, qiliqlarni qilmaslikka harakat qil, agar sen shunday qilsang sen o'zingni faqat bahslashuvda kuchli ekanligingni ko'rsatibgina qolmay, balki bahslashuv borasida qanday madaniyatga ega ekanligingni ham ko'rsata olgan bo'lasan.

Yuqorida ko'rsatilgan qonunlar chiroyli qilib bezatilgan xolda uzoqdan ko'rindigan qilib yozilib bahs o'tkaziladigan joylarga ilib qo'yiladi.

